

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida
UO'K: 811.512.133'373.46:821.512.133.09**

UBAYDULLAYEVA UMIDA ABDUSHUKUR QIZI

**ALISHER NAVOIY «LAYLI VA MAJNUN» DOSTONI
TERMINLARINING LINGVO-KOGNITIV TAHLILI**

10.00.01 – O'zbek tili

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Mirzayev Ibodulla Kamolovich,
filologiya fanlari doktori, professor**

Jizzax – 2024

MUNDARIJA

KIRISH	
I BOB. TERMINOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY ASOSLARI.....	11
1.1-§. Termin tushunchasi mohiyati va talqini.....	
1.2-§. Termin, terminologiya va ularning yondosh tushunchalarga munosabati	
1.3-§. Badiiy asar terminlariga lingvo-kognitiv yondashuv	
Bob bo‘yicha xulosalar	
II BOB. “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI TERMINLARI VA ULARNING LINGVO-KOGNITIV TAHLILI	
2.1-§. “Layli va Majnun” dostoni terminlarining mavzuiy guruhlari	
2.2-§. “Layli va Majnun” dostoni terminlarining genezisi	
2.3-§. “Layli va Majnun” dostoni terminlarining derivatsion xususiyatlari....	
Bob bo‘yicha xulosalar	
III BOB. “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI TERMINLARINING MORFOLOGIK, SINTAKTIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI	
3.1-§. Doston terminlarining morfoloqik xususiyatlari	
3.2-§. Terminlar lisoniy-badiiy fenomen sifatida	
3.3-§. Doston terminlarining sintaktik va semantik xususiyatlari	
Bob bo‘yicha xulosalar	
XULOSA	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	123
QISQARTMALAR	136

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon tilshunosligida terminologik leksikaning badiiy matndagi talqiniga qiziqishning ortishi natijasida yangidan yangi terminlarning yuzaga kelishi inson tafakkurining yanada o'sishiga xizmat qilmoqda. Badiiy terminologik lug'atlar yaratish, terminlarning badiiy asarlardagi morfologik, sintaktik, semantik belgilari hamda lingvo-kognitiv tabiatini, genezisi, derivatsiyasini aniqlash borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Terminlarning adabiy tillar rivojlanishidagi ahamiyati, badiiy asar terminologiyasi masalalari hanuzgacha tilshunoslar oldidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Dunyo tilshunosligida badiiy asar terminologiyasiga murojaat qilinishi natijasida terminologiyaga oid bilimlar, lingvopoetik, kognitiv tahlil tamoyillari, matn qurshovida terminlarning o'rganilishi ijodkorning qomusiy bilimlarini ochishga, so'z tanlash va uni badiiy maqsadlarda qo'llash mahoratini baholashga doir izlanishlar olib borilishiga asos bo'lmoqda. Shuningdek, badiiy asar terminlarining hosil bo'lishi, terminologik tizimning shakllanishi, rivojlanishi, mazkur sohaning, fanning bir ko'rinishi sifatida tarkib topib, o'z taraqqiyot bosqichlariga ega bo'lishi, takomillashib borishi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Bugungi kunda terminlarning genezisi, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rganish, badiiy asar terminlarini kognitiv yondashuv asosida tahlilga tortish, o'rganish ko'lamini kengaytirish dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sohaviy terminologiyaga, uning taraqqiyoti, rivojiga doir ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. "O'zining beba ho asarlari bilan ona tilimizning qadrini va qaddini tiklagan buyuk mutafakkir ajdodimiz Alisher Navoiy hayoti va ijodining mukammal ensiklopediyasini yaratish ham oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir"¹. Eski o'zbek adabiy tili terminologiyasining takomillashuvida, uning yanada yuqori bosqichga ko'tarilishida Alisher Navoiy ijodining o'rni beqiyosdir. Shu bois Navoiy asarlari terminlarining lingvo-kognitiv tahlilga tortilishi ayni kun tilshunosligining zaruriy masalalaridan hisoblanadi.

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-yanvardagi 40-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2020-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqi hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida terminologiya, sohaviy terminlarni yoritish, izohlashga doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, V.P.Danilenko, O.S.Axmanova, E.A.Kolesnikova kabi tilshunos olimlar terminologiya rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan tadqiqotlar yaratgan².

² Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языковедению. – Москва, 1939. – С. 3-54.; Виноградов В.В. Избранные труды: Исследования по русской грамматике. – Москва: Наука, 1975. – 559 с.; Виноградов В.В. Избранные труды: Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – 312 с.; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – 608 с.; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – Москва: Наука, 1977. – 246 с.; Колесникова Е.А. Русская лингвистическая терминология второй половины XVIII - первой трети XX вв // Мир науки, культуры, образования. № 2 (21). – Красноярск, 2010. – С. 222-226.

O‘zbek tilshunosligida terminologik tadqiqotlar XX asrning 30-yillaridan boshlangan va S.Ibrohimov, H.Dadaboyev, A.Hojiyev, I.Sodiqova, S.Nurmatova, D.Kadirbekova, I.Ermatov kabi olimlarning ishlarida aks etgan³. O‘zbek tilshunosligida badiiy asar terminologiyasiga doir qilingan tadqiqotlar sanoqli. Dastlab X.Shamsiddinov o‘zining nomzodlik ishida badiiy matnda terminning qo‘llanish xususiyatlariga to‘xtalga. Mazkur tadqiqotda she’riy matnda terminning uslubiy vazifalari, shuningdek, terminning funksional sinonimlarining qo‘llanilish xususiyatlari o‘rganilgan⁴. Keyinchalik H.Dadaboyev XI-XV asrlarga oid turkiy yozma yodgorliklarda qo‘llangan terminlar tadqiqi bilan shug‘ullangan bo‘lsa⁵, H.Yodgorov harbiy terminlarning sinxron tadqiqi⁶, Z.Isaqova A.Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridagi ijtimoiy-siyosiy leksika⁷, Z.Xolmonova va Z.Raximovalar Tohir Malikning “Saodat saroyi” asarida qo‘llangan terminlar tadqiqi⁸ni amalga oshirganlar. N.Jalilova badiiy matndagi qon-qarindoshlik terminlarining tipologik va struktural-grammatik tavsifini o‘rgangan⁹. D.Jamoliddinovaning doktorlik dissertatsiyasida terminning badiiy asardagi lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari, terminning badiiy

³Иброхимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. II-III. – Тошкент: Фан, 1959. – 456 б.; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.; Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. Ахборот. 11 – 12 чиқарув. – Тошкент: Фан, 1996. – 45 б.; Садыкова И.Х. Принципы составления англо-русско-узбекского учебного словаря юридических терминов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998. – 174 с.; Нурматова С.Х. Истоки формирования и функционирование астроавиакосмической терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2000. – 24 с.; Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 44 б.; Эрматов И.Р. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти (умумий ўрта таълим мактабларининг дарслклари асосида): Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 52 б.

⁴Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 18 б.

⁵Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.

⁶Ёдгоров Ҳ. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи. Филол. фанлари ном... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 26 б.

⁷Исақова З. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фанлари ном... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 24 б.

⁸Холмонова З., Рахимова З. Бадий матнда терминларнинг ўхшатиш сифатида қўлланиши. (Т.Маликнинг “Саодат саройининг қалити” асари мисолида). Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3 (1 Part 1), Б.147-150.

⁹Жалилова Н.Р. Бадий матндана қон-қариндошлик терминларининг типологик ва структурал-грамматик тавсифи: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 44 б.

matnda uslubiy xoslanishi kabi masalalar tadqiq qilingan¹⁰. A.Xasanovning tadqiqot ishida Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi terminlarining tarkibiy-mazmuniy xususiyatlari o‘rganilgan¹¹. Tilshunosligimizda Alisher Navoiy asarlari leksikasi turli jihatlardan tahlilga tortilgan ilmiy ishlar mavjud¹². Ammo Alisher Navoiyning “Xamsa” asari tarkibiga kiruvchi “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan terminlar yaxlit holda monografik yo‘sinda tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tili va adabiyoti ta’limining dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan terminlarni aniqlash, mavzuiy guruhlar asosida ma’lum bir tizimga solish, lisoniy-kognitiv xususiyatlarini ohib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

terminologik tadqiqotlarning nazariy asoslarinini, termin tushunchasi mohiyati va talqinini, termin, terminologiya va ularning yondosh tushunchalarga munosabatini, badiiy asar terminlariga lingvo-kognitiv yondashuvni yoritish;

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan terminlarni to‘plash, mavzuiy guruhlarga ajratsih, ularni lingvo-kognitiv tahlilini amalga oshirish;

“Layli va Majnun” dostonida aniqlangan terminlarining genezisi hamda derivatsion xususiyatlarini aniqlash;

¹⁰Жамолиддина Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоетик ва лингвокултурологик хусусиятлари: Филол. фанлари док... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 54 б.

¹¹Xasanov A. Sadriddin Ayniy “Sudxo‘rning o‘limi” povesti terminlarining tarkibiy-mazmuniy tahlili: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 52 b.

¹²Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 157 б.; Зарипов Б. Зоонимларнинг бадиий санъат турларини хосил килишдаги иштироки (Алишер Навоий асарлари мисолида): Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2002. – 128 б.; Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркӣ лексика тадқиқи (структур-грамматик, функционал-семантик аспектларда): Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2007. – 169 б.; Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фанлари док... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 48 б.

“Layli va Majnun” dostoni terminlarining morfologik, sintaktik va semantik belgilari, terminlarning lisoniy-badiiy fenomen sifatidagi xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Alisher Navoiyning “Xamsa” asari tarkibiga kiruvchi “Layli va Majnun” dostonidagi terminlar olingan.

Tadqiqotning predmetini Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan terminlarning lingvo-kognitiv xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, komponent tahlil, derivatsion, tasniflash, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Layli va Majnun” dostonida aniqlangan 778 ta terminning 491 tasi (63 foizi) hozirgi o‘zbek adabiy tilida asl yoki fonetik o‘zgarishga uchragan holatda uchrashi, shulardan faqat 37 tasi (7 foizi) o‘zbek tilining besh jildlik izohli lug‘atida termin maqomida berilganligi aniqlangan;

genetik xususiyatiga ko‘ra doston tilidagi terminlarning 15% (119 ta) o‘z qatlamga, 85% (659 ta) o‘zlashma qatlamga, xususan, qariyb 60 foizi (470 ta) arabcha, 188 ta (jami terminlarning 24 foizi) fors-tojikcha terminlar ekanligi ochib berilgan;

rikob, tufrog’, giyo kabi ot- terminlar, *chekib o‘q, uylanmak, ovla* singari fe’l- terminlar, *bir, ikov, yuz, ming* kabi son-terminlarning erkalash, o‘xshatish, ta’kid, kuchaytirish singari lingvo-kognitiv xususiyatlari yoritilgan;

doston tilidagi terminlarni sintaktik parallelizm, emotsional gaplar, ritorik so‘roq gaplar, inversiya, ellipsis, antiteza singari sintaktik figuralarni hosil qilishdagi ishtiroki, sintaktik usuldan badiiy nutqning ta’sirchanligini oshirishda keng foydalanilganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dostonda qo‘llangan terminlarni to‘plash, mavzuiy guruhlarini aniqlash, sohalarga oid terminlarni tartibga solishda tadqiqotning amaliy jihatdan ahamiyatli ekanligi dalillangan;

hozirgi o‘zbek terminologiyasida sodir bo‘luvchi leksik-semantik jarayonlarning aksariyati Navoiy asarlari terminologiyasida ham voqelangani doston terminlari orasida uchragan omonimiya, giper-giponimik munosabat (giponimiya), graduonimik munosabat, partonimik munosabat, sinonimiya va antonimiya hodisalari vositasida isbotlangan;

dostonda qo‘llangan terminlarning terminologiya tarixi va taraqqiyotidagi o‘rni umumlashtirilib, yondashuvlar takomillashtirilib, nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqotda to‘plangan mavjud terminologik materiallar, nazariy xulosalar o‘zbek tilshunosligi, leksikologiya va terminologiyani muayyan ilmiy xulosalar bilan boyitishi, Navoiyshunoslik uchun ham qo‘sishimcha manba bo‘lishi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda tahlilga tortilgan materiallarning, ya’ni “Layli va Majnun” dostonida keltirilgan terminlarning lingvo-kognitiv tahlili natijasida chiqarilgan xulosalar aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, terminlarning tadqiqida zamonaviy tahlil usullaridan foydalananligi, erishilgan natijalarning hamda terminlarni badiiy matn qurshovida tahlil qilish bo‘yicha berilgan tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan nazariy xulosalar o‘zbek terminologiyasi tarixida Alisher Navoiy ijodining o‘rni haqida tizimli tasavvur hosil qiladi, badiiy asarda terminlarning qo‘llanishi haqidagi bilimlarni boyitishi hamda Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonini o‘rganishda asosiy manbalardan biri bo‘lishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Alisher Navoiy ijodiga doir ilmiy izlanishlar uchun material bera olishi, terminologiyaga doir darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma va monografiyalar tayyorlashga, terminologik lug‘atlar tuzishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostoni terminlarining lingvo-kognitiv tahlilidan olingan ilmiy-nazariy natijalar asosida:

“Layli va Majnun” dostonida aniqlangan 778 ta terminning 491 tasi (63 foizi) hozirgi o‘zbek adabiy tilida asl yoki fonetik o‘zgarishga uchragan holatda uchrashi, shulardan faqat 37 tasi (7 foizi) o‘zbek tilining besh jildlik izohli lug‘atida termin maqomida berilganligi aniqlangan o‘rinlardan FA-F1-OO5-raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 22-dekabrdagi 508/1-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning terminlarning etimologiyasi, yasalishi, o‘zga tillardan o‘zlashishi, terminologiyaning boyish manbalari haqidagi ma’lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan;

genetik xususiyatiga ko‘ra doston tilidagi terminlarning 15% (119 ta) o‘z qatlamga, 85% (659 ta) o‘zlashma qatlamga, xususan, qariyb 60 foizi (470 ta) arabcha, 188 ta (jami terminlarning 24 foizi) fors-tojikcha terminlar ekanligi to‘g‘risidagi xulosalardan II-4721101717-raqamli “Xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslарини o‘qitish va malaka oshirish markazining 2024-yil 27-martdagи 502-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan platforma o‘z va o‘zlashgan qatlam terminlari bilan boyitilgan;

rikob, tufrog’, giyo kabi ot- terminlar, chekib o‘q, uylanmak, ovla singari fe’l- terminlar, bir, ikov, yuz, ming kabi son-terminlarning erkalash, o‘xshatish, ta’kid, kuchaytirish singari lingvo-kognitiv xususiyatlari haqidagi xulosalaridan FA-F1-005-raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 22-dekabrdagi 508/1-son

ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy qismining dalillar bilan boyitilishiga erishilgan;

doston tilidagi terminlarni sintaktik parallelizm, emotsional gaplar, ritorik so'roq gaplar, inversiya, ellipsis, antiteza singari sintaktik figuralarni hosil qilishdagi ishtiroki, sintaktik usuldan badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirishda keng foydalanilganligi to'g'risidagi xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi ijodkorlari tomonidan 2023-yil 24-dekabrda efirga uzatilgan "Assalom, Samarqand!" ko'rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 8-yanvardagi 01-07/3-son ma'lumotnomasi). Natijada tomoshabinlarning Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni tilidagi terminlar bilan yaqindan tanishishlariga imkon yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari va xulosalari bo'yicha 8 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, 2 tasi xalqaro va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 122 sahifani tashkil etadi.

I BOB. TERMINOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Termin tushunchasi mohiyati va talqini

Ma'lumki, til kishilik jamiyatining buyuk xazinasi hisoblanadi. "U, avvalo, kishilar o'rtasida, jamiyatda aloqa va o'zaro fikr almashishning muhim vositasi; tilshunoslikning asosiy o'rganish obyekti; borliqdagi narsa, hodisalarga va ularni ongda aks ettirishga xizmat qiladigan, nutq a'zolari tomonidan aslidagiday tiklanadigan va muayyan jamiyat doirasida hammaga ma'lum va maqbul bo'lgan tovush belgilari majmui, shuningdek, ushbu belgilarning fikr ifodalash jarayonida birga qo'shilishi, birikishi haqidagi qoidalar to'plami"¹³. Til kishilik jamiyatiga bog'liq holda taraqqiy etadi, asrlar davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlarni aks ettiradi va avlodlarga yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Atoqli tilshunos olimlar I.Mirzayev va A.Madvaliyevning ko'rsatishicha, maqsadi, vazifasi va shu kabilarga ko'ra, tilshunoslikning bir necha sohalari qatori amaliy tilshunoslik – tildan foydalanish bilan aloqador amaliy masalalarni (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika, transkripsiya, transliterasiya va boshqalar) hal qilish metodlarini ishlab chiquvchi yo'naliш; matematik lingvistika, strukturaviy tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va boshqalarni, paralingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalar so'zlovchi (shaxs)ning jamiyatdagi faoliyati bilan aloqador til xususiyatlarini o'rganadi. Olimlar bundan tashqari har bir tilda muayyan sathlar va birliklarni o'rganuvchi ko'plab tarmoq va bo'limlar mavjudligini qayd qiladilar¹⁴. Qayd etilgan bu sohalar tilning jamiyat hayotida tutgan o'rni, tuzilishi, tarixi va hozirgi holati, rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etadi.

Jahon ilm-fanining rivoji tilshunoslik fanida terminologiyaning alohida mustaqil soha sifatida rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ma'lumki, terminologiyaning sohalariga oid tushunchalarni o'rganish, turli kasb-hunar, ixtisosliklarni

¹³<https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/til-uz-2/>

¹⁴<https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tilshunoslik-uz/>

o‘zlashtirishda, ilmiy-texnik taraqqiyotni ifodalashda salmoqli o‘rin egallaydi. Bu esa mazkur sohadagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Xalqlar o‘rtasida turli aloqalarning rivojlanishi, texnologiya, ilm-fan rivoji tufayli tilimizga yangidan-yangi tushunchalarni anglatuvchi terminlar kirib kelishi davom etmoqda. Bugungi kunda ilm-fanni termin tushunchasisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tilshunos olim A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da berilishicha, “Termin (lot. terminus – chek, chegara, chegara belgisi). Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi; atama. Terminlar bir ma’noli bo‘lishi, ekspressivlik va emotSIONALLIKKA ega bo‘lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste’moldagi so‘zlardan farqlanadi...”¹⁵.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da termin so‘ziga “termin (lot. terminus – chek, chegara). Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi; atama”¹⁶ tarzida izoh berilgan.

Akademik V.Vinogradov mazkur soha bilan bog‘liq muammolarning ilm-fan uchun muhimligini qayd etar ekan, “bu masalani umumiyl Tilshunoslik doirasida o‘rganish lozimligi, buning uchun tadqiqotchi, nafaqat, nazariy bilimlar, balki amaliyot bilan, amaliy sohalar bilan, til taraqqiyoti, xalq madaniyati va ma’naviyati tarixi bilan ham yaqindan tanish bo‘lishi kerak”ligini uqtiradi¹⁷.

D.E.Rozental va M.A.Telenkovalar tomonidan yaratilgan “Lingvistik terminlarning lug‘at-so‘roqligi”da berishicha, “termin (lot. terminus – had, chegara, chegara belgisi). Fan, texnika, san’atda qo‘llanadigan qandaydir tushunchani aniq ifodalaydigan so‘z yoki so‘z birikmasi. Ko‘pincha ko‘p ma’noli bo‘lgan, umumqo‘llanishdagi so‘zlardan farqli ravishda termin qoidaga ko‘ra, bir ma’noli bo‘ladi, ularga ekspressivlik xos emas. Termin faqat bir terminologiya tarkibiga kirishi mumkin (prefiks, vositali to‘ldiruvchi, moslashuvsiz aniqlovchi,

¹⁵Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. –Тошкент, 2002. – Б.104.

¹⁶https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O‘zbek%20tilining%20izohli%20lug‘ati

¹⁷Виноградов В.В. Вступительное слово. – «Вопросы терминологии (Материалы терминологического совещания)». – Издательство АН, 1961. – С. 6-7.

nominativ gap, amfibraxyi, laringoskopiya, pozitron, cheksiz kichik miqdor, differensial hisob), ammo, shuningdek, turli terminologiyalarga kirishi mumkin (operatsiya – tibbiyotda, moliya sohasida, harbiy ishda; assimilyatsiya – biologiya, etnografiya, lingvistikada). Ayrim terminlar o‘zining alohida maxsus xarakterini yo‘qotadi va turli nutq uslublarida keng qo‘llanadi. Bunday san’atshunoslik va adabiyotshunoslik terminlari: janr, portret, uslub, duet, prolog, obraz, syujet, fabula; ilmiy va ishlab chiqarish-texnik terminlari: akkumulyator, amortizatsiya, konveyter, massa, rentgen, termometr; falsafiy terminlar: dialektika, tafakkur, kategoriya, tushuncha, ong va boshqalar”¹⁸. Boshqa bir tilshunos olim V.M.Leychikning fikricha: “termin – tilning biror sohaga oid maqsad uchun tavsiflangan, umumiyligi, aniqligi yoki mavhum tushunchani belgilash, bilim yoki faoliyatning muayyan sohasi nazariyasi belgilangan leksik birlik” hisoblanadi¹⁹. “Termin – bu bilimning maxsus tarmog‘i va inson faoliyati sohasiga oid, obyektlar va jarayonlarni nomlashga va ayni vaqtida bizni o‘rab turgan olamni bilish vositasi bo‘lib xizmat qiluvchi fanning asosiy birligi”²⁰.

S.I.Madjaevaning ko‘rsatishicha: “termin – bu predmetlar, hodisalar, jarayonlar, belgilar, maxsus semiotik sathda kognitiv va diskursiv jihatdan muhim bo‘lgan, qo‘llanishda konventionallikka ega bo‘lgan va ma’lum terminologik sistemalarning a’zosi hisoblangan leksik birlikdir”²¹.

Kognitiv terminshunoslik tadqiqotchisi E.I.Golovanovaning ta’kidlashicha: “terminlar – faoliyatdan ajratgan holda qarab bo‘lmaydigan, bu ong birliklariga mos bo‘lgan kasbiy kommunikatsiya tillari birliklari. Har bir sistema o‘zida inson bilim va faoliyatining u yoki bu sohasining kognitiv-mantiqiy modelini aks ettiradi”²².

¹⁸<http://rus-yaz.niv.ru/doc/linguistic-terms/fc/slovar-210.htm#zag-1682>

¹⁹Лейчик, В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. 3-е изд. – Москва: Издательство ЛКИ, 2007. – С.31.

²⁰Ивина Л.В. Лингво-когнитивные основы анализа отраслевых терминосистем (на примере англоязычной терминологии венчурного финансирования). – Москва: Академический проект, 2003. – С.14.

²¹Маджаева С. Медицинские терминосистемы: становление, развитие, функционирование (на материале предметных областей медицины сахарный диабет и СПИД). Астрахань: АГМА, 2012. – С.13.

²²Голованова Е.И. Когнитивное терминоведение: учебное пособие. Челяб. гос. ун-т. Челябинск: Энциклопедия, 2008. – С.70.

Terminologiya va tarjima muammolari bilan shug‘ullangan F.A.Sitkina: “termin – bu maxsus yoki kasb-hunarga oid bilim sohasiga taalluqli ilmiy tushunchani reprezentatsiya qilib beruvchi til belgisi hisoblanadi”²³, – degan fikrni bildiradi. M. N. Volodina termin so‘zini tavsiflashda uning kognitiv xabar yetkazish vazifasiga e’tibor qaratadi. Olima bu haqda: “terminlar jamoaviy kasbiy-ilmiy xotira tashuvchilari bo‘lib, maxsus bilimlarning shakllanish jarayonida vositachi – mediator vazifasini bajaradi, inson faoliyatini o‘zgartirishiga va dunyoni bilishiga imkon beradi. Ilmiy munosabatlarning muhim vositasi sifatida ular ilmiy anglash jarayoni va natijalariga qo‘silib ketadi”, – degan fikrni bildiradi²⁴.

R.Rasulov, B.Suyunov, Q.Mo‘ydinovlar: “Termin kasbiy ma’no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obyektlar va ular o‘rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtayi nazaridan bilish hamda o‘zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so‘z yoki birikmadir”, – deb ta’rif beradilar²⁵. Ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari bilan shug‘ullangan O.Axmedov: “...terminlar aslida leksik-semantik jihatdan umumadabiy qolipga ega bo‘lib, ular umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o‘tadi. Zero, terminlar va umumiste’moldagi so‘zlar bir-birini to‘ldiradigan leksik birlikkardir”, – deb ta’rif berishi bilan terminlar bir ma’noli bo‘lsa-da, umumiste’moldagi so‘zlar bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi²⁶. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasi bo‘yicha qiyosiy-tipologik tadqiqot olib borgan P.Nishonov: “Termin – tuzilishiga ko‘ra so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, semantikasi jihatidan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan va shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir”²⁷,

²³ Циткина Ф.А. Терминология и перевод: к основам сопоставительного терминоведения. – Львов, 1988. – С.10.

²⁴ Володина, М. Н. Когнитивно-информационная природа термина и терминологическая номинация: автореф. Дис д-ра филол. наук. – Москва, 1998. [Сайт]. URL: <http://www.disscat.com/content/kognitivno-informatsionnaya-priroda-termina-iterminologicheskaya-nominatsiya>.

²⁵ Расулов Р. Суюнов Б. Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Тошкент, 2010. – Б.47.

²⁶ Ахмедов. О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фанлари докт. дис... автореф. –Тошкент, 2016. – Б.19.

²⁷ Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқики. Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2009, – В.17.

– degan fikr bildiradi. O‘zbek tilida xalqaro huquq sohasiga oid terminlar va ularning yasalishi bo‘yicha tadqiqotchi F.Isanovaning fikricha, ilm-fan, texnika, qishloq xo‘jaligi va san’atga oid tushunchalarning aniq nomini bildiruvchi bir ma’noli so‘z va birikmalar terminlar deyiladi²⁸. Atoqli terminolog I.Ermatov: “...terminlar shaklan ixcham, oddiy sintagmatik tuzilishli, yaxlit va qisqa bo‘lishi shart va zarur”²⁹, – deya terminga qo‘yilgan asosiy talablarni keltiradi.

Tilshunoslikda terminga berilgan ta’riflarni yana davom ettiraverish mumkin. Ularni umumlashtirgan holda fan, texnika va boshqa sohalarga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalashi, uning qo‘llanish doirasi shu sohalar bilan chambarchas bog‘liqligi, so‘z yoki so‘z birikmasi shaklida bo‘lishi, bir ma’noli ekanligi, ta’sirchanlik va bo‘yoqdorlikdan holi ekanligi, umumiste’moldagi so‘zlardan farq qilishi kabi belgilarni terminga xos xususiyatlar sifatida ko‘rsatish mumkin.

Darhaqiqat, o‘zbek tilshunosligida bu borada salmoqli yutuqlarga erishilgan. Xususan, adabiyotshunoslilik³⁰, fan va madaniyat³¹, qiyosiy-tipologik³², bir til³³, til

²⁸Исанова Ф.Т. Ўзбек тилида халқаро хуқук соҳасига оид терминлар ва уларнинг ясалиши. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -2022. -№ 2(5).ISSN: 2181-1342(Online)<https://scienceproblems.uz>

²⁹Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. – Тошкент: Tamaddun, 2022. – Б.16.

³⁰Хотамов Н.Т. Развитие узбекской литературоведческой терминологии в советский период: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – Москва, 1971. – 28 с.; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.

³¹Джамалханов Х. Из истории формирования и развития узбекской ботанической терминологии. Автор. дисс...канд.филол.наук. – Ташкент, 1966.; Базарова Д. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Ташкент, 1978; Мирахмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси. Филол. фанлари ном... дисс. автореф. – Тошкент, 1986. –27 б.; Усмонов С. Гиппологическая терминология современного узбекского языка. – Ташкент: Адолат, 1993. – 141 б.; Усмонов Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси. Филол. фанлари ном... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 24 б.; Юлдашев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш. Филол. фанлари док... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 46 б.; Нуритдинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили. Филол. фанлари ном... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 23 б.

³²Садыкова И.Х. Принципы составления англо-русско-узбекского учебного словаря юридических терминов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998. – 174 с.; Нурматова С.Х. Истоки формирования и функционирование астроавиакосмической терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2000. – 24 с.; Mustafayeva S.Xitoycha-o‘zbekcha tilshunoslik terminlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2014. – 111 б.; Кадирбекова Д.Х. Инглиз ва ўзбек тилларида ахборот технологиялари терминологиясининг лингвистик хусусиятлари. Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2016. – 128 б.; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солик-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фанлари док... дисс. – Тошкент, 2016. – 255 б.; Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари: Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 44 б.; Ходжаева

va terminologiya³⁴ kabi qator yo‘nalishlarda bajarilgan ishlar sohaning izchil rivojlanganligidan dalolat beradi.

1.2-§. Termin, terminologiya va ularning yondosh tushunchalarga munosabati

XX asrda dunyo tilshunosligida tilning yaxlit tizim deb e’tirof etilishi natijasida tilning turli sathlariga oid birliklarining mohiyatini ohib berishda yangicha yondashuvlar vujudga keldi. Bu esa o‘z navbatida murakkab hodisa bo‘lgan tilni ta’riflashda turlicha yondashuvlarni yuzaga keltirdi: 1. Vazifasi nuqtayi nazaridan: a) til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, fikri shakllantiruvchi, ifodalovchi; b) bilimlarni to‘plab, keyingi avlodlarga yetkazuvchi; v) tinglovchiga ta’sir qiluvchi vositadir. Bular dan birinchisi tilning kommunikativ, ikkinchisi kummulyativ, uchinchisi esa ekspressiv funksiyasini e’tiborga oladi. 2. Qurilish mexanizmi nuqtayi nazaridan: til ayrim birliklar va bu birliklardan foydalanish qoidalari yig‘indisi. 3. Semiotik nuqtayi nazaridan: til belgilar sistemasi. 4. Axborot uzatish nazariyasi nuqtayi nazaridan: til mazmuniy axborotni kodlashtirish uchun xizmat qiladigan kod sanaladi. 5. Gnoseologik nuqtayi nazardan: til ma’nolar dunyosi bilan tovushlar dunyosi o‘rtasida vositachilik qiluvchi murakkab sistema” (U.Cheyf) va boshqalar. Yuqoridagi ta’riflarni bir umumiy maxrajga keltirsak, tilning aloqani ta’minlovchi, ma’lumot yetkazuvchi, ta’sir etuvchi, qoidalari jamlanmasi, axborotlarni kodlovchi, belgilar tizimi, vositachilik qiluvchi murakkab sistema ekanligi ma’lum bo‘ladi. Mazkur sistema doirasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniqlash, muammolarning mazmun-mohiyatini zamonaviy tilshunoslik andozalari asosida talqin qilish tadqiqotchilar oldiga bir qator vazifalarni qo‘ymoqda.

Д.И. Тилшунослик терминларининг лексикографик таҳлили (инглиз, рус ва ўзбек тиллари изохли лугатлари мисолида): Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 53 б.

³³ Мирзахмедова X.В. Форс тили транспорт терминларининг структур қатламлари ва ясалиш усуслари: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 45 б.; Мустафаева С.Т. Хитой тилшунослик терминологияси: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 42 б.

³⁴ Исломов И. Ўзбек тилининг географик терминологияси: тизими, генезиси, семантик структураси ва лексикографик талкини: Филол. фанлари док... дисс. – Карши, 2021. – 210 б.

Jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar, ilm-fan, texnika taraqqiyoti ilmiy-sohaviy tushunchalarning ko‘payishi va terminologiyaning boyishiga olib keladi. Zamon rivojlanishi bilan xalqimiz hayotidagi ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy sohalarda yuz bergan o‘zgarishlar, yangilanishlar og‘zaki va yozma nutqda ilm-fan, texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq yangi tushunchalar, yangi nomlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Buning natijasi o‘laroq, tilimiz lug‘aviy tarkibi bir qator yangi terminlar bilan boyidi. Bu esa o‘z navbatida tildagi yangi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni tartibga solish, soha sifatida bugungi kunda dolzarblik kasb etayotgan terminologiyaning rivojlanish qonuniyatları, o‘ziga xos xususiyatlarını, termin va unga yondosh tushunchalar munosabatini aniqlash zaruratini keltirib chiqarmoqda. “X1X asrning 70-yillaridan e’tiboran o‘zbek terminologiyasi va leksikografiyası rus tili orqali G‘arbiy Yevropa tillaridan kirib kelayotgan o‘zlashmalar ta’sirida rivojlanish pallasiga qadam qo‘ydi. Sobiq sho‘rolar hukmronligi vaqtida o‘zbek tili terminologiyasi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi haddan tashqari ko‘p miqdordagi o‘zlashma terminlar hisobiga kengaydi. Soha terminologiyasi tizimining vujudga kelishida sof o‘zbekcha leksik birliklar qatori ruscha-baynalmilal terminlarning roli yuqori bo‘ldi. Bu jihat, ayniqsa, tabiiy fanlarga xos terminologik tizimda yaqqol ifodasini topdi. Mustaqillik davri o‘zbek terminologiyasi globallashuv va internetga qadam qo‘yilgan XXI asrda har tomonlama takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda”³⁵.

Ma’lumki, lug‘aviy birliklar kelib chiqishi, ekspressivligi, stilistik xususiyatlari, faol yoki nofaol lug‘atga mansubligi, qo‘llanish sohasi va boshqa bir qator belgilariga ko‘ra bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Ko‘pchilik tilshunoslarning fikricha, oxirgi belgi asosida chegaralash eng samarali usullardan hisoblanadi. Birinchilari barchaga tushunarli bo‘lsa, ikkinchilari u yoki bu jamoa doirasidagina ishlatiladi. Shu tarzda tilning lug‘aviy qatlami ikki yirik guruhga ajralib qoladi: umumiste’mol so‘zleri va terminlar (qo‘llanilishi chegaralangan

³⁵“Замонавий ўзбек лексикографияси ва терминологияси” модули бўйича ўқув-услубий мажмua. – Тошкент, 2018. – Б.5.

leksika). Qo'llanilishi chegaralangan leksika deyilganda kasbiy-terminologik birliklar, fan sohalariga oid terminlar ham nazarda tutiladi. Ammo terminologik birliklarni tahlil qilish jarayonida mazkur qatlamlar orasida doimiy ravishda elementlar almashinuvi sodir bo'lishini inobatga olish muhim.

Tilning boshqa funksiyalari bilan bir qatorda uning maxsus maqsadlarni ifodalash uchun definitiv (maxsus tushunchalarni ifodalash), spetsifik, ya'ni eviristik (yangi bilimlarni ochish) va kompensatsiyalanganlik (maxsus bilimi konsentratsiyalash) funksiyalari mavjudligini qayd etishimiz joiz. Kasbiy muloqot tilining esa qayd qilinganlardan tashqari kasbiy doiradagi muloqotni ta'minlovchi axborotni uzatish va qabul qilish vazifasi ham mavjud. Mazkur vazifani bajarishda qo'llanilishi chegaralangan maxsus leksika, ya'ni terminlar adabiy til birliklaridan farqli o'laroq ko'proq aniqlik va yuqori axborotlilikni talab etadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili terminologiyasi tarixi adabiyotlarda quyidagicha davrlashtiriladi:

- Qadimgi turkiy til terminologiyasi (VII-X);
- Eski turkiy til terminologiyasi (XI-XIV);
- Eski o'zbek adabiy tili terminologiyasi (XV-XX asr boshi);
- Sho'rolar davri o'zbek terminologiyasi (XX asr boshidan 1993-yilgacha);
- Istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi³⁶.

Bu davrlar terminning tabiatи, paydo bo'lishi, o'ziga xosliklari, so'z va terminning umumiy va farqli jihatlari kabi masalalarning yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Keyingi yillarda terminologiyaning o'zi ham bir necha tarmoqlarga ajratilib o'rganilmoqda. Kognitiv terminologiya terminologiyaning nisbatan yangi davrda vujudga kelgan tarmog'i bo'lib, ilmiy bilish va tafakkur qilish jarayonida terminlarning roli masalasini tadqiq qiladi.

Y.Shirinova terminologiyani sistema sifatida qaraydi va ma'lum sohaga doir so'zlar terminologik sistema bo'lishi uchun quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi:

"1) salmoqli miqdorda bo'lishi;

³⁶Дадабоев X. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – Б.11.

- 2) umumiste'mol so'zlari va boshqa sath terminlaridan farq qiluvchi xususiy ma'nolarga ega bo'lishi va o'z sohasi uchun muomala vositasi sifatida xizmat qilishi;
- 3) ma'lum mavzuiy guruhlarga birikishi;
- 4) mazkur sistemaning boshqa elementlari bilan paradigmatic munosabatlarga kirishishi;
- 5) umumiyl til sistemasi va boshqa terminologik sistema elementlari bilan munosabatlarga kirishishi;
- 6) soha terminlarini shakllantirgan va taraqqiy qildiruvchi usul va manbalarga ega bo'lishi lozim”³⁷.

XIX asr oxiri XX asr bosqlarida shakllangan sistem-struktur tilshunoslik tilni butun bir tizim sifatida o'rgana boshlagach, bu hodisa tilshunoslikning tarkibiy qismi bo'lgan terminologiyaning ham yaxlit tizim sifatida baholanishiga olib keldi va terminologiyada sistem-struktur aspektida tadqiq qilingan ilmiy ishlar maydonga keldi³⁸.

Ilmiy adabiyotlarda terminologiya termini ilk marta 1786-yili Germaniyada professor Shyuts tomonidan, rus tilida ilk bor M.V.Lomonosov tomonidan qo'llanilgani aytildi³⁹. Terminologiyaning fan sifatidagi vazifasi sohalarga oid terminlarni o'rganish va ularning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Terminologiya uch xil ma'noda ishlataladi: 1) ma'lum til tizimidagi barcha terminlar; 2) muayyan fan yoki kasb-hunarga oid terminlar majmui; 3) tilshunoslikning bir bo'limi.

Terminologiyaning o'rganish obyekti termin bo'lib, terminologiyaga ilmiy adabiyotlarda quyidagicha ta'rif beriladi: “Terminologiya muayyan fanning

³⁷Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси: Фалсафа доктори ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б.11.

³⁸Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. – Москва, 1961.; Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – Москва, 1977.; Лейчик В.М. Языки для специальных целей – функциональные разновидности современных развитых национальных языков // Общие и частные проблемы функциональных стилей. – Москва, 1986.; Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов. – Москва, 1977.; Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. – Москва, 1987.; Кобрин Р.Ю. Лингвистическое описание как база концептуального моделирования в информационных системах: Дисс. ... док. филол. наук. – Горький, 1989.

³⁹Pardayev A. Urinbayeva D. Islamova D. O'zbek terminologiyasi. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – B.14.

tushunchalar tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan terminlar tizimi sifatida ta’riflanishi mumkin”⁴⁰. Ta’kidlash kerakki, turkiy tilshunoslikda terminologiya masalalariga bag‘ishlangan ko‘pgina ishlar amalga oshirilgan.

Mustaqillik yillarida fan va texnikaning takomili natijasi o‘larоq, sohaviy leksikani o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Prof. H.Dadaboyev terminologiyaning til lug‘at tarkibidagi roli haqida ikki xil qarash mavjudligini aytadi: “Birinchi g‘oyaga ko‘ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e’tirof etilsa, ikkinchi ta’limotga muvofiq, u adabiy til so‘z boyligi tarkibidan ajratiladi, “alohida turuvchi” obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so‘zlashuv)ga tenglashtiriladi⁴¹. Bizningcha, terminologiya o‘ziga xosliklari bilan adabiy til leksikasining mustaqil qatlami bo‘lib, boshqa leksik qatlamlarda uchraydigan lisoniy hodisalar terminologiyada ham aks etadi.

D.Jamoliddinova o‘zbek tilining terminologik tizimi sistema sifatida quyidagi xususiyatlarni namoyon qilishini aytadi:

- 1) terminologik tizim tilda o‘zining barqaror o‘rniga ega bo‘lib, til tizimidagi boshqa birliklar bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq;
- 2) terminologik tizim ochiq tizimdir. Chunki u tizimga kirib kelgan yangi terminlarga xos xususiyatlarni ham o‘zida namoyon qiladi;
- 3) terminologik tizim butunlik sifatida ichki bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega. Uni ko‘plab kichik tizimlarga ajratish mumkin. Terminologik tizimning bu xususiyati uning diskretlik belgisiga egaligini ko‘rsatadi;
- 4) terminologik tizim elementlari bir-biri bilan ierarxik munosabatda bo‘ladi. Ierarxiyadagi biror element tushib qolgudek bo‘lsa, muvozanat buziladi va tizim parchalanadi;
- 5) terminologik tizimda uni tashkil qilgan elementlar orasida butun-bo‘lak, jins-tur munosabati ham shakllanishi mumkin;

⁴⁰Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б.28.

⁴¹Дадабоев X. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – Б.5.

6) terminologik tizimning eng muhim jihatlaridan yana biri substansionallikdir. Terminologik tizimda ham dialektikaning umumiylilik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik kategoriyalari o‘z aksini topadi⁴².

Adabiyotlarda *termin* so‘zi bilan parallel ravishda *atama*, *istiloh*, *nomenklatura* terminlari ham qo‘llanishi kuzatiladi. H.Dadaboyev: “...*termin* o‘zlashmasini ilm-fan, texnika sohalari yoki tarmoqlarida qo‘llanuvchi so‘z va so‘z birikmalari, *atama* so‘zini shartli ravishda qo‘yilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar), xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar), arabcha *istiloh* o‘zlashmasini esa tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlar, tarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan ishlatish o‘zini oqlaydi”⁴³, – degan fikrlarni bildirsa, A.Hojiyev termin so‘zini atama so‘zi bilan parallel qo‘llab bo‘lmasligini ta’kidlaydi: “...birinchidan, atama umuman “narsa-hodisa, belgi va harakat kabilarni atovchi so‘z” degan ma’noga ega. Masalan, olma, katta, kelmoq so‘zlari narsa, belgi va harakatning atovchisi (atamasi) hisoblanadi. Termin so‘ziga nisbatan bunday deya olmaymiz. Ikkinchidan, dunyoning deyarli barcha tillarida, jumladan, turkiy tillarda terminga xos yuqorida keltirilgan ma’noda shu so‘z (termin so‘zi) qo‘llanadi, ya’ni u haqiqiy ma’noda baynalmilal so‘z hisoblanadi. Uchinchidan, termin so‘zi atama so‘ziga almashtirilar ekan, bu so‘zdan yasalgan terminologik, terminologiya so‘zlaridan mahrum bo‘linadi. Bu so‘zlarning ma’nosini esa atama so‘zi bilan yoki undan biron-bir so‘z yasab ifodalash mumkin emas”⁴⁴. Tilshunoslikda “terminshunoslik”, “terminologiya” va “termin” tushunchalarining mutanosibligini aniqlashga harakat qilgan K.Fatullayevaning yozishicha, o‘zbek tilshunoslарining fikrlarini umumlashtirib, terminga quyidagicha ta’rif berish mumkin: “...fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi termin deb ataladi. Terminlar bir ma’noli bo‘lishi, ekspressivlik va emotSIONALLIKKA ega bo‘lmasligi kabi belgilari bilan ham

⁴²Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокултурологик хусусиятлари: Филол. фанлари док... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б.14.

⁴³Дадабоев X. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – Б.10.

⁴⁴Хожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: Фан, 1996. – Б.24

umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi. Masalan, lingvistik terminlar: gap, ega, ot, son, tovush; geometriyaga oid terminlar: aylana, uchburchak; fizikaga oid terminlar: jism, bosim, harakat, maydon; kimiyoga oid terminlar: suv, kumush, ishqor, tuzlar va boshqalar"⁴⁵. Yu.S.Maslovaning fikricha termin: "tilning birmuncha mustaqil ma'noga ega bo'lgan birligi"⁴⁶.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "atama" so'ziga " 1. ayn. termin. 2. Umuman, nom."⁴⁷; "termin" so'ziga "Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi; atama" ⁴⁸ tarzida izoh berilgan. Mazkur izohning mukammal emasligi har ikki tushunchani bir xil tushunishga olib keladi. Vaholanki, tilning izohli lug'atida bu kabi muammoli o'rinalar uchramasligi kerak. Quyida biz mavjud tadqiqotlarda termin va atama haqida berilgan qarashlarga to'xtalamiz:

"Termin so'zi o'rnida ba'zan atama, istiloh so'zlarini ishlatish hollari uchrab turadi. Ammo bu to'g'ri emas. Atama termin so'ziga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. Istiloh so'zi esa arabchadir. Uni xalq tushunmaydi va me'yorga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi" ⁴⁹. Shu fikr tarafdori bo'lgan N.B.Kuldasheva termin so'zi o'rnida gohida atama so'zini ishlatish hollari kuzatilishi haqida ma'lumot berar ekan, "Ammo bu to'g'ri emasdek tuyuladi. Chunki atama termin so'ziga nisbatan tor tushunchani ifodalashi bizga ma'lumdir", – degan xulosaga keladi⁵⁰. Olimalarning atama termin so'ziga nisbatan tor tushunchani ifodalashi haqidagi fikrlari tilshunos S.Usmonov tomonidan rad etiladi. Olimning yozishicha: "...atama so'zining ma'nosi termin so'zining ma'nosiga nisbatan keng bo'lib, u

⁴⁵Тадқиқот ва инновациялар журнали.ISSN: 2181-4058 www.imfaktor.uz.№712. – Б.2

⁴⁶Маслов Ю.С. Введение в языкознание. 3-е изд. – Москва, 1998. – С.89.

⁴⁷Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. 1-жилд. – 680 б. – Б.135

⁴⁸Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. 4-жилд. – 608 б. – Б.77.

⁴⁹Khodjaeva D. Lexicographic analysis of linguistic terms (on the basis of materials of explanatory dictionaries of the English, Russian and Uzbek languages)//International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020/1/15, Issue 6.

⁵⁰<https://www.google.com/search?q=Talqin+va+tadqiqotlar+respublika+ilmiy-uslubiy+jurnali>

barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir tor sohada qo'llanuvchi rasmiylashgan so'zdir. Shu ma'noda, termin tushunchasi "atama" tushunchasining ichiga kiruvchi ilmiy-lug'aviy birlikdir⁵¹. N.G'afforov va N.Tursunovalar jahon tilshunosligida sohaviy terminologiya taraqqiyoti haqida fikr yuritib, termin va atamani farqlashga harakat qilganlar. Ularning ko'rsatishicha, tilshunoslik bilan bog'liqlik parametriga ko'ra, lingvosentrik termin fanining davri, integratsion xarakterga ega bo'lishi mumkin. Moddiy mezonga ko'ra, lingvosentrik terminologiya ikki yo'nalishga bo'linadi: birinchisi "lug'atdagi atama"ni o'rganishga, ikkinchisi "matndagi termin"ni o'rganishga qaratilgan. Lingvosentrik terminologiyani o'rganishning har ikki yo'nalishi bo'yicha ham tadqiqot predmeti – lingvistik belgi sifatida atamaning o'ziga xosligi olinadi. Bu davrning muhim uslubiy qarori, atamani o'rganishga dinamik yondashuvning shakllanishi bo'lishi kerak. Terminologiyaning rivojlanishidagi bu davrning muhim natijasi bu atamani faqat terminologik tizim doirasida o'rganishning immanent munosabatlari cheklanganligi va atamaning lingvistik-tafakkur faoliyatidagi o'rni va funksiyasini aniqlash zarurligini bilishdir⁵². Tilshunoslikka doir lug'atlarda ba'zan termin o'rnida qo'llanuvchi nomenklatura tushunchasi "Ishlab chiqarish, fan, texnika, san'at va shu kabilarning biror sohasida qo'llanadigan nomlar, atamalar, terminlar va shu nomlar bilan ataluvchi narsalar ro'yxati yoki majmui" deb izohlangan⁵³. Tilshunos P.Nishonov esa ular orasida farq mavjudligini ta'kidlaydi. Olimning yozishicha, "Biror predmet yoki voqelikka qo'yilgan termin, avvalo, shu predmet yoki voqelikka ta'rif va tasnif beradi. Nomenklaturada esa bu narsa kuzatilmaydi. Ularning funksiyasi narsa va predmetlarni nomlash bilan chegaralanadi. Demak, "termin" nomenklaturaga nisbatan keng va aniq tushuncha bo'lib, maxsus vazifadagi so'z ma'nosini bersa, "nomenklatura" o'zaro o'xhash bo'lgan predmet va tushunchalarni nomlash uchun xizmat qiluvchi atamadir"⁵⁴. Ingliz va o'zbek tillarida soliq va bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari

⁵¹Ўша ерда. – Б.323.

⁵²"Экономика и социум" №11(90) 2021 www.иупр.py 198.

⁵³<https://uz.wiktionary.org/wiki/nomenklatura>.

⁵⁴Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типовологик тадқики. Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2009. – В.17.

bilan shug‘ullangan O.Axmedov tilshunoslikda faol qo‘llanilayotgan “termin”, “atama”, “istiloh”, “nomenklatura” kabi tushunchalar anglatgan ma’nosи va qo‘llanish doirasiga ko‘ra farq qilishini ta’kidlab: “Terminlar aslida leksik-semantik jihatdan umumadabiy qolipga ega bo‘lib, ular umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o‘tadi. Zero, terminlar va umumiste’moldagi so‘zlar bir-birini to‘ldiradigan leksik birliklardir”, – degan fikrlarni beradi⁵⁵. X.Muxitdinova va boshqalar tomonidan yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida berilishicha, “Keyingi yillarda termin so‘zi o‘rnida atama so‘zi qo‘llanyapti. Bunday qo‘llash xatodir. Chunki atama so‘zining ma’nosи termin so‘zining ma’nosiga nisbatan keng bo‘lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir sohada qo‘llanuvchi so‘zdir. Shu ma’noda termin tushunchasi atama tushunchasining ichiga kiruvchi hodisadir”⁵⁶. Darhaqiqat, atama so‘zining ma’nosи termin so‘zining ma’nosidan ko‘ra kengroqdir. R.Rasulov va boshqalar tomonidan yaratilgan “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati” asarida bu holatning sabablari izohlangan. Unga ko‘ra, o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgunga qadar va u amal qila boshlagandan keyin qator matbuot xodimlari, hatto ayrim tilshunoslar Davlat tili haqidagi qonunni to‘liq joriy etish o‘rniga, uning ayrim bandlariga deyarli e’tibor bermay, ko‘pdan buyon qo‘llanib kelinayotgan va omma nutqiga singib ketgan ko‘plab terminlarni, ularning mazmunini chuqur o‘rganmay turib, yangidan noto‘g‘ri so‘zlar – leksemalar bilan almashtira boshlashdi. Hatto “termin”, “terminologiya” kabilar “atama”, “atamashunoslik” leksemalari bilan almashtirib qo‘llanadigan bo‘ldi. “Atama”, “atamashunoslik” kabi tushunchalarning umumxarakterga egaligi e’tiborga olinmadi. Chunki, “atama” deyilganda, onomastika (toponimiya, antroponomiya, oykonimiya kabilar)ga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi. Shunga ko‘ra, avvaldan iste’molda bo‘lgan baynalmilal “termin” va “terminologiya” leksemalarini qo‘llash

⁵⁵Ахмедов О.С. Инглиз ва узбек тилларида солик ва божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филология фанлари докт... дисс. – Тошкент, 2016. – Б.21.

⁵⁶Мухитдинова Х., Худойберганова Д., Умиров И., Жиянова Н., Юсупова Т. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: «ILM ZIYO», 2004. – Б.47.

maqsadga muvofiqdir⁵⁷. Taniqli tilshunos olim I.Mirzayev tilshunoslikdagi bu bir-biriga mos kelmaydigan fikrlarni o‘rganib, masalaga to‘la-to‘kis yechim topishga harakat qilgan: “Termin (lot. terminus – chegara, had) – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi. Termin umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o‘tadi, binobarin, termin va umumiste’moldagi so‘zlar bir-birini to‘ldiradigan leksik birliklardir. Sistem xarakterga egalik, o‘z terminologik maydonida bir ma’nolilikka moyillik, histuyg‘uni ifodalamaslik, uslubiy betaraflik kabilar terminga xos xususiyatlardir. Umumxalq leksikasiga doir qonuniyatlar termin hosil qilishda ham kuzatiladi. So‘z bilan terminning umumiyy va xususiy tomonlari yetarli darajada ochib berilgan emas; kundalik turmushda keng iste’molda bo‘lgan so‘zlar ayni paytda turli sohalarga doir terminlar hamdir. Masalan, qulqoq, burun, tomoq – anatomiya va tibbiyot; gilam, sholcha, palos – gilamdo‘zlik; kitob, ruchka, daftar – pedagogik soha terminlari bo‘lish bilan birga umumxalq tilida faol qo‘llanadi. Hozirgi kunda “termin” so‘zi bilan bir qatorda “atama”, “istiloh” so‘zlari ham ayni ma’noda qo‘llanmoqda. Lekin ular “termin” so‘zining hozirgi ma’nosini to‘liq ifoda eta olmaydi. “Atama” so‘zi keng ma’noda bo‘lib, geografik obyektlar, atoqli nomlarga nisbatan qo‘llanadi. “Istiloh” so‘zini esa termin ma’nosida tarixiy mavzulardagi matnlar (masalan: adabiyot tarixi, Sharq falsafasi va boshqalar)da bemalol qo‘llash mumkin”⁵⁸.

So‘z va termin munosabati ham terminologiyaning muammolaridan hisoblanadi.

“So‘z – bu tilning har bir til uchun xos semantik, fonetik va grammatik belgilar jamlanmasi bo‘lgan, predmetlar va ularning xususiyatlari, hodisalar, faoliyat munosabatlarini nomlash uchun xizmat qiluvchi asosiy struktur-semantik birligi”⁵⁹. So‘z va termin o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar xususida tilshunoslar tomonidan bir qancha fikrlar bildirilgan. Xususan, “So‘z va termin

⁵⁷Расулов Р., Хусанов Н., Муйдинов К. Нутк маданияти ва нотиқлик санъати. Ўқув кўлланма. – Тошкент: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. – Б.45.

⁵⁸Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. www.ziyouz.com кутубхонаси. – Б.323.

⁵⁹ЛЭС / под ред. В.Н. Ярцевой. – Москва, 1990. – С.464.

o‘rtasidagi farq obyektiv shartlanganki, ular fikrlash faoliyati – tushunchalarni ilmiy tafakkur va maishiy tushunchalarining amal qilishida turli bosqichlardagi hodisalarni aks ettiradi”⁶⁰. X.Muxitdinova va boshqalar tomonidan yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ham so‘z va termin orasidagi farqlarni ochib berishga harakat qilingan: “So‘z ko‘p ma’noga, qo‘srimcha ma’nolarga ega bo‘ladi, ammo termin (atama) bunday xususiyatga ega emas. Termin ham so‘z, lekin u odatdagi so‘zlardan ma’nosining aniqligi, bir ma’noliligi bilan farqlanadi. Termin ma’lum sohada, shu soha vakillari nutqida uchraydi. Masalan: fonema, tovush, morfema, ega, to‘ldiruvchi, kesim tilshunoslikda uchraydi. Terminlar yig‘indisi va shu terminlarni o‘rganuvchi soha ham terminologiya deyiladi. Termin grekcha “terminos” so‘zidan olingan bo‘lib, “chek, chegara” ma’nolarini bildiradi. Keyingi yillarda termin so‘zi o‘rnida atama so‘zi qo‘llanyapti. Bunday qo‘llash xatodir. Chunki atama so‘zining ma’nosini termin so‘zining ma’nosiga nisbatan keng bo‘lib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir sohada qo‘llanuvchi so‘zdir. Shu ma’noda termin tushunchasi atama tushunchasining ichiga kiruvchi hodisadir”⁶¹.

Tilshunos R.Rasulov va boshqalar tomonidan termin haqida fikr yuritilar va unga izoh berilar ekan, birinchi navbatda, uning ilmiylik xususiyati qayd etilishi, ayni xususiyatning dominanta ekanligi aytilishi lozimligi ta’kidlanadi. Chunki termin, dastavval, ilmiylik xususiyatiga – semasiga (ma’no komponentiga) ko‘ra ajralib turadi. Terminning qolgan barcha xususiyatlari: aniqligi, bir ma’noliligi, emotsiyonallikdan holi ekanligi, qo‘llanish qamrovining torligi, chegaralanganligi kabilar uning ilmiylik mohiyatidan, tushunchasidan kelib chiqadi. Termin aynan mana shu nuqtasiga ko‘ra umumiste’moldagi so‘zlardan, atamalardan farq qiladi, ajratiladi. Olimlar tomonidan ko‘rsatilgan termin va so‘z o‘rtasidagi farqlarni quyidagicha ko‘rsatish mumkin⁶²:

1-jadval.

⁶⁰Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение. Москва: Издательский центр «Академия», 2008. – С.28.

⁶¹Мухитдинова Х., Худойберганова Д., Умиров И., Жиянова Н., Юсупова Т. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: «ILM ZIYO», 2004. – Б.47.

⁶²Расулов Р., Суюнов Б., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Тошкент, 2010. – Б.47.

Termin va so‘z munosabati

So‘z	Termin
so‘z, atama – keng, umumiyl;	termin – tor, xususiy;
so‘z, atama – nisbatan mavhum, abstrakt;	termin – aniq, konkret;
so‘z, atama – ilmiylik tushunchasiga (semasiga ega emas);	termin – ilmiylik tushunchasiga (semasiga) ega;
atama – eskirgan, nofaol;	termin – faol, harakatchan;
so‘z – emotsionallikka, ekspressivlikka ega;	termin – emotsionallikka, ekspressivlikka ega emas;
so‘z – jamiyatga, umumga, turli soha vakillariga oid;	termin – fanga, fan vakillariga oid;
so‘z – aloqa quroli;	termin – fan quroli;
so‘z – kelib chiqishiga ko‘ra birlamchi;	termin – kelib chiqishiga ko‘ra ikkilamchi. U jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida fan bilan fan taraqqiyoti bilan, fan faoliyati bilan yuzaga kelgan.
so‘z – leksikada o‘rganiladi, leksikologiyaning tekshirish obyekti;	termin – terminologik leksikaga oid so‘z sifatida terminologiyada o‘rganiladi.

Tilshunos olim I.Ermatovning so‘z va termin munosabati haqidagi fikrlari bu masalaga oydinlik kiritadi: “...termin ham aslida so‘z, so‘zning muayyan bir sohaga ixtisoslashgan muqobilidir. Muhimi shundaki, so‘z ham, termin ham lug‘aviy birlik sifatida bir xil lisoniy maqomga ega hodisalardir”⁶³. Shuningdek, olim terminning so‘zdan farqli jihatlarini quyidagicha asoslaydi: “Muayyan bir soha lug‘aviy birligi sifatida ixtisoslashgan “so‘z” (termin)ning umumxalq tiliga mansub so‘zdan farqi shundaki, so‘z umumxalq muloqotida fikr uzatish va fikr qabul qilish jarayonida, ya’ni umumxalq kommunikatsiyasi jarayonida

⁶³Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. – Тошкент: Tamaddun, 2022. – Б.51.

kommunikatsiya ishirokchilari uchun mushtarak ma'noda tushunarli faol lisoniy birlik sifatida ishtirok etsa, “ixtisoslashgan so‘z” – termin esa xalq xo‘jaligining, fan va texnikaning muayyan sohasiga mansub shaxslarning fikr uzatish va uni qabul qilish jarayonida muhim lisoniy birlik maqomida ishtirok etadi. ...odatdag'i, ya’ni umumxalq tiliga mansub rasmiy lisoniy maqomdag'i so‘z nominatsiyaning birinchi, dastlabki bosqichiga tegishli lug‘aviy birlik bo‘lsa, termin bu jarayonning, ya’ni nominatsiyaning keyingi ikkinchi, uchinchi bosqich jarayonlariga mansub lug‘aviy birlikdir”⁶⁴. Olim *ega* so‘zining so‘z va termin ma’nolarida qo‘llanishi misolida fikrlarini asoslaydi (*Yo ‘qolgan sigir topilib, egasiga topshirildi; O‘quvchi gapning egasini topishda bir oz qiyndi*). Ya’ni birinchi gapda *egasiga* so‘zi so‘zlovchi nazarda tutgan ma’noda tushuniladi, chunki bu so‘z umumxalq tilida lisoniy rasmiy lashgan ma’noga ega. Ikkinchi gapdagi *egasini* so‘zi esa tilshunoslik sohasidan bexabar kishi uchun tushunarli emas. Olim buni ikkinchi gapdagi *ega* so‘zining umumxalq tiliga mansub bo‘lмаган ikkinchi, keyingi bosqich nominatsiyasiga daxldor lug‘aviy birlik maqomini olganligi bilan izohlaydi⁶⁵. Darhaqiqat, so‘z ham, termin ham tilda nominatsiya – nomlash funksiyasini bajaradi. Faqat so‘z nominatsiyaning dastlabki bosqichiga tegishli lug‘aviy birlik bo‘lsa, termin nominatsiyaning keyingi bosqichlariga mansub lug‘aviy birlikdir. Shuningdek, I.Ermatov termin so‘zdan *ifoda* va *mazmun* planiga xos vazifalariga ko‘ra ham farqlanishini ta’kidlaydi. Ya’ni terminning ifoda plani so‘znikidan sintagmatik jihatdan ancha murakkab bo‘lishi mumkin. Olim termin va so‘z o‘rtasidagi mazmun planiga xos bir qancha farqlanishlarni sanaydi. Biz quyida ularning ayrimlarini keltirish bilan kifoyalanamiz:

- a) so‘z terminga nisbatan avval paydo bo‘ladi;
- b) so‘z xalq tomonidan yaratiladi...termin esa, muayyan soha mutaxassislari, ayrim shaxslar tomonidan “ijod qilinadi” (masalan, fonema, morfema terminlarining “ijodkori” I.A.Boduen de Kurtene...);

⁶⁴Shu manba. – B.52.

⁶⁵Бу haqida qarang: Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. – Тошкент: Tamaddun, 2022. – B.52.

- c) so‘z til lug‘at tarkibining mikro-, medio- va makroqurilmalarida bir xil amal qiluvchi lug‘aviy birlikdir, terminning amali esa, lug‘at tarkibining mikroqurilmalarida nisbatan cheklangan bo‘ladi...
- d) termin so‘z bazasida shakllanadi; termin bazasida so‘z shakllanmaydi;
- e) so‘z umumxalq mulki, u til jamoasining hamma ijtimoiy qatlamlari uchun bir xil xizmat qiladi. Termin esa til jamoasining ayrim ijtimoiy qatlamlari uchun xoslangan bo‘ladi;
- f) so‘zlarda shakliy munosabatning antonimik turi amal qilsa, terminlarda uning ekvonimik turi faol amal qiladi;
- g) so‘zlarining mazmun planini lisoniy ma’nolar tashkil qiladi, terminlarning mazmun planini esa tushunchalar tashkil qiladi;
- h) so‘z ma’nolari asoslangan denotatlar obyektiv borliqdagi real narsa-predmetlarni yoxud muayyan millat xotirasida ommaviy rasmiylashgan mavhum “narsa-hodisa”larni bildiradi... Terminlar ma’nosidan anglashilgan denotatlar esa, xalq xo‘jaligining yoxud fan va texnikaning qaysi sohasi bo‘lmisin, ular ma’nosni asoslangan denotatlar faqat ayrim guruhga mansub shaxslar xotirasida rasmiylashgan real yoxud noreal “narsa-hodisa”larni bildiradi...⁶⁶.

Xulosa qilib aytganda, so‘z va termin munosabatida farqli va o‘xshash jihatlar mavjud. Farqli jihatlari yuqorida keltirilgan bo‘lsa, o‘xshash jihatlari har ikkisining ham ma’no anglatuvchi birliklar ekanligida, terminlarda ham so‘zlarda bo‘lgani kabi bir va ko‘p ma’nolilik, gipero-giponimlik, partonimlik, graduonimlik kabi xususiyatlarning mavjudligida ko‘rinadi.

Umuman olganda, tilshunoslikda terminologiya, termin va ular bilan bog‘liq muammolar haligacha o‘z yechimini to‘liq topgan emas.

1.3-§. Badiiy asar terminlariga lingvo-kognitiv yondashuv

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar, rivojlangan davlatlar bilan turli sohalardagi aloqalarning yangi bosqichga

⁶⁶Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. – Тошкент: Tamaddun, 2022. – Б.23.

ko‘tarilishi, ilm-fan va texnika taraqqiyoti ko‘plab fan sohalari kabi tilshunoslikka ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. XX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran tilshunoslikda ham yangicha yo‘nalishlar, yangicha qarashlar paydo bo‘ldi. Voqelikda kechayotgan voqeа-hodisalar markazida inson turganligi, barchasi unga bog‘liq holda yuz berishi e’tirof etila boshladi. “XX asr tilshunosligining antropotsentrik paradigmasi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar to‘rtta yo‘nalishga ajratilmоqda, ammo shunga qaramay so‘ngi paytda turli yo‘nalishlarga bo‘lib o‘rganilmоqda. Birinchi yo‘nalish tilni shaxsning “ko‘zgusi” sifatida o‘rganadi, dunyoning lingvistik tasviri tushunchasi uning uchun asosiy hisoblanadi va asosiy vazifa – inson o‘zini tilda qanday aks ettirishini o‘rganishdir. Ikkinci yo‘nalish kommunikativ tilshunoslik bo‘lib, u insonga, birinchi navbatda, uning aloqa jarayoniga bog‘liq qiziqishi bilan tavsiflanadi. Uchinchi yo‘nalish boshqa fanlar ma’lumotlaridan foydalangan holda, kognitiv jarayonlarda tilning rolini va shaxsning kognitiv apparatini o‘rganadi. Antroposentrik tilshunoslikning to‘rtinchи yo‘naliши о‘з nomiga ko‘ra, tilni shaxsning о‘zida qanday mavjudligini yoritishga qaratilgan”⁶⁷. Antroposentrik nazariyaning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida maydonga kelgan kognitiv lingvistika ana shunday tilshunoslik sohalaridan biri sifatida o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab inson bilish faoliyatining lisoniy faoliyat va til tizimi bilan bog‘liqligini o‘rganish zarurati tufayli yuzaga keldi. “Jahon tilshunosligida matnga dastlab, asosan semantik va sintaktik nuqtayi nazardan yondashilgan. Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan uni lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. Matnga faqat til tizimi unsurlarining nutqqa ko‘chirilishi jarayoni mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan muloqot shakli, о‘zida muayyan intellekt egasining bilimlarini, lisoniy tafakkurini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi”⁶⁸. Shu asosda kognitiv tilshunoslikning yuzaga kelishi 80-yillarning oxiri bilan belgilanadi, ba’zan esa 1989-yili Xalqaro kognitiv lingvistika

⁶⁷<https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsnj/article/download/639/575/1203>

⁶⁸Худойберганова Д.Матнинг антропоцентрик тадқики, — Тошкент: Фан, 2013.– Б.3.

assotsiatsiyasi tashkilotchisi Rene Dirven tomonidan tashkil etilgan va Deysburgda o‘tkazilgan simpozium qatnashchilari materiallarining chop etilishi bilan bog‘lanadi⁶⁹. Kognitiv tilshunoslikning paydo bo‘lishi tilshunoslik tarixi, shuningdek, kognitiv tadqiqotlarning rivojlanishi bilan ham bog‘liq. Ma’lumki, lisoniy faoliyat inson miyasida sodir bo‘ladi va nutqning hosil bo‘lishi, eshitilishi, o‘qish, yozish kabilar inson bosh miyasining turli markazlarida hosil bo‘ladi. Insonning olamni bilishi jarayonida til bevosita katta ahamiyatga ega.

Kognitiv tilshunoslik – anglash, inson faoliyati davomida olamni anglash jarayoni va bu jarayonda tilning tutgan o‘rni haqidagi fan. “Kognitiv” so‘zi inglizcha “cognize — bilmoq, anglamoq, tushunmoq” so‘zlaridan olingan bo‘lib, bu soha faqat falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur (ong) bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uзвиyo aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi”⁷⁰. Kognitiv faoliyat insonning tafakkur qilish jarayoni bo‘lib, bu jarayon bevosita til bilan bog‘liq holda kechadi, ya’ni til vositasida axborot almashinadi, bilim o‘rganiladi. “...cognition (kognitsiya), ya’ni bilish faoliyati axborot (ma’lumot)ni qabul qilish, taqdim etish va yaratish harakatlarini qamrab oladi. Bu turdagи harakatlar ijrosi lisoniyat zahiralaridan ozuqa oladi, bevosita yoki bilvosita lison bilan aloqada bo‘ladi. Insonning bilish qobiliyati uning lisoniy qobiliyati bilan hamohangdir⁷¹. Demak, olamni o‘rganish natijasida olingan bilimni xotirada saqlashning lisoniy vositalarini o‘rganish ham kognitologiya fani va tilshunoslikning kesishgan nuqtalaridan biri. Dunyonи anglash, voqelikni bilish, idrok etish, ong va tilda aks ettirish, til orqali muloqotga kirishish, axborot uzatish va qabul qilish hodisalari anchagina jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

⁶⁹Sayidiraximova N. “Kognitiv tilshunoslikda “tushuncha” va “konsept”, ularni tahlil qilish usullari”; Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 2 (43), 98-107 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online), – B.101.

⁷⁰Sayidiraximova N. “Kognitiv tilshunoslikda “tushuncha” va “konsept”, ularni tahlil qilish usullari”; Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 2 (43), 98-107 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online). – B.101.

⁷¹Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. — Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.22.

Kognitiv tilshunoslik amerikalik tilshunoslari Goldberg, Gudson, Maykl Tomasello, Joan Baybi, Kazenizer, Taylor, Andrea Tayler, Yevropada ispan olimlari Kenni R. Koventri, Pedro Guiarro-Fuentes, ingliz tishunoslari William Greyd, Yelena Lieven kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida bu yo‘nalishda Sh.Safarov, D.Ashurova, A.E.Mamatov, G‘.M.Hoshimov, N.Sayidiraximova kabi bir qancha tilshunoslari ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Kognitiv tilshunoslik ham insonning bilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fanlar tarkibiga kiradi. Kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni inglizcha “kognitive – bilishga oid” so‘zi bilan bog‘liq⁷². Darhaqiqat, tilshunos olim Sh.Safarov lingvistik tahlilni kognitiv tahlilning bir turi, uning ma’lum bir ko‘rinishda namoyon bo‘lishi, deya ta’kidlaydi⁷³. Professor G‘.M.Hoshimov: “Kognitiv tilshunoslik – inson tomonidan borliq dunyo voqelagini til orqali anglanishi, o‘rganilishi, ya’ni konseptlar vositasida uning in’ikos etilishi, his va idrok qilinishi kabi inson miyasida kechuvchi murakkab konseptual jarayonlar bilan bog‘liq muhim yo‘nalishdir”, – deya ta’kidlaydi⁷⁴. Tilshunos olma N.Sayidiraximova esa kognitiv tilshunoslikka quyidagicha ta’rif beradi: “...kognitiv tilshunoslik – obyekti inson ongi, tafakkuri va uning mental jarayon va holatlarini birlashtirishda o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi alohida ilmiy soha sanaladi. U anglash va bilimlar, inson faoliyati davomida olamni anglash jarayonlari haqidagi fandir”⁷⁵. Professor A.Mamatovning kognitiv tilshunoslik haqidagi fikrlari ham e’tiborga molik: “Kognitiv fan kognitsiya (bilish) bilan shug‘ullansa, kognitiv tilshunoslik kognitsiyaning, ya’ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo‘lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir.

⁷²Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. — Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.11.

⁷³Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. — Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.10.

⁷⁴Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Системструктур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70-йиллигига багишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2010. – Б.68.

⁷⁵Sayidiraximova N.“Kognitiv tilshunoslikda “tushuncha” va “koncept”, ularni tahlil qilish usullari”; Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 2 (43), 98-107 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online), – B.99.

Kognitivlik o‘z tuzilishiga ko‘ra, insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi”⁷⁶. Tilshunos olim Sh.Safarov kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo‘llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in’ikosi sifatida tafakkur bilan bog‘lab, chuqur ilmiy tadqiq etish ekanini yozadi⁷⁷. N.Sayidiraximova esa kognitiv tilshunoslikning vazifalari sifatida quyidagilarni keltiradi: “1) insondagi bilimlarning paydo bo‘lishida tilning rolini aniqlash; 2) olam va undagi narsalarni kategoriyalashtirish (tushunchalar hosil qilib, turlarga bo‘lish); konseptuallashtirish (konseptlar hosil qilish) va atash (nominatsiya) jarayonlarini tushunish; 3) konseptual sistema bilan til sistemasi o‘rtasidagi munosabatni aniqlash; 4) olamning lisoniy va kognitiv (konseptual) tasvirlari bilan bog‘liq masalalarni yechishdir”⁷⁸. Haqiqatan ham lisoniy hodisalar mohiyatini ochib berishda kognitiv yondashuv tadqiqotchining o‘z maqsadiga erishishida ko‘maklashadi, bir qator imkoniyatlar yaratadi. Bu gap bevosita terminshunoslikka, nutq ko‘rinishlarida qo‘llanadigan terminlarni izohlashga ham taalluqli. Zamonaviy terminshunoslikning taraqqiyoti, an’analari bo‘yicha kuzatishlar olib borgan L.M.Alekseyeva, S.L.Mishlanovalar terminologik tadqiqotlarda kognitiv yondashuvning muhimligi bo‘yicha quyidagi xulosalarga keladilar: “Birinchidan, kognitiv aspekt termin, nafaqat, o‘z-o‘zicha tavsiflash obyektini emas, balki tadqiqotchi tomonidan qanday tushunilishini ham ko‘rishga imkon beradi. Ikkinchidan, kognitiv terminshunoslik tadqiqotchini terminning murakkabligi va ziddiyatli ekanligi haqidagi g‘oyalarga ko‘niktiradi. U terminshunosni terminning aniq xususiyatlari, ichki qonuniyatlarini o‘rganishga yo‘naltiradi. Uchinchidan, terminshunoslik sohasidagi kognitiv tadqiqotlar insonning o‘zini o‘rab turgan olamga munosabati va o‘z bilimi natijalarini tilda ifodalashiga, terminning muammolarini nisbatan chuqur o‘rganishga, yangicha

⁷⁶Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Тилшуносликнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишилаб ўтказилган илмий -амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-219.

⁷⁷Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. — Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.11.

⁷⁸N.Sayidiraximova “Kognitiv tilshunoslikda “tushuncha” va “konsept”, ularni tahlil qilish usullari”; Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 2 (43), 98-107 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online), B.101.

fikrlashga imkoniyat tug‘diradi”⁷⁹. Shuningdek, olma “Terminologiya – bu obyektiv va subyektiv omili, konservativizm va kashfiyotning yangiligi bor bo‘lgan, haqiqatan faqat fan sohasida yaxlit ijodiy jarayonning faollashtirilgan qismlaridan biri”⁸⁰, – deb yozadi.

Lingvo-kognitiv tahlil, jumladan, badiiy matnlarda qo‘llanilgan terminlarni tahlil qilish kognitiv tilshunoslikning maqsadidan kelib chiqadi. Ya’ni lingvo-kognitiv tahlilda til tizimining tafakkur qilishga ta’siri va bilish jarayonidagi hissasi kabilar aniqlanadi. Inson ijodiyotining mahsuli bo‘lgan badiiy matnlarni tahlil qilishda ham asosiy e’tibor til va tafakkur aloqalariga qaratiladi. Shu o‘rinda professor Q.Yo‘ldoshevning quyidagi fikrlari ahamiyatli: “Badiiy yaratiqning dunyoga kelishi ham, uning idrok etilishi va tahlil qilinishi ham odamlarni o‘rab turgan borliqdan ko‘ra, ularning tafakkur va sezimlar tizimi hamda qadriyat va e’tiqod yo‘siniqa ko‘proq bog‘liq. Negaki, badiiy yaratiqning o‘zi tashqi tabiat yoki borliqning emas, balki ularning ijodkor ichki dunyosidagi in’ikosi o‘larоq paydo bo‘ladi. Shu boisdan ham badiiy asarni yaratish, uni qabul qilish, tushunish va izohlashda obyektiv omillardan ko‘ra, subyektiv jihatlar ustuvorroq ahamiyat kasb etadi. Ijodkor va badiiy iste’molchi suyanadigan nazariy-falsafiy asos, ular amal qiladigan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi badiiy asarning yaratilishiga ham, uning ilmiy tahlil etilishiga ham hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishi mumkin”⁸¹. Demakki, lingvo-kognitiv tahlil badiiy matnlarni tahlil qilishda ham keng qo‘llanishi maqsadga muvofiq. Zero “Bilim olish va saqlash, uni amalda qo‘llash va uzatish manbai va nihoyat, uni shakllantiruvchi vosita bo‘lgan til tizimi kognitiv tahlil obyekti ekanligiga hech qanday shubha yo‘q”⁸².

Qayd etilgan bu holatlar o‘tgan asrning so‘nggi choragida fan sifatida ajralib chiqqan kognitiv tilshunoslik allaqachon tilshunoslikning alohida muhim

⁷⁹ Алексеева Л.М. О тенденциях развития современного терминоведения / Л.М. Алексеева, С.Л. Мишланова // Актуальные проблемы лингвистики и терминоведения междунар. сб. науч. тр., посвящ. юбилею проф. З.И. Комаровой. – Екатеринбург, 2007. – С. 10.

⁸⁰ Алексеева Л.М. О тенденциях развития современного терминоведения / Л.М. Алексеева, С.Л. Мишланова // Актуальные проблемы лингвистики и терминоведения :междунар. сб. науч. тр., посвящ. юбилею проф. З.И. Комаровой. – Екатеринбург, 2007. – С.15.

⁸¹ Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент, 2016. – Б.75.

⁸² Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.16.

yo‘nalishlaridan biri bo‘lishga ulgurganligidan dalolat beradi. Bu soha olimlari tomonidan bugungacha ancha masalalarga ilmiy yechim topildi. Biroq, shunga qaramasdan hali o‘z tadqiqini kutayotgan masalalar ham talaygina. Xususan, badiiy asarlar komponentlarining lingvo-kognitiv tahlili ham shular jumlasidandir. Bu esa bugun yetishib kelayotgan tilshunoslar oldidagi muhim vazifalardan biri. Shu o‘rinda kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan bo‘lgan **konsept** tushunchasiga ham to‘xtalish joiz. Konsept tushunchasi dastlab 1928-yilda S.A. Askoldovaning “Konsept va so‘z” nomli maqolasida tilga olingan va XX asr o‘rtalaridan kognitiv tilshunoslikda qo‘llana boshlagan. Konsept lotincha “conceptus – tushuncha” ma’nosini ifodalaydi. Sh.Safarov konsept haqida: “Konsept tafakkur birligi bo‘lib, uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma’no umumlashmasi yotadi”⁸³, – degan fikrlarni aytadi. O‘.Yusupov fikricha: “Konsept – bu tashqi yoki ichki dunyodagi biror narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagи bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobiy, salbiy yoki neytral baholashlardir”⁸⁴. D.Xudoyberganova matnning antropotsentrik tadqiqiga bag‘ishlangan monografiyasida konsept haqida quyidagilarni bayon etadi: “Konsept, darhaqiqat, mental tuzilma. Shuningdek, u ayni vaqtida ko‘p qirrali va ko‘p qatlamlı, o‘zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etuvchi tuzilmadir. Zero, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekti sifatida tavsiflanayotgani shundan dalolat beradi”⁸⁵. N.Sayidiraximovaning konsept haqidagi fikrlari esa quyidagicha: “Konsept inson aqliy dunyosidagi madaniyatning asosiy yacheysidir. Konseptlar inson ongida nafaqat so‘zning lug‘aviy ma’nolari asosida, balki shaxsiy hamda butun bir xalqning madaniy-tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo‘ladi. Tajriba qancha boy bo‘lsa, konseptning chegarasi shunchalik keng bo‘ladi. Aynan shunday holatda konsept o‘zini har tomonlama namoyon eta oladi. Zoran, konsept dunyonи

⁸³Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: “Сангзор”, 2006. – Б.92.

⁸⁴Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуре маънанинг яхшилиларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011.– Б. 49-56.

⁸⁵Худойберганова Д.Матннинг антропоцентрик тадқики, — Тошкент: Фан, 2013.– Б.13.

bilish va u haqda o‘z tasavvuriga ega bo‘lish demakdir”⁸⁶. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, konsept narsa yoki hodisa haqidagi bilimlar majmuasining tafakkurda aks etishidir.

Kognitiv tahlil – ijodkorning dunyoqarashini aks ettiradigan lingvistik tahlil. Badiiy asarda muallifning olam haqidagi qarashlari, bilimlarini aks etishini isbotlab berish – kognitiv tahlilning maqsadi. Kasbiy va ilmiy terminlarni badiiy asarda mahorat bilan ishlatib, badiyat yarata olgani ham ijodkorning tafakkur olami kengligidan dalolat. Muallif so‘z ijodkorligining lisoniy-kognitiv tahlili bilan shug‘ullangan yosh tilshunos olima I.Ernazarova: “Mualliflik so‘zlarini chuqr tadqiq etish, bu so‘zlar izohini turli lug‘atlardan axtarish va uni o‘quvchiga yetkazish asar matnining o‘qishliligi bilan birga ijodkorning tafakkurini anglashga yordamlashadi, ya’ni kognitiv tahlilni amalga oshirish uchun asos bo‘ladi”, – deya ta’kidlaydi⁸⁷. Darhaqiqat, lingvo-kognitiv tahlil orqali ijodkorning olam haqidagi bilimlarini va bu bilimlarning til vositasida qay yo‘sinda aks etishini o‘rganish mumkin. Bu haqida Sh.Safarov ham quyidagilarni bayon etadi: “...kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi ham til tizimining bilish jarayonidagi ishtiroki va ulushini aniqlashdir. Til birliklarining egallanayotgan bilimning lisoniy voqelanishdagi ishtiroki hamda lisoniy faoliyatning axborotni shakllantirish va “qayta ishlash”dagi rolini aniqlash kognitiv tahlilning ko‘rinishlaridan biridir”⁸⁸.

Badiiy matn bilan bog‘liq tadqiqotlarda kognitiv-kommunikativ terminshunoslik tahlil va tamoyillariga tayanish izlanishlarda ma’lum imkoniyatlar yaratadi. Kognitiv terminshunoslik tilshunoslikning barcha sohalarida amalga oshirilgan turli tajribalar va yondashuvlarda erishilgan natijalariga tayanadi hamda o‘zida til va aloqa, til va ong hodisalarini namoyon qiladi. Agar masalaga jidiyyoq e’tibor qilinsa, bu shunchaki bir necha fanlarning qo‘shilishi yoki tilshunoslikdagi u yoki bu sohaning qoida va natijalarini jalb qilish emas, balki ularni tushunish va

⁸⁶Sayidiraximova N.“Kognitiv tilshunoslikda “tushuncha” va “konsept”, ularni tahlil qilish usullari”; Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 2 (43), 98-107 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online), – B.103.

⁸⁷Ernazarova I. Muallif so‘z ijodkorligining lisoniy-kognitiv tahlili (Eshqobil Shukur ijodi misolida): Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) ...diss. – Samarqand, 2022. – B.45.

⁸⁸Сафаров, Ш. Когнитив тилшунослик. — Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.76.

izohlashda yangi rakurslar bilan ta'minlash uchun kognitsiya va diskurs hodisalarini o'rganishning yagona kognitiv metodologiyasini hisobga oluvchi tadqiqotning sifat jihatdan yangi bosqichidir⁸⁹.

Kognitiv tarixiy terminshunoslik muammolari bilan shug'ullangan Ye.I.Golovanovning ta'kidlashicha, ko'pchilik zamonaviy tadqiqotchilar terminologiya sohasida, ayniqsa, "keng madaniy kontekstda maxsus bilimlarning paydo bo'lishi va evolyutsiyasini tahlil qilishga imkon beruvchi, insonlarning kognitiv-kommunikativ ehtiyojlari o'zgarib turishini hisobga olgan holda terminologik nominatsiya doirasidagi rivojlanib boruvchi jarayonlarning mexanizmlari va sabablarini ochishga imkon beruvchi" kognitiv yondashuvni isbotlaydilar. Bularning barchasi terminlar sistemasidagi tarixiy jarayonlarni ilmiy tushunishni qiyinlashtiradi, maxsus bilim tuzilishi (va ong) bilan lisoniy tuzilish o'rtaсидаги murakkab munosabatlar dinamikasini namoyon qiladi"⁹⁰.

Terminologik birliklar har bir davrda ham inson faoliyatini bilan bog'liq bo'lgan kasbiy, ilmiy bilimlarning shakllanishiga asos bo'lgan, asrlar davomida ilm-fan taraqqiy etishi, kasbiy bilimlarning takomillashuviga bog'liq holda ilmiy, kasbiy xususiyatlarning saqlanishini ta'minlagan va kelgusi avlodlarga yetkazilishiga zamin yaratgan. Shu bilan birga insoniyat taraqqiy etgani sayin o'z zaxirasini kengaytirib borgan. Shu ma'noda inson ruhiyati, ichki kechinmalari, orzu-maqsadlari ifodasi bo'lgan badiiy matnlarda qo'llanilgan terminlarni o'rganish alohida dolzarblik kasb etadi.

Badiiy matnning g'oyasi, uni ifodalash uslubi, o'ziga xos xususiyatlari badiiy matnlarda qo'llanuvchi terminlarga ham bog'liq bo'ladi. Terminlarning badiiy imkoniyatlari asar qahramonlari tilida yoki muallif tilida namoyon bo'ladi. Terminlar badiiy matn mazmunini va yozuvchining o'ziga xos uslubini aks ettirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Termin badiiy matnda qo'llanganda, endi u ijodkorning kommunikativ maqsadiga bo'ysunadi va badiiy-estetik

⁸⁹Манерко Л.А. Истоки и основания когнитивно-коммуникативного терминоведения / Л.А. Манерко // Лексикология. Терминоведение. Стилистика : сб. науч. тр., посвящ. юбилею В.М. Лейчика. Москва: Рязань, 2003. – С.120-126.

⁹⁰Голованова Е.И. Предмет и задачи когнитивно-исторического терминоведения / Е.И. Голованова // Научно-техническая терминология. – 2007. - Вып. 1. – С. 12-13.

ta'sirchanlikni yuzaga keltiruvchi vositaga aylanadi. Har qanday so'z kabi terminning ham lingvo-kognitiv, lingvopoetik, lingvostilistik imkoniyatlari faqat matn doirasidagina namoyon bo'ladi. Badiiy matnda ilmiy va kasbiy terminlarni qo'llashdan maqsad, qahramonlararo munosabatlar, inson va tabiat uyg'unligi, voqelikning turli ko'rinishlariga badiiylikni singdirish, shu orqali kitobxonga badiiy-estetik ta'sir qilishdir. Shuning uchun badiiy matnda qo'llanilgan terminlar ma'lum vazifani bajaradi. "...kasbiy va ilmiy terminlarni mahorat bilan ishlatib, badiiylik yarata olgani ham ijodkorning tafakkur olami kengligidan dalolat", – deydi I.Ernazarova⁹¹. Darhaqiqat, terminlar badiiy asar doirasida qo'llanar ekan, ular ijodkorning termin mansub bo'lgan fan va sohalarga oid bilimlarini-da aks ettiradi. Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida ham Navoiyning ko'pgina fan va kasb-hunarga oid bilimlarini aks ettiruvchi terminlarni uchratamiz. Badiiy matnda qo'llangan terminlarni o'rghanish V.F.Novodranova aytganidek: "termin olingan ma'lumotni mazmunda mustahkamlash bilan bilishning quroliga aylanadi. U ilmiy bilimlarni umumlashtirish, ko'paytirish va olimlarning keyingi avlodlariga yetkazishga imkon beradi"⁹². Masalan, dostonda qo'llanilgan astronomik terminlarni lingvo-kognitiv nuqtayi nazaridan tadqiq qilish terminlarning o'ziga xos badiiylik yaratishini asoslash bilan bir qatorda Navoiyning astronomiya ilmidan qanchalik boxabar bo'lganligini ko'rsatadi:

Jaybi aro tugma **Tiyr-u Nohid**,

Egnida tirozi Oy-u Xurshid ("Layli va Majnun", 2020:7).

Baytning ma'nosi: Falak libosidagi tugmalar Tiyr (Merkuriy sayyorasi) va Nohid (Zuhra yulduzi) bo'lsa, egnidagi shoyi hoshiyalari Oy va Quyoshdir ("Layli va Majnun" (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:5).

Munshiy ko'rubon xati savodin,

⁹¹ Ernazarova I. Muallif so'z ijodkorligining lisoniy-kognitiv tahlili (Eshqobil Shukur ijodi misolida): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) ...diss. – Samarqand, 2022. – B.45.

⁹² Новодранова В.Ф. Проблемы терминообразования в когнитивно коммуникативном аспекте / В.Ф. Новодранова // Лексикология. Терминоведение. Стилистика : сб. науч. тр., посвящ. юбилею В.М. Лейчика. – Москва: Рязань, 2003. – С.150-155.

Kayvon yuziga sochib midodin (“Layli va Majnun”, 2020:22).

Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati 2-jildida *Munshiy Atorid* (*Merkuriy*) sayyorasining qadimgi nomi ekanligi aytilgan (Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati (Bundan keyin matnda NAIL tarzida qo‘llaniladi) 2-jild, B.358). O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa *Munshiy* so‘zining tarixan “*Saroyda yozuv ishlarini olib boradigan kotib*” ma’nosigina keltirilgan bo‘lsa (O‘zbek tilining izohli lug‘ati (keyingi o‘rinlarda O‘TIL) 2-jild, B.642), *Atorid* so‘zi lug‘atda *arabcha* Merkuriy sayyorasining nomi ekanligi ko‘rsatilgan (O‘TIL 1-jild, B.115). *Kayvon* (fors.) esa Zuhal, ya’ni *Saturn* planetasining qadimgi nomi (O‘TIL 2-jild, B.91). Demak, yuqoridagi baytning ma’nosisi: *Atorid* (Merkuriy, qadimgi miflarda Merkuriy yozuvchilarning homiysi hisoblangan) uning yanoqlaridagi miyiqlarning qoraligini ko‘rib, o‘z siyohini *Kayvon* yulduziga sochib yubordi (“Layli va Majnun” (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:15).

Zuhra yo‘lida tuzub navo zer,

Mutriblardek bo‘lub miyongir (“Layli va Majnun”, 2020:22).

Zuhra yulduzi nomi Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘atida alohida izohlanmagan. Faqat *zuhrevash* (Zuhra kabi; chiroqli, porloq); *zuhrajabin* (Zuhra yulduzi kabi charaqlab turgan chiroqli yuz) so‘zлari berilgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa *Zuhra* so‘zi arabcha bo‘lib, Quyosh sistemasidagi katta planetalardan biri – *Veneraning* arabcha nomi ekanligi aytilgan (O‘TIL 2-jild, B.166). Yuqoridagi baytning ma’nosisi: Zuhra esa uning yo‘lida pastki pardada soz chalib, sozandalardek musiqiy kecha tashkil qildi (“Layli va Majnun” (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:15).

Qadimgi *Mirrix yulduzi* nomi dostonda *Bahrom* nomi bilan keladi:

Bahrom ko‘rub biyik janobin,

Tashlab qilichin, o‘pub rikobin (“Layli va Majnun”, 2020:23).

Baytning ma’nosisi: Mirrix uning martabasini ko‘rib, qo‘lidagi qilichini tashlab, otining uzangisini tavof qildi (“Layli va Majnun” (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:15). *Bahrom* so‘zining izohi Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘atida ham, hozirgi o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham berilmagan. *Mirrix*

so‘zining esa o‘zbek tilining izohli lug‘atida *arabcha* so‘z ekanligi va *Mars sayyorasining* qadimgi nomi ekanligi aytilgan. Qadimda munajjimlar bu sayyorani urush va xunrezliklar sababchisi deb hisoblaganlar (O‘TIL 2-jild, B.600).

Yoy go‘sha tutub qoshi xamidin,

Qo‘chqor o‘lub **O‘chku** maqdamidin (“Layli va Majnun”, 2020:23).

Yoy so‘zi Alisher Navoiy asarlari izohli lug‘atida ham, o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham burj nomi ma’nosida *keltirilmagan*. Ammo astronomiyada *Yoy* (Qavs) osmondagи o‘n ikki burjdan birining nomi sifatida qo‘llaniladi.

Qo‘chqor so‘zining asronomik termin sifatidagi ma’nosи Alisher Navoiy asarlari izohli lug‘atida ham, o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham berilmagan. Ammo burj nomi sifatida *Qo‘chqor*, *Qo‘y* shaklida astronomiyada ishlatiladi.

O‘chkuning Tog‘ echkisi ma’nosи Alisher Navoiy asarlari izohli lug‘ati III jildida berilgan (NAIL 3-jild, B.619).

Yuqoridagi baytning ma’nosи: *Yoy*, ya’ni *Qavs* uning qoshi xijolatidan o‘zini bir chekkaga olib, *Echki* uning qadami sharofati bilan *Qo‘chqor* bo‘ldi (“Layli va Majnun” (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:15). Hazrati Navoiyning so‘z qo‘llash mahorati har satrda yaqqol sezilib turadi.

Tahlillardan ko‘rinadiki, Alisher Navoiy buyuk so‘z ijodkori, davlat arbobi bo‘lish bilan birga astronomiya ilmining ham yetuk bilimdoni bo‘lgan. Navoiy asarlarida qo‘llanilgan terminlar tahlilida kognitiv yondashuv terminlarning doston tilida qo‘llanish sabablari va imkoniyatlarini ijodkor shaxs ongi, tafakkuriga bog‘liq holda qarashga imkon beradi. Navoiy tomonidan qo‘llanilgan terminlarni izohlashga kognitiv yondashuv shoир tomonidan qo‘llanilgan terminlarni shoир ruhiyati, ong-u tafakkuriga bog‘liq holda tavsiflashni talab qiladi. Mazkur dostonda Navoiyning boshqa sohalarda ham yetarlicha bilimga ega bo‘lganligi aks etgan. Xususan, quyidagi baytga e’tibor beramiz:

Ich qabz topar taranjabindin,

Safro ortar sikanjabindin (“Layli va Majnun”, 2020:244).

Taranjabin – yantoq shakari (NAIL 3-jild, B.185) bo‘lsa, *sikanjabin* – sirka murabbo (NAIL 3-jild, B.377) ekanligi lug‘atlarda aytilgan. Baytda Navoiy

taranjabin iste'molidan qabziyat yuzaga kelishi, sikanjabin iste'mol qilinganda esa safro ortishini aytadi. Mazkur baytda *taranjabin*, *sikanjabin*, *qabz topmoq*, *safro* terminlari orqali Navoiyning tabobatga doir bilimlari aks etgan.

Tahlilga tortilayotgan navbatdagi bayt ma'nosini tushunish uchun o'quvchida botanik va harbiy sohaga oid bilimlar bo'lishi yoki lug'atlar yordamida baytda qo'llanilgan terminlarning izohi bilan tanishishi lozim:

Marz uzra kiyar **sebarga** javshan,

Shashpar ko'tarur boshig'a savsan ("Layli va Majnun", 2020:73).

Sebarga Navoiy asarlari izohli lug'atida "uch yaproqli ko'kat" deb izohlangan (NAIL 3-jild, B.68) bo'lsa, *javshan* –sovut, zirhga o'xshash urush kiyimi (NAIL 1-jild, B.554) deb izohlangan. Navoiy botanik (*sebarga*) va harbiy (*javshan*) terminlarni birgalikda qo'llash orqali sebarga *javshan* – metal yaproqchalardan to'qilgan Sovut (NAIL 3-jild, B.68) ifodasini yaratgan. Ikkinchi misrada nomi keltirilgan *shashpar* harbiy termin bo'lib, oltin qirrali gurzini anglatadi (NAIL 3-jild, B.511). Savsan esa botanikaga oid termin bo'lib, gulsapsar guli ekanligi aytilgan (NAIL 3-jild, B.21). Demak, baytning ma'nosini quyidagicha: yer yuzi sebargalardan Sovut kiyarkan, savsan boshiga gurzi ko'tardi ("Layli va Majnun" (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:48).

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, "terminlar sistemalari kalit tushunchalar asosiga quriladi va ularni izohlashga ko'proq diqqat qilish kerak, vaholanki sistema birliklar jamlanmasi, kognitiv xaritalar, ssenariy rejalar kabilar sifatida namoyon bo'luvch bilimning murakkab tarmoqlari jamlanmasi sifatida shakllanadi" ⁹³.

Ko'rindaniki, badiiy matnda qo'llanilgan terminlar ijodkor bilimlarini yaqqolroq aks ettiradi. "Ilmiy bilim taraqqiyotining xususiyatlarini o'rganishda, balki yaxlit holda insoniyat madaniyati va taraqqiyoti yo'llarini o'rganishda muhim roli o'ynaydi" ⁹⁴.

⁹³Новодранова В.Ф. Проблемы терминообразования в когнитивно коммуникативном аспекте/ В.Ф. Новодранова // Лексикология. Терминоведение. Стилистика : сб. науч. тр., посвящ. юбилею В.М. Лейчика. – Москва: Рязань, 2003. – С.153.

⁹⁴Гринев С.В. Терминоведение на пороге третьего тысячелетия / С.В. Гринев // Научно-техническая терминология. – 2000. - Вып. 1. – С. 31-34.

O‘zbekistonda badiiy asar terminologiyasi bo‘yicha ma’lum ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularning barchasini sistema asosida o‘rganish yo‘lga qo‘yilmagan. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan terminlarni o‘rganish bu boradagi bo‘shliqlardan birini to‘ldirishi, shubhasiz.

Bob bo‘yicha xulosa

Terminologianing ilmiy fan sifatidagi taraqqiyotini, uning asosiy tushunchasi bo‘lgan termin tushunchasini, kognitiv tilshunoslik, konsept, badiiy matnda terminlarni lingvo-kognitiv jihatdan tahlil qilish yuzasidan olib borilgan kuzatishlar quyidagi xulosalarga kelishga imkon beradi:

1. Terminologiya ilmiy fan sifatida sohalarga oid terminologik tizimlarni aks ettiradi. Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik qarashlarning yetakchilik qilishi terminning o‘ziga xosliklarini, uning tilda yuzaga kelish va yashab qolish qonuniyatlarini kognitiv nuqtayi nazardan tahlil etish ehtiyoji kognitiv-kommunikativ terminshunoslik taraqqiyotiga yo‘l ochadi.

2. Tilshunoslikda termin va atama, nomenklatura, istiloh so‘zlarining aralash qo‘llanishi haliga qadar davom etib kelmoqda. Termin so‘zning funksional-semantik ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, termin ham ifoda, ham mazmun planiga ko‘ra so‘zlardan farqlanadi. Terminning ifoda planiga ko‘ra so‘zlardan farqlanishi ayrim terminlarning ifoda plani so‘zga qaraganda sintagmatik jihatdan murakkab bo‘lishi mumkinligi bilan belgilansa, mazmun planiga ko‘ra farqi terminning jamiyatning ayrim ijtimoiy qalamlari uchun xoslangan bo‘lishi, terminning so‘z bazasida shakllanishi va ma’no ko‘لامi so‘zning ma’no ko‘lamiga nisbatan tor va iste’mol doirasi cheklangan bo‘lishi kabi bir qancha farqli xususiyatlar bilan belgilanadi.

3. Kognitiv yo‘nalishdagi terminologik tadqiqotlarda terminning ichki tabiatidan kelib chiqib, uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga e’tibor sezilarli darajada kuchaydi. Uning tadqiq doirasiga kasbiy bilim va kasbiy faoliyat, terminda bilimning ifodalanishi, inson omili kabi muammolarning ham qo‘shilishi kognitiv tilshunoslikning freym, konsept, lisoniy olam manzarasi, konseptosfera,

konseptlar, olam manzarasi, modellashish, diskursiv tahlil kabi tushunchalari faollashuviga imkon yaratdi.

4. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi terminlarni lingvo-kognitiv nuqtayi nazardan tadqiq etish shoir individual uslubini belgilash, uning terminologik birliklardan foydalanish mahoratini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, doston tilida qo‘llanilgan terminlarni tasniflash, ularning semantik xususiyatlarini ochib berish o‘zbek terminologiyasi tarixining ma’lum davriga aniqliklar kiritishi, shubhasiz.

II BOB. “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI TERMINHLARI VA ULARNING LINGVO-KOGNITIV TAHLILI

2.1-§. “Layli va Majnun” dostoni terminlarining mavzuiy guruhlari

Zamonaviy tilshunoslikdagi yetakchi yo‘nalishlardan biri bo‘lgan antropotsentrik nazariyaga ko‘ra, tilshunoslarning asosiy diqqat markazida inson turadi. Bu holat terminlarni tavsiflashga bag‘ishlangan lingvo-kognitiv yo‘nalishda yaratilgan tadqiqotlarda ham muhim o‘rin tutadi. Bu tadqiqotlarda termin tushunchasining shakllanishi, olam va insonni o‘zaro bog‘lovchi vosita sifatida ilm-fan olamiga kirib kelganligi va o‘zining mustahkam o‘rniga ega bo‘lganligi, inson u yordamida voqelik to‘g‘risida ilmiy tushuncha va tasavvurga ega bo‘lganligi masalalari yoritib berilgan. Terminlarning lingvo-kognitiv tahlili boshqa yondashuvlar asosida olingan tajriba va natijalarini hisobga olishni taqozo etadi va ong, til va kommunikatsiya hodisalarini o‘ziga xos ravishda namoyon etadi. Bu, ma’lum bo‘lishicha, bir necha fan sohalarining imkoniyatlarini shunchaki “qo‘sish” yoki tilshunoslikka u yoki bu fanning ayrim xulosa va natijalarini jalb etish emas, balki kognitsiya hodisalari va diskursni yangicha rakurslar, anglash va izohlashda yagona kognitiv metodologiyani hisobga oluvchi yangicha yo‘nalishdir⁹⁵. Shu boisdan ham, XXI asr boshlarida o‘zbek

⁹⁵ Абдирашева А.С. Замонавий турк тилидаги иқтисодий терминларнинг лингвокогнитив таҳлили: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б.11.

tilshunosligida antropotsentrik yo‘nalish yetakchi o‘ringa ega bo‘ldi. Shu davrdan boshlab yuzaga kelgan tadqiqotlarning aksariyati matnning sotsiolingvistik, pragmalingvistik xususiyatlari, kognitiv tilshunoslik nazariyasi, publitsistik matnning mazmuniy pertsepsiysi kabi masalalarga bag‘ishlandi.

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi o‘sha tarixiy davr uchun xos bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, fan va kasb-hunarga oid terminlarni lingvo-kognitiv jihatdan tadqiq etish shoirning individual uslubi, voqelik faktlariga bo‘lgan munosabati, bilimi, hayotiy tajriba va tasavvuri to‘g‘risida muayyan xulosalarga kelishga imkon beradi. Buning uchun dostonda qo‘llanilgan terminlarni mavzuiy guruhlar asosida tasniflash, bu terminlarning kelib chiqishi, hozirgi holati haqida asosli mulohazalar bildirish, nafaqat, tilshunoslik, balki turkiy xalqlar tarixi, adabiyoti uchun ham qimmatlidir. Terminlarni mavzu ko‘lamiga ko‘ra tahlilga tortish badiiy asar mazmun-mohiyati, g‘oyasi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. “Lingvistik yoki semiotik yo‘nalishda asosiy e’tibor tekshirilayotgan asarning nafaqat badiiy-estetik yaratiq, balki badiiy til hodisasi ekanini har jihatdan o‘rganishga qaratiladi, – deb yozadi Q.Yo‘ldoshev, – Bu yo‘nalishdagi tahlilda o‘rganilayotgan asar filologik hodisa sifatida til va tasvir vositalari hamda ular o‘rtasidagi davomiylik, vorisiylik, novatorlik nuqtayi nazaridan tekshiriladi. So‘zning o‘z va badiiy ma’nosи, kontekstdagi jozibasi, badiiy matn zamiriga yashirilgan mazmun va bu yashirilganlikning hayotiy ham estetik sabablari singari bir qator jihatlarga e’tibor qaratiladi”⁹⁶. Darhaqiqat, mavzuiy guruhlarni o‘rganish orqali xalq turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy hayoti, milliy qadriyatları va an‘analari haqida ham yaxlit tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Badiiy matn leksikasi nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki undagi leksik birliklar o‘zbek adabiy tili bilan qiyosiy tahlil etish orqali ham o‘rganilishi lozim. Bunday tahlil yozuvchi tili va uslubini, lingvopoetik mahoratini tadqiq qilish imkoniyatini beradi.

Tilshunos olim E.Begmatov “tematik guruhlар” atamasi so‘zlarni tasnif qilishning lingvistik metodlaridan birining nomini va ushbu metodda tasnif

⁹⁶ Йўлдош К., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент, 2016. – Б.72.

qilingan til materialining leksik guruhlarini anglatishini aytadi. Shuningdek, olim “tematik tasnif ma’lum leksik qatlamlarga yoki konkret uslublarga oid so‘zlarni guruhlash uchun, muayyan dialekt va shevalar leksikasini yoki tilning ma’lum sotsial tarmoqlariga oid so‘zlarni guruhlash uchun, ba’zi hollarda alohida yozuvchilarning lug‘aviy boyligini namoyish etish uchun ham qo‘llaniladi”, – degan konkret xulosalarni ham beradi⁹⁷. O‘zbek tilshunosligida Navoiy asarlari tilida qo‘llanilgan terminlarni mavzular bo‘yicha guruhlarga ajratib o‘rganish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Bu masalada, ayniqsa, H.Dadaboyev, D.Abduvaliyevalarning xizmatlarini alohida ta’kidlash joiz. Tilshunos D.Abduvaliyeva Navoiyning tarixiy asarlari leksikasi bo‘yicha kuzatishlar olib borib, “Tarixi anbiyo va hukamo” leksikasining umumiyligi miqdori (takrorlar bilan) 26 693 so‘zdan iboratligi, asar lug‘at tarkibidagi mavjud (takrorlarsiz) 3047 ta so‘zning 748 tasi turkiy, 1756 tasi arabcha, 506 tasi forscha-tojikcha, 19 tasi qadimgi yahudiy, 9 tasi yunoncha, 4 tasi mo‘g‘ulcha, 1 tasi sanskritcha, 2 tasi urducha, 3 tasi so‘g‘dcha, 1 tasi xitoycha ekanligini, “Tarixi muluki ajam” leksikasining esa umumiyligi miqdori (takrorlar bilan) 15 044 so‘zdan iborat bo‘lib, (takrorlarsiz) 2418 ta so‘z ishlatilganligini aniqladi. Olimaning guvohlik berishicha, asardagi turkiy so‘zlar 581 ta, arabcha so‘zlar 1188 ta, forscha-tojikcha so‘zlar 601 ta, qadimgi yahudiy so‘zlar 18 ta, yunon tiliga xos so‘zlar 13 ta, mo‘g‘ulcha so‘zlar 4 ta, sanskritcha so‘zlar 2 ta, urducha so‘zlar 5 ta, so‘g‘dcha so‘zlar 2 ta, xitoycha so‘zlar 2 ta, gruzinchcha so‘z 1 ta, armancha so‘z 1 ta⁹⁸. Demak, mavzuiy guruhlash usuli ma’lum til tarmog‘iga oid so‘zlarni guruhlash bilan birga ijodkorning lug‘aviy boyligini ko‘rsatishga ham xizmat qiladi. Shu kabi asoslardan kelib chiqib, “Layli va Majnun” dostoni terminlarini mavzuiy guruhlarga ajratib o‘rganishni lozim topdik.

Dostonda qo‘llanilgan jami 778 ta terminni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

⁹⁷ Жуманазарова Г. “Ширин билан Шакар” достонининг луғавий ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2008. – Б.69.

⁹⁸ Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б.12.

1.Marosimlarga doir terminlar. Ma'lumki, marosim 1) diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan ma'raka, yig'in: diniy marosimlar, to'y marosimlari, dafn marosimi va b; 2) tantanalar bilan o'tkaziladigan rasmiy yig'in: yubileylar, mukofot berish marosimi, haykalning ochilish marosimlari va boshqalar⁹⁹

Doston matnida 82 ta marosimga oid termin qo'llanilgan bo'lib, ulardan 39 tasi to'y va bazm marosimiga oid bo'lsa, 43 tasi motam marosimiga oid terminlardir. Demak, "Layli va Majnun" da qo'llanilgan marosim terminlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

1.1.To'y va bazmga doir terminlar. Dostonning 30-31-boblarida Navfalning Majnun dardiga davo bo'lsin, degan maqsadda o'z qizini Majnunga berishga qaror qilgani, to'y marosimi va Navfalning qizi to'ydan keyin boshqa insonni sevishini aytib, Majnunga aka-singil bo'lishni taklif qilgani; Laylini esa Bani Asad qabilasining boshlig'i Ibn Salomga unashirgani va to'y kuni tunda Ibn Salomning quyanchiq (tutqanoq) kasali qo'zg'ab, behush yiqilgani bayon qilinadi. Alisher Navoiy mazkur boblarda to'y jarayoni bilan bog'liq bir qancha terminlarni ham qo'llaydi. Xususan, *aqd ayladi* (nikoh qilmoq, nikohiga olmoq; tanlamoq, egallamoq; NAIL 1-jild, B.162), *aqdi tazvij* (nikohlash; NAIL 1-jild, B.162), *aqd-u kobil* (nikoh va qalin; NAIL 1-jild, B.162), *bazm* (ziyofat, bazm NAIL 1-jild, B.193), *kelin*, *kuyov*, *miodi nikoh* (nikoh muddati; NAIL 2-jild, B.307), *nikoh* (uyylanish; NAIL 2-jild, B.459), *nikoh ishi*, *sur* (1. karnay, sunray, shoxdan yasalgan surnay; 2.to'y, bazm; NAIL 3-jild, B.126), *tazvij* (uylantirish, nikoh; NAIL 3-jild, B.163), *sharob* (ichimlik, may; NAIL 3-jild, B.504), *yor*, *boda*, *bazmgoh*, *visol*, *may*, *mehman*, *mizbonliq* va boshqalar.

To'y marosimlarining azaldan yaqin qarindoshlar bilan birgalikda xursandchilikda o'tkazilishi ma'lum. Dostonda to'y xabarini eshitgan Navfal butun qarindosh-urug'ini to'plab, katta to'y boshlagani manzarasi tasviri quyidagicha:

Jashn anjumanin azim qurdi,

Ul xaylni bazm aro tushurdi ("Layli va Majnun", 2020:219).

⁹⁹<https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/marosim-uz/>

Bunda *jashn* so‘zi Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati 1-jildida o‘yin-kulgi majlisi, bazm, ziyofat deb berilgan (NAIL 1-jild, B.568).

Keyingi misolda esa *nikohlamoq* termini *aqd bog‘lamoq* termini orqali ifodalangan:

Oy birla quyoshni bog‘ladi aqd,

Boshi uza sochtilar, base, naqd (“Layli va Majnun”, 2020:220).

Aqd – band, bog‘lash, tugun; nikoh (NAIL 4-jild, B.162). Aqd bog‘lamoq – nikoh bog‘lamoq, nikoh o‘qimoq ma’nosida kelgan. Aqd so‘zi bugungi kunda iste’molda mavjud emas. Faqat u ifodalagan ma’no saqlanib qolgan. Baytning ma’nosi: Oy bilan quyoshni, ya’ni kelin bilan kuyovga nikoh o‘qidi va ularning boshlaridan kumush va oltinlar sochdilar.

Ko‘z ustida ulcha rasm-u oyin,

Jon o‘rtada ulcha aqd-u kobil (“Layli va Majnun”, 2020:151).

Navoiy asarlari izohli lug‘atida *rasm* so‘ziga “*qoida, udum, qonun*” deya ta’rif berilgan bo‘lsa (NAIL 2-jild, B.606), *oyin* so‘zi “*rasm, odat*” deya izohlangan (NAIL 2-jild, B.510). Demak, yuqoridagi baytda juft shaklda qo‘llanilgan *rasm-u oyin* so‘zлari *urf-odat* ma’nosini beradi. *Aqd* so‘zining *nikoh* ma’nosida qo‘llanilganiga yuqoridagi misollar orqali ayon bo‘ldi. *Kobil* so‘zi esa *mahr*; *nikoh oldidan kuyov tomonidan kelinga berilishi shart bo‘lgan mol, mablag‘ni bildiradi* (NAIL 2-jild, B.122). Hozirda *kobil* so‘zi iste’molda qo‘llanilmaydi. Bu so‘z bildirgan ma’no hozirda *mahr* so‘ziga yuklatilgan. Demak, baytning ma’nosi quyidagicha: Rasm-odatlarni ko‘z ustiga qo‘yib, mahriga jonnitiksak (“Layli va Majnun” (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:97).

To‘y marosimi bilan bog‘liq muhim so‘zlar – *kelin* hamda *kuyov* so‘zлari dostonda ham shu holatda qo‘llanilgan:

Chun mehr **kelin** kibi yoshundi,

Tun yerga **kuyov** kibi yukundi (“Layli va Majnun”, 2020:220).

Baytning ma’nosi: quyosh ham kelinlardek yashirindi, tun ham kuyov kabi yerga yastandi (“Layli va Majnun” (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:143).

O‘lturdi **xatibi** Isoe’ joz,

Haq hamd-u sanosin aylab og‘oz (“Layli va Majnun”, 2020:220).

Mazkur baytda *xatib* so‘zi *nikoh o‘qiydigan imomni* bildiradi. *Xatib* so‘ziga Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati 3-jildida *imom*, *va’z etuvchi* deb ta’rif berilgan (NAIL 3-jild, B.386). Bu so‘zdan hozirgi kunda ham foydalaniladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *xatib* so‘zi quyidagicha izohlangan: *Xatib* – (*arab.notiq, voiz, va’zon; unashadirilgan, kuyov*) *masjidda juma va hayit nomozi paytida xutba o‘qiydigan, va’z aytadigan domla, imom; voiz* (O‘TIL 4-jild, B.389).

1.2. Motam marosimlari terminlari. Motam marosimiga oid so‘zlar asarning turli o‘rinlarida keladi. Xususan, Majnunning ota-onasi vafoti, Majnunning ular qabri boshida fig‘on chekishi, Layli va Majnunning o‘limi va ularning dafn marosimlari keltirilgan o‘rnlarda bunday so‘zlar faol qo‘llanilgan: *ajal, azo tutmoq, azo, azoliq, azosin tuttilar, go‘r ahli, go‘r, go‘riston, dafn ishi, zoyil o‘ldi* (yo‘qolmoq, yo‘q bo‘lmoq, uchmoq, so‘nmoq; NAIL 1-jild, B.643), *kafan, ko‘mmoq, qabr, libosi motam, madfan* (go‘r, qabr; 2. qabriston; NAIL 2-jild, B.197), *mazor, mayyit, marg* (o‘lim, fano, ajal; NAIL 2-jild, B.233), *motam, motam ahli, motamzada, motamzadaliq, na’sh* (tobut; jasad; NAIL 2-jild, B.444), *ta’ziyat, so‘g* (musibat, qayg‘u, aza, motam; NAIL 3-jild, B.137), *tobut, o‘ldi, o‘luk, o‘lum* va boshqalar. Quyidagi baytda Navoiy motam marosimiga oid *mayyit* leksemasi yordamida badiiy o‘xshatish hosil qilmoqda:

Goh o‘zida, goh yo‘q o‘zida,

Mayyit kibi nur yo‘q ko‘zida (“Layli va Majnun”, 2020:259).

Navbatdagi baytda takrorlardan qochgan Navoiy *jonsiz* va *o‘luk* birliklaridan foydalanadi:

Bir na’shma soldilar ikovni,

Jonsiz kelin-u, **o‘luk** kuyovni (“Layli va Majnun”, 2020:273).

Keyingi baytda motam marosimlarida qo‘llaniladigan *tobut, madfan* (go‘r, qabr; 2. qabriston; NAIL 2-jild, B.197) birliklari qo‘llanilgan bo‘lib, mazkur birliklardan *tobut* hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham mavjud bo‘lsa, *madfan* so‘zi iste’moldan chiqib ketgan. Bu so‘z ma’nosida *qabr, qabriston* birliklari qo‘llaniladi:

Tobut ila ikki dilraboni,

Madfan ichiga kirib nihoni (“Layli va Majnun”, 2020:274).

Bugungi kunda o‘zbek tilida qo‘llaniladigan *go‘riston* birligi o‘rganilayotgan doston matnida ham mavjud:

Dard ustiga dardi chun uzoldi,

Ul **go‘riston** ichida qoldi (“Layli va Majnun”, 2020:253).

Navoiy dard-alam, anduh ma’nolarini kuchaytirib tasvirlash uchun *azoliq* so‘zidan foydalanadi:

Majnun g‘amidin bori **azoliq**,

Layli **o‘lumi** uchun qaroliq (“Layli va Majnun”, 2020:288).

Siyosat va davlat boshqaruviga oid terminlar. Doston matnida siyosat va davlat boshqaruviga oid 43 ta termin aniqlandi: *amir, baxshi* (kotib, mirzo; NAIL 1-jild, B.231), *dabir* (kotib, sarkotib, yozuvchi; NAIL 1-jild, B.435), *kengosh, livo* (bayroq, tug‘; NAIL 2-jild, B.173), *majolis* (majlislar, yig‘inlar; NAIL 2-jild, B.202), *muhr, payk* (xabarchi, jarchi, elchi; NAIL 2-jild, B.553), *podshoh, saroy, siyosat etmoq, taxt, toj, farmon, qul* va boshqalar.

Dostonda mamlakat hukmdori ma’nosida *podshoh, shoh, amir* so‘zlari qo‘llanilgan. Quyidagi baytda davlat boshqaruviga doir *amir* so‘zi o‘xshatishli qurilma tarkibida kelgan va badiiyat uchun xizmat qilgan:

Hukmin surubon **amirlardek**,

Laylini chekib asirlardek (“Layli va Majnun”, 2020:157).

Kengash so‘zi alohida olinganda yig‘ilish, majlis, yig‘in ma’nolarini bildiradi. Quyidagi baytda esa “maslahat qilish” ma’nosida kelganligini ko‘rish mumkin:

Chorlatti ravon uruq-qayoshin,

Soldi orag‘a ul ish **kengoshin** (“Layli va Majnun”, 2020:157).

III. Harbiy terminlar. Doston matnida jami 58 ta harbiy termin qo‘llanilgan. Ma’lumki, harbiy terminlar, asosan, jang sahnalarida, urush manzaralarini tasvirlashda faol qo‘llaniladi. Biroq, Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida harbiy terminlar urush manzarasini tasvirlashdan tashqari, qahramonlar

holati va ruhiy kechinmalarini ifodalashda, tabiat tasvirida ham keng foydalilanilgan. Harbiy terminlardan eng ko‘p qo‘llanilgani (22 ta) qurol-asлаha nomlaridir: *yoy*, *zanjir*, *qilich*, *band*, *yo* (yoy, kamon; NAIL 1-jild, B.529), *dashnai* (xanjar, uchi o‘tkir pichoq; NAIL 1-jild, B.471), *katora* (o‘tkir qilich, xanjar. NAIL 2-jild, B.101), *novak*, *paykon*, *tig'*, *tiyr* (o‘q, kamon o‘qi; NAIL 3-jild, B.225), *toziyona* (qamchi; NAIL 3-jild, B.240), o‘q, *xanjar*, *harba* (nayza NAIL 4-jild, B.161), *yaroq* (qurol-asлаha; NAIL 3-jild, B.596), *qolqon*, *shashpar* (oltin qirrali gurzi; NAIL 3-jild, B.511), *salosil* (zanjirlar, bandlar, kishanlar; NAIL 3-jild, B.32), *kamand* (halqa, sirtmoq, band, tuzoq, arqon; NAIL 2-jild, B.93), *zirih//zirh* (sovut, temir ko‘ylak, urush kiyimi; NAIL 1-jild, B.640), *javshan* (sovut, sirihga o‘xhash urush kiyimi, NAIL 1-jild, B.554).

Dostonda harbiy sohaga oid leksika ayrim o‘rinlarda o‘z ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lsa, ba’zi o‘rinlarda ko‘chma ma’noda qo‘llanilganligini kuzatish mumkin. Masalan, dostondan olingan quyidagi misolda *qilich* harbiy sohaga oid so‘z o‘z ma’nosida qo‘llanilgan:

Bahrom ko‘rub biyik janobin,

Tashlab *qilichin*, o‘pub rikobin (“Layli va Majnun”, 2020:23).

Navbatdagи baytda ham qurol-asлаha nomlaridan biri *tig'* o‘z ma’nosida qo‘llanilgan:

Tig'i gar etib fano jahonni,

Xulqi tuzotib yana jahonni (“Layli va Majnun”, 2020:39).

Keyingi bayda esa qurol nomi *xanjar* g‘am so‘zi bilan yonma-yon kelib, ko‘chma ma’no ifodalagan:

G‘am xanjari ila yora ko‘ngli,

Ne yoraki, pora-pora ko‘ngli (“Layli va Majnun”, 2020:110).

Shuningdek, dostonda harbiy sohaga oid quyidagi terminlar ham qo‘llanilgan: *adu// aduv* (dushman, yov, raqib; NAIL 1-jild, B.44), *asir*, *a’do* (dushmanlar; NAIL 1-jild, B.159), *band aylamoq*, *band etmoq*, *zindon*, *qayd* (mahbus qilish, hibsga olish; NAIL 4-jild, B.21), *qatl*, *qatl etmoq*, *masof* (jang maydoni; janggoh; NAIL 2-jild, B.247), *saf*, *saf chekmoq*, *pobast* (asir, tutqun;

NAIL 2-jild, B.576), *razm* (urush, jang; NAIL 2-jild, B.599), *razm tuzmoq*, *silohsho'r* (qurol ushslashga mohir, botir jangchi; NAIL 3-jild, B.79), *sipah*, *sipahbad* (askar boshlig'i, lashkarboshi; NAIL 3-jild, B.83), *sipoh chekti*, *sipohi* (harbiy xizmatchi, amaldor; NAIL 3-jild, B.86), *yasar* (chap, chap qanot, qo'shining chap qanoti; NAIL 3-jild, B.597), *yasol* (saf, qator, jangovar tartib; NAIL 3-jild, B.597) va boshqalar.

Harbiy sohada qo'llanadigan *saf tortmoq* so'zi dostonda *saf chekmoq* shaklida uchraydi:

Yo'q sonki, to'rt **saf chekib** zang,

Majmui libosi surmai rang ("Layli va Majnun", 2020:63).

Harbiy xizmatchi, askar ma'nolaridagi *sipah* so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydi. Faqat tarixiy asarlar matnida qo'llanilish holatlari uchraydi. "Layli va Majnun" dostonidagi quyidagi baytda *sipah* so'zi kipriklarga nisbatan o'xshatish ma'nosida qo'llangan:

Ochquncha yumub ko'z ul **sipah** tez,

Bir-biriga tegib qilurg'a xunrez ("Layli va Majnun", 2020:63).

Lashkarboshi, sipahlar boshlig'i ma'nosida *sipah* so'zidan yasalgan *sipahbad* so'zi qo'llanilgan:

Majnun bila ul **sipahbadi** chust,

Yuz mehr bila quchushtilar rust ("Layli va Majnun", 2020:208).

Shuningdek, *dushman* ma'nosida *aduv*, *qo'shin* ma'nosida *yasoli* terminlari qo'llanilgan bo'lib, bu terminlarning ikkisi ham hozirda iste'molda mavjud emas:

O'tru chiqibon **aduv**'a holi,

Qo'shish bilan tuzdilar **yasoli** ("Layli va Majnun", 2020:153).

IV. Ijtimoiy terminlar. Doston matnida qo'llanilgan ijtimoiy sohaga oid leksemalarning 5 tasi aniqlandi: *yetim*, *qaroqchi*, *soyil* (tilanchi, gadoy; NAIL 3-jild, B.99), *tilanchi*, *o'g'ri*.

Quyidagi baytda Navoiy tog' manzarasi tasvirida *soyil* so'zi yordamida go'zal badiiy tasvir yaratgan:

Tog'lar tutub nechukki **soyil**,

Ochib etagin tilarga moyil (“Layli va Majnun”, 2020:10).

Soyil so‘zi hozirgi kunda o‘zbek adabiy tilida mavjud emas, bu so‘z ifodalagan ma’no *tilanchi*, *gadoy* so‘zlariga yuklatilgan. *Tilanchi* so‘zining doston leksikasida ham mavjudligini kuzatamiz:

Tun dargahingga **tilanchi** zangi,

Egnida terisidur palangi (“Layli va Majnun”, 2020:9).

Navbatdagi baytda Navoiy Majnun holatini qaroqchi talon-taroj qilgan kishidek tasvirlaydi:

Topib ani bir qum ichra nolon,

Qilg‘on kishidek **qaroqchi** tolon (“Layli va Majnun”, 2020:109).

Navbatdagi misollarda ham ijtimoiy sohaga oid so‘zlar qo‘llanilgan:

Kim, bo‘ldi bu bekas-u faqiring,

Hajr ichra **yetiming**-u asiring (“Layli va Majnun”, 2020:252);

Andoq bori el ayolin asra,

O‘g‘ridin amonda molin asra (“Layli va Majnun”, 2020:286).

V. **Diniy va tasavvufiy terminlar** jami **99 ta** bo‘lib, ularni shartli ravishda *diniy* hamda *tasavvufiy* terminlarga ajratdik:

5.1. **Diniy terminlarning 86 tasini** aniqladik: *Allah*, *banda*, *bismil qilmoq*, *bihisht* (Jannat; NAIL 1-jild; B.301), *g‘ayb*, *gunoh*, *islom*, *ilohiy*, *din*, *duo*, *zikr*, *do‘zax*, *do‘zax o‘ti*, *jannat*, *jannat guli*, *Ka‘ba*, *zoyiri Ka‘ba*, *kofir*, *qazo*, *qibla*, *qiblagah*, *qiyomat*, *makka*, *malak*, *masjid*, *mehrob*, *me‘roj*, *mujtahid* (jiddu jahd qiluvchi, sa’y g‘ayrat ko‘rsatuvchi, din allomasi; NAIL 2-jild, B.339), *namoz*, *omin*, *oxirat*, *Rab*, *ravza*, *Rasul*, *sajda qilmoq*, *Tengri*, *Xudo*, *haq*, *shar’* (shariat, islom dini qonun-qoidalari; NAIL 3-jild, B.506), *hadis* va boshqalar.

Navoiy dostonda hayratini ifodalashda “Allah, Allah!” birligidan foydalanganini kuzatamiz:

Bog‘ing iki vardi mehr ila mah,

Ne bog‘-u ne vard, **Allah, Allah!** (“Layli va Majnun”, 2020:10);

Quyidagi misollarda ham diniy sohaga oid so‘zlar turli maqsatlarda ishlatilgan:

Xilqat aro nurdin sirishti,
Ne nur, **farishtai bihishti** (“Layli va Majnun”, 2020:57);
Uzdin ikisini ayla xushnud Kim,
Dunya-yu **oxirat**dadur sud (“Layli va Majnun”, 2020:285);
Manzilg‘a yuz urdi gom-bargom.
Yuz qo‘pdiyu **sajda qildi** har gom (“Layli va Majnun”, 2020:172).

5.2. Tasavvufiy terminlar 13 ta: *jazb aylamoq* (tortish, berilish, jalb etish; tariqat ahlining o‘zidan ketish holati; NAIL 1-jild, B.557), *jod(d)a* (yo‘l-yo‘riq), *pir* (1.ustoz, boshlig‘; 2.Tasavvuf tariqatining boshlig‘i; NAIL 2-jild, B.574), *so‘fi* (1. taqvodor, tasavvuf tariqiga kirgan; NAIL 3-jild, B.142), *uzlat* (chekinish, yakkalikni ixtiyor qilish; NAIL 3-jild, B.277), *xonaqah* (so‘fiylarning yig‘iladigan joyi, shayx va darveshlarning zikr o‘tkazadigan joyi; NAIL 3-jild, B.413), *adam* (yo‘qlik; NAIL 1-jild, B.36). Quyida tasavvuf olamida qo‘llanilgan so‘zlar qatnashgan baytlarga misollar keltiramiz:

Bu qand ediyu ul zulol monand,
Jazb ayladi ul zulolni qand (“Layli va Majnun”, 2020:231);
Er nat’ida o‘lturub murabba’,
So‘fi kibi egnida muraqqa’ (“Layli va Majnun”, 2020:134);
Ma’ni diramig‘a sikkapardoz,
Uzlat haramida mahrami roz (“Layli va Majnun”, 2020:29);
Istatti qaboyil ichra **piri**,
Ta’lim berurga benaziri (“Layli va Majnun”, 2020:60).

VI. Xalq, millat va elat nomini ifodalovchi terminlar 4 ta: Bani Asad, turk, yaman, arab;

Ul elgaki dasht soridur mayl,
Turk-u arab-u buluj-u har xayl (“Layli va Majnun”, 2020:42);
Ham xayli Bani Asadg‘a voli,
Yuz xayli **Bani Asadcha** moli (“Layli va Majnun”, 2020:121);
Har lahza ayon bo‘lub **Yamandin**,
Tashlar edi otashin kamandin (“Layli va Majnun”, 2020:48);

Har kim tiliga bu erdi mazkur,

To barcha **Arabda** bo‘ldi mashhur (“Layli va Majnun”, 2020:105).

VII. Ma’dan va qimmatbaho tosh nomlaridan doston matnida 17 ta uchratdik:
Billur, gavhar//guhar, dur, yoqut, javohir, javhar, zumurrad, inju, ko ‘mur, kumush, la’l, lojuvard, mum, oltun, po ‘lod, sadaf, temur. Bu sohaga oid leksik birliklarning matnda ko‘chma ma’noda qo‘llanilganini ko‘p kuzatamiz.
Masalan:

Ey jon aro solib ozari ishq,

Ko‘ngul **sadafida gavhari** ishq (“Layli va Majnun”, 2020:136);

Qilmoq bila lola bargidin qut,

Erning topibon **dur uzra yoqut** (“Layli va Majnun”, 2020:240).

Shuningdek, quyidagi baytlarda ham bu sohaga oid leksik birliklar qo‘llanilgan:

Oldim bu **javohiri** samindin,

Sofiy **dur-u la’li** otashindin (“Layli va Majnun”, 2020:37);

Ul oyinakim Skandar etti,

Po‘loddin o‘yla paykar etti (“Layli va Majnun”, 2020:276).

VIII. Ilm-fanga doir terminlar:

7.1.Tibbiyatga doir terminlar: Dostonda jami 45 ta tibbiyatga aloqador termin qo‘llangan: *Bemor, davo, yora, za’f* (quvvatsizlik, holsizlik, hastalik, kasallik; NAIL 1-jild, B.627), *isitma, qabz topmoq* (qorin dam bo‘lmoq; NAIL 4-jild, B.11), *marham, parhez, sudo* (bosh og‘rig‘i, xumor; NAIL 3-jild, B.119), *tabib, tashxis, titratma* (bezgak kasali; NAIL 3-jild, B.233), *uchug‘, xafaqon* (yurak kasali; NAIL 3-jild, B.388), *yaraqon* (sariq kasalligi; NAIL 3-jild, B.595), *qon, harorat, hakim, to‘tiyo* (to‘tiyo, ko‘z dori; NAIL 3-jild, B.271) *tarki hush qilmoq* (behush bo‘lmoq, hushsiz bo‘lib yiqilmoq; NAIL 3-jild, B.190) va boshqalar. Ota-onasi Majnunning dardiga davo bo‘lsin deb, Ka’ba ziyoratiga olib borgani asnosida Majnun ishqining yana-da ziyoda bo‘lishini Yaratgandan so‘rab iltijo qilgani o‘rnida Majnun tilidan quyidagicha bayt keltiriladi:

Dardimg‘a xayolini **tabib** et!

Jonimg‘a visolini nasib et! (“Layli va Majnun”, 2020:138);

Shuningdek, Navoiy *ko‘ksim yarasi, bag‘rim qoni* kabi o‘xshatishli birikmalar yordamida asardagi ishq o‘tining kuchini oshiradi:

Ko‘ksum **yarasini** so‘kma muncha,

Bag‘rimni **qonini** to‘kma muncha (“Layli va Majnun”, 2020:199);

Shuningdek, tibbiyat sohasiga oid so‘zlarning o‘z ma’nosida qo‘llanilgan o‘rinlar ham mavjud:

Bemorg‘a mushkil erdi **parhez**,

Andoqki ko‘zi qilurda xunrez (“Layli va Majnun”, 2020:67);

Kam bo‘lsa mijozig‘a **harorat**,

Titratma qilur edi sharorat (“Layli va Majnun”, 2020:67).

Yoxud **yaraqon** o‘tin qilib tez,

Sorig‘ yuziga bo‘lur araqrez (“Layli va Majnun”, 2020:73);

Ta’bi **xafaqondin** erdi ma’lul,

Ko‘p bo‘lsa edi qadahqa mashg‘ul (“Layli va Majnun”, 2020:228).

7.2.Anatomiyaga doir terminlar 38 ta. Ayoq, *bosh, bo‘g‘un, bosh kosalari, burun, jigar, jild* (teri, charm; NAIL 1-jild, B.577), *ko‘z, og‘iz, rag* (tomir, pay, qon tomiri; NAIL 2-jild, B.597), *til, tirnog‘, yurak, qulog‘, qo‘l, ern* (lab; NAIL 3-jild, B.567), *tish, rishta* (tomir; 5. pilik; NAIL 2-jild, B.625), *ilik* (II. suyak mag‘zi, ilik; NAIL 2-jild, B.27) va boshqalar. Dostonda qo‘llanilgan anatomiyaga oid so‘zlarning ko‘pchiligi bugungi o‘zbek tilida ham mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Masalan:

Nogahki zuhur etib xilofi,

Bosh kosalari bo‘lib g‘ilofi (“Layli va Majnun”, 2020:155);

Bu ishga kulub sipehri xazro,

Kim, **tishlarin** aylab oshkoro (“Layli va Majnun”, 2020:20);

Ham suvi ravon **og‘iz-burundin**,

Ham jismi judo **bo‘g‘un-bo‘g‘undin** (“Layli va Majnun”, 2020:173);

Ko‘ngli ishi iztirob bo‘ldi,

Go‘yo **jigari** kabob bo‘ldi (“Layli va Majnun”, 2020:258);

Ko‘rdiki xalos erur **ayog‘i**,

Ikki **qo‘li**, balki **bo‘yni** dog‘i (“Layli va Majnun”, 2020:118).

7.3. Pedagogikaga doir terminlar. Ma’lumki, O‘rta Osiyo pedagogikasiga oid terminlarning tarixi uzoq o`tmishga borib taqaladi. Jumladan, xalq og‘zaki ijodi namunalarida uchraydigan yuzlab terminlarni keltirish mumkin. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida mazkur soha terminlarining anchasini uchratish mumkin. Davrlar o‘tishi bilan ular son va sifat jihatdan o‘zgarib, tushunchaning mohiyatini aniq ifodalay boshlagan. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan ta’limga oid terminlarning aksariyati hozir ham ishlatilib kelinmoqda: *maktab, ilm, dars, kitob, qalam, madrasa, ta’lim* kabilar. Dostonda ta’limga oid **18 ta** terminni uchratdik: *dars, ilm, ilmu-adab, kitob, qalam, ahli maktab, davot* (siyohdon, davot; NAIL 1-jild, B.439), *lavx, madoris, maktab, madrasa, sabaq, sabaq o‘qumoq, ta’lim, o‘qu, ustod, hamdars* (maktabdosh, hammaktab; NAIL 4.148) va boshqalar.

Kim, **maktab** aro xujasta farzand,

Bo‘lg‘ay bori ilmdin barumand (“Layli va Majnun”, 2020:60);

Taklif etti buti shakarlab,

Kim, har kishi bo‘lsa **ahli maktab** (“Layli va Majnun”, 2020:72).

So‘z **darsini** ulki berdi ta’lim,

Bu nav etti fasona taqsim (“Layli va Majnun”, 2020:61);

Boshqa sohaviy so‘zlarda uchraganidek, pedagogikada qo‘llaniladigan so‘zlarning ham ayrimlari ko‘chma ma’noda qo‘llangan:

Har bobida yozilib hisobi,

G‘am **darsida** bir balo **kitobi** (“Layli va Majnun”, 2020:127);

Astronomiyaga oid terminlar. Ma’lumki, doston bir necha an’anaviy boblar bilan boshlanadi. Sharq mumtoz adabiyoti o‘zining aniq an’anasiga ega bo‘lib, unga binoan doston hamd, munojot, na’t kabi maxsus boblar bilan boshlanadi. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonining I bobi ham xuddi shu an’anaga asoslangan holda, Xudo madhi, ya’ni hamdga

bag‘ishlangandir. Unda shoir davrning buyuk so‘z ustasi va faylasuf olimi sifatida olamning yaratilishi, tun, kun, oy, quyosh, yulduzlarning, yil fasllari va ulardagi tabiatning o‘ziga xos jilolari, insonning tabiat ichida yaratilishi, yo‘qdan bor, bordan yo‘q bo‘lishi va boshqa juda ko‘plab misollar orqali Xudoning beqiyos quadratining ifodasi ekanini ta‘kidlab, Unga hamd-u sanolar aytadi. Mazkur bobda Navoiyning ilmi nujum, ya’ni astronomiyaga oid bilimlarni chuqr o‘zlashtirganiga guvoh bo‘lamiz. Shuningdek, dostonning keyingi boblarida ham bir necha o‘rinlarda astronomik terminlarni uchratamiz. Shunday qilib, “:Layli va Majnun” dostonida **53 ta** astronomiyaga oid termin qo‘llanilgan: *Anjum* (yulduzlar; NAIL 1-jild, B.98), *Asad* (sher, arslon; 2. Shamsiya yilining beshinchi oyi, quyosh burjlaridan beshinchi burj; NAIL 1-jild, B.120), *Axtar* (yulduz; NAIL 1-jild, B.148), *Birjis* (Mushtariy (Yupiter); NAIL 1-jild; B.296), *Burj*, *Javzo* (astr.12 burjdan birining nomi; NAIL 1-jild, B.550), *Kavkab* (yulduz, sayyora; NAIL 2-jild, B.87), *Kayvon* (Zuhal (Saturn) planetasi; NAIL 2-jild, B.91), *kasofat etti* (Hiralik, tutilish (quyosh); NAIL 2-jild, B.100), *Koinot*, *Mehr* (Quyosh; NAIL 2-jild, B.301), *moh* (oy(planeta) NAIL 2-jild, B. 320), *Nohid* (yorug‘ yulduz, Zuhra yulduzi; NAIL 2-jild, B.487), *Nujum ilmi*, *Savobit* (planetalar, yulduzlar; NAIL 3-jild, B.19), *Savr* (ho‘kiz, 12 burjning 2-si, hamal, aprel oyiga tog‘ri keladi; 3-jild, B.21), *Tiyr* (Atorud, Merkuriy sayyorasi; NAIL 3-jild, B.225), *Xurshed*, *Quyosh* va boshqalar.

Jaybi aro tugma **Tiyr-u Nohid**,

Egnida tirozi **Oy-u Xurshid**. (“Layli va Majnun”, 2020:7);

Zuhra yo‘lida tuzub navo zer,

Mutriblardek bo‘lub miyongir. (“Layli va Majnun”, 2020:22);

Chun **ko‘kni** xusufzod qilding,

Oyning kumushin savod qilding (“Layli va Majnun”, 2020:7);

Javzo ko‘zi to‘rt o‘lub boqardin,

Topib **Saraton** ham ul nazardin. (“Layli va Majnun”, 2020:23).

7.4.Musiqaga oid terminlar. Dostonda musiqa san’ati bilan bog‘liq ko‘plab terminlarga duch kelamiz. Ular dostonning turli o‘rinlarida: osmon

jismlarining holatini bayon qilishda, tabiat hodisalarini qiyoslab tasvirlashda, bazm jarayonlarini yoritishda foydalaniladi. Masalan, dostonning 4-bobi – Me’roj tuni ta’rifidagi bobda Navoiy bu tunning mo‘jizaviyligini, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ni Buroq otiga minib, ko‘kka ko‘tarilishini go‘zal o‘xshatishlar bilan tasvirlar ekan, osmon jismlari – sayyoralar, yulduzlar va burlarning joylashish o‘rni, holatini juda o‘rinli, nozik tashbehtar bilan ifodalaydi. Ijodkor holatni tasvirlashda musiqiy terminlardan ham unumli foydalanadi. Shuningdek, 6-bobda Navoiyning ustozи Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhida ustozи haqida so‘zlar ekan, musiqiy termindan foydalanadi:

Cholib falak uzra **ko‘si rif’at**,

Aytib malak ichra darsi himmat (“Layli va Majnun”, 2020:34).

Bu baytdagi *ko‘s* – katta nog‘ora (NAIL 2-jild, B.156) bo‘lib, bayt quyidagicha tabdil qilingan: U falaklar avjida yuksaklik nog‘orasini chalib, farishtalarga himmatdan dars beradi (“Layli va Majnun”(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:23).

Dostonning 8-bobi shahzoda Badiuzzamon ta’rifida bo‘lib, shoir shahzodaning saxovati, adolatini go‘zal tashbehtar bilan tasvirlaydi. Shahzoda ishtirokidagi bazmlarni ta’riflar ekan, Navoiy yana musiqiy terminlarga murojaat qiladi:

Xunyogar-u nag‘masoz Nohid,

Lekin **daf** aning qo‘lida xurshed (“Layli va Majnun”, 2020:45).

Shahzoda bazmida sozanda-yu xonandalar Nohid sayyorasi bo‘lib, uning qo‘lidagi doira quyoshdir (“Layli va Majnun”(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:30).

Demak, dostonda **12 ta** musiqaga oid termini uchratdik: *daf* (childirma, doira; 1-jild, B.468), *ko‘s* (katta nog‘ora; NAIL 2-jild, B.156), *mutrib* (mutrib, cholg‘uchi; NAIL 2-jild, B.387), *navo*, *navo tuzmoq* (kuylamoq; NAIL 2-jild, B.418), *nag‘masoz* (cholg‘uchi, kuylovchi, xonanda; NAIL 2-jild, B.450), *ohang*, *surud* (qo‘shiq, ashula NAIL 3-jild, B.130), *tarona*, *ud* (cholg‘u asbobi; NAIL 3-

jild, B.275), *xunyogar* (nola qiluvchi, nolagar, sozanda, xonanda; NAIL 3-jild, B.431), *chang* (chang, cholg‘u asbobi; NAIL 3-jild, B.450).

Necha g‘am aro **tuzub tarona**,

Bu shomdin aytmoq fasona (“Layli va Majnun”, 2020:19).

Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati 3-jildida *tarona* – *ashula*, *kuy*, *ohang* deyilgan. *Tarona tuzmoq* birikmasi esa *kuy*, *ohang sozlamoq*; *kuylamoq*, *qo’shiq sozlamoq* ma’noslarini bildiradi (NAIL 3-jild, B.191). Hozirgi o‘zbek tilining izohli lug‘atida *tarona* so‘zining quyidagi ikki ma’nosi berilgan:

1. Kuy, ohang.
2. Shashmaqomda musiqa asarining bir qismi (O‘TIL 3-jild, B.685).

Hozirda tilimizda *tarona tuzmoq* shakli o‘rniga, *tarona qilmoq*, yoki *tarona etmoq* shakllari qo‘llaniladi. Yuqoridagi baytning ma’nosi: G‘amgin taronalar bilan bu shomning qayg‘ularini qancha hikoya qilish mumkin (“Layli va Majnun” (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:12).

5-bob *so‘z ta’rifi* bobida Navoiy so‘zning qimmati, uni hech qanday dur-u javohirlar bilan tenglashtirib bo‘lmasligini, so‘z bir dengiz bo‘lib, uning tubida cheksiz ma’no olami yashirinib yotganini ta’riflash asnosida **tarona** terminidan yana bir bor foydalanadi:

Aytibsovumas **tarona** sensen,

Olibqurumas xizona sensen (“Layli va Majnun”, 2020:28).

Baytning ma’nosi: Aytib, eshitib sovimas qo‘sinq o‘zingsan. Qancha sarflama bo‘shamaydigan xazinasan (“Layli va Majnun” (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:19).

Navoiy 4-bobda, osmon jismlarining holatini bayon qilar ekan, Zuhra yulduzini quyidagicha tasvirlaydi:

Zuhra yo‘lida tuzub **navo zer**,

Mutriblardek bo‘lub miyongir (“Layli va Majnun”, 2020:22).

Navo so‘zi Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati 2-jildida 1. *Nag‘ma ohang* (NAIL 2-jild, B.418) deb ta’riflangan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *navo* (fors. *kuy*, *ohang*; *qo’shiq*) so‘zining ma’nosi “*kuy*, *ohang*; *xonish*” deb berilgan

(O‘TIL 3-jild, B.7). *Zer so‘zi esa musiqada eng ingichka ovoz, nozik tovush* (NAIL 2-jild, B.632) ni ifodalaydi. *Mutrib* so‘zi *cholg‘uchi* (NAIL 3-jild, B.387) ma’nosini bersa, *miyongir qatnashuvchi, ishtirok etuvchi* (NAIL 3-jild, B.303) ni ifodalaydi. Baytning ma’nosи: Zuhra esa uning yo‘lida pastki pardada soz chalib, sozandalardek musiqiy kecha tashkil qildi (“Layli va Majnun” (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:15).

7.5. Zoologiyada oid terminlar. Ma’lumki, turkiy xalqlar azaldan chorvachilik bilan shug‘ullanib kelishgan. Ming yillar davomida chorvachilik va ovchilikning rivojlanishi shu sohalarga doir terminologiyaning rivojlanishiga ham turtki bo‘lgan. Navoiy “Layli va Majnun”da tabiat manzaralari tasvirida, insoniy kechinmalarni badiiy ifodalashda **89 ta zoologiyaga oid termindan foydalanganligini kuzatdik.** Biz dostonda nomi kelgan zoonimlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratdik:

- **Bo‘g‘imoyoqlilar;**
- **Baliqlar;**
- **Sudralib yuruvchilar;**
- **Qushlar;**
- **Sut emizuvchilar va mushuksimonlar;**

Bo‘g‘imoyoqlilar jabra bilan nafas oluvchilar bo‘lib, qisqichbaqasimonlar, o‘rgimchaksimonlar, ko‘poyoqlilar va hasharotlar kiradi¹⁰⁰. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida **bo‘g‘imoyoqlilar** sinfiga kiruvchi quyidagi zoonimlarni uchratamiz: *gazanda, parvona, mo‘r, ko‘palak, pashsha, chibin, o‘rgamchi, aqrab;*

Osuda charanda-vu parranda,

Uyquda **gazanda**-vu daranda (“Layli va Majnun”, 2020:218);

Rangin **ko‘palak** erur dilafro‘z,

Parvona kibi emas jigарso‘z (“Layli va Majnun”, 2020:263);

O‘rgamchi shaboqqa parda solib,

¹⁰⁰Dadayev S., Mavlonov O. Zoologiya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008. – B.60.

Ul parda ichinda soya olib (“Layli va Majnun”, 2020:158);

Sher uzra qilichi barq choqib,

Mo‘r o‘lsa shikasta yoshi oqib (“Layli va Majnun”, 2020:31).

Dostonda **baliqlar** turkumiga kiruvchi jonzotlarning umumiyligi nomi bo‘lgan *baliq* termini *bolig‘* shaklida uchraydi. Demak, baliq so‘zi eski o‘zbek tilidan hozirgacha bir oz fonetik o‘zgarish bilan saqlangan:

Yerni tengiz etti ashkidin sayl,

Bolig‘din o‘lub quburi bir xayl (“Layli va Majnun”, 2020:234).

“Layli va Majnun” dostonida **sudralib yuruvchi** hayvonlardan quyidagilarni uchratdik: *yilon*, *ajdar* (bahaybat, katta afsonaviy ilon; NAIL 1-jild, B.51), *ajdahoyi*, *af‘i//af‘o* (ilon, zaharli ilon; NAIL 1-jild, B.144-145);

Ko‘rguzmak ishi **yilon** kabi pech,

Yo‘q zahrdin o‘zga ko‘nglida hech (“Layli va Majnun”, 2020:275).

Shuningdek, dostonda 25 ta **qush** nomlari va ular bilan bog‘liq terminlar uchraydi: *bulbul*, *bum* (*boyqush*), *burgut*, *jo‘ja*, *zog‘* (*qarg‘a*), *kabutar*, *tazarv*, *tovus*, *to‘ti*, *o‘rdak*, *cho‘g‘z* (*boyo‘g‘li*), *turno*, *soqizg‘on* (zag‘izg‘on, hakka; NAIL 3-jild, B.109), *qush*, *hamoma* (kaptar NAIL 4-jild, B.153), *uchmoq*, *tumshug‘* (qush tumshug‘i; NAIL 3-jild, B.255) kabi.

Yod etsa **tazarv**dekk xiromim,

Bo‘lurmu ekin asiri domim (“Layli va Majnun”, 2020:120);

Lutf ichra **kabutari** paridek,

Yo‘q-yo‘qliki, haram **kabutaridek** (“Layli va Majnun”, 2020:291)

Qoplig‘ jasadida bir suruk **zog‘**,

Bir lolada o‘ylakim necha dog‘ (“Layli va Majnun”, 2020:174);

Anqoni kishi qachon qilur yod,

Ul lahzaki **bulbul** etsa faryod? (“Layli va Majnun”, 2020:293).

Sutemizuvchilar va **mushuksimonlar** sinfiga kiruvchi quyidagi hayvon nomlarini Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonida uchratamiz: *babr* (*cho‘l arsloni*), *bo‘ri*, *jayran*, *jamoza*, *teva* (*tuya*), *it*, *kiyik*, *kish*, *qoplon*, *qo‘bqa*, *ot*, *qo‘y*,

qo‘zi, qulon, qo‘chqor, nahjir (kiyik), g‘izol, noqa (urg‘ochi tuya), os, ohu, palang, pil, raxsh, savr, sher, xuffosh (ko‘rshapalak), ashhab va boshqalar.

Ot qay sarikim borur dam urmay,

Tursa dag‘i yo‘l yururga surmay (“Layli va Majnun”, 2020:153);

Yuzumdurur **ashhabing** tuvog‘i,

Boshimdurur markabing ayog‘i (“Layli va Majnun”, 2020:148);

Ot-u tevasi hisob ila jup,

Qo‘y-u qo‘zisi hisobdin ko‘p (“Layli va Majnun”, 2020:56).

Chun etti uzrining tamomin,

Tez urdi **jamoza** sori gomin (“Layli va Majnun”, 2020:206);

Kim, “Menkim ishim erur shubonliq,

Qo‘y birla **qo‘zig‘a** mehribonliq” (“Layli va Majnun”, 2020:212).

Shuningdek, uy hayvonlaridan itni asar matnida uchratish mumkin:

Bo‘lmog‘lig‘ **iting** erur murodim,

Yo‘q **itcha** o‘zumga e’timodim (“Layli va Majnun”, 2020:192).

Yovvoyi hayvonlardan *qulon – yovvoyi eshakni* bildiradi:

Yodig‘a chu kirdi vahshiyi dasht,

Qilmoq kuniku **qulon** bila gasht (“Layli va Majnun”, 2020:167).

Qanotli sutemizuvchi hayvonlar turkumiga kiruvchi *ko‘rshapalak* dostonda *xuffosh* termini bilan ifodalangan:

Xuffoshki sayri davr topib,

Olamga qanoti parda yopib (“Layli va Majnun”, 2020:218).

Yovvoyi sutemizuvchilardan yana biri *maymun* dostonda *nasnos* termini bilan ifodalananadi va u asarda faqat bir o‘rinda qo‘llanilgan:

Dad har sori ketsa o‘lmas,

Nasnosni odam etmak o‘lmas (“Layli va Majnun”, 2020:192).

7.6. O‘simpliklar olamiga oid (botanik) terminlardan dostonda 57 tasi qo‘llanilgan bo‘lib, ularni quyidagicha guruhlashtirdik:

- **Daraxt nomlari bilan bog‘liq terminlar:** *ayman, bed, bodom, noranj, obnus, sapidor, sary, sidra, so‘kso‘k, chinor, shamshod;*

- Ul o‘tki **chinor** ichiga tushti,
 Gardung‘a sharorasi yovushti (“Layli va Majnun”, 2020:260);
 Dol o‘ldi sinoni shed yanglig‘,
 Hayat bila bargi **bed** yanglig‘ (“Layli va Majnun”, 2020:154);
- **O‘t o‘simplik nomlari bilan bog‘liq terminlar:** *arpa, bang, bug‘doy, vusma, giyoh, qamish, sipand, shaboq, sebarga;*
- Bug‘doy** bila **arpa** bersa soyil,
 Bo‘lmay agar unju bo‘lsa moyil (“Layli va Majnun”, 2020:41);
Vusmadin etay qoshingni ranggin,
 Ko‘z tuki qilichig‘a yashil qin (“Layli va Majnun”, 2020:268);
- **Gul nomlari bilan bog‘liq terminlar:** *binafsha, vard, yosumin, zanbaq, ishqpechon, lola, nasrin, nilufar, suman, sunbul, xashxosh gul, rayhon, savsan;*
- Jismiki bor erdi **yosimin** gul,
 Hummo qilur erdi otashin gul! (“Layli va Majnun”, 2020:67);
Nargis shabnamdin ashk etib fosh,
 Ahvolig‘a yummayin to‘kub yosh (“Layli va Majnun”, 2020:82).
- **Daraxt va o‘simpliklarning ko‘rinishi, shaklini ifodalovchi terminlar:** *ashjor, gul, nahl, nihol, sabza, tuxmiyona;*
- Ne **naxlima mevadin** nishoni,
 Ne **bargima** ofati xazoni (“Layli va Majnun”, 2020:128);
 Gar bersa tabib **tuxmiyona**,
 Bil zahri giyah butarga dona (“Layli va Majnun”, 2020:244);
- **Daraxt va o‘simpliklarning qismlarini ifodalovchi terminlar:** *barg, gulbarg, gulbun, yafrog‘, g‘uncha, meva, xo‘sha* (boshoq, bug‘doy boshi. 2. bosh, uzum boshi; NAIL 3-jild, B.447), *xashxash* (ko‘knori o‘simpligi, ko‘knori urug‘i; NAIL 3-jild, B.389);
- Gard ayladi bog‘ni shabiston,
Yafrog‘ ani qildi kavkabiston (“Layli va Majnun”, 2020:260);
 Bug‘doy bori **xo‘shadin** arilib,
 Toba naxudi kibi yorilib (“Layli va Majnun”, 2020:171).

7.7. Ekologik terminlar. Jahon tilshunosligida ekologik lingvistikaga oid tushunchalar va bu borada tadqiqotlar XIX asr oxirlarida paydo bo‘lgan. O‘zbek tilshunosligida bu borada bajarilgan tadqiqotlar sanoqli. Tilshunosligimizda ilk bor X.D.Paluanova doktorlik ishida ekologik lingvistikaga e’tibor qaratdi. Olima o‘zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillaridagi ekologik terminlarni qiyosiy o‘rgandi va tahlilga tortdi¹⁰¹. Keyinchalik, Z.A.Djurabayeva tadqiqot ishida o‘zbek tilida ekologik terminlarning leksik-semantik guruhlari, ular o‘rtasidagi paradigmatic munosabatlar va ekologik terminlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqladi¹⁰².

Ma’lumki, til qonuniyatlarini o‘rganishda tarixiy manbalar tadqiqi muhim o‘rinni egallaydi. Til lug‘at boyligining shakllanish jarayonini kuzatish uchun qadimgi manbalar tilini o‘rganish maqsadga muvofiq. Turkiy tillar taraqqiyotini belgilashda Alisher Navoiy asarlari leksikasini o‘rganish zaruriy masala bo‘lib, bizningcha, turkiy tillar taraqqiyot qonuniyatlarini Navoiy asarlarining leksik tahlilisiz mukammal belgilab bo‘lmaydi. Tilshunos olim A.Madvaliyev botanika, zoologiya, tibbiyot sohalariga oid terminlar xususida quyidagicha fikr biladiradi: “...ularning ko‘pchiligi termin emas, balki nomenlardir, ya’ni shu sohalardagi konkret predmetlar – xalq tilida keng qo‘llanadigan daraxt, buta, o‘simpliklarning, hayvon, parranda, hasharotlarning, kasalliklar dorivor moddalar, odam va hayvon a’zolarining nomlaridir. Bularning aksariyati bir tomondan, umumxalq leksikasining teng huquqli a’zosi hisoblansa, ikkinchi tomondan, tegishli terminologik tizimlarda o‘ziga xos definitsiyaga ega bo‘lgan maxsus so‘zlar sanaladi”¹⁰³. Asarda qo‘llanilgan terminlarning miqdor jihatidan katta guruhlardan biri ekologik terminlar bo‘lib, jami **53** tani tashkil etadi. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

¹⁰¹Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпок, инглиз ва рус тиллари мисолида): Филол. фанлари док... дисс. – Тошкент, 2016. – 232 б.

¹⁰²Джурабаева З.А. Ўзбек тилида экологик терминлар: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018. – 153 б.

¹⁰³Мадвалиев А. Изохли луғатда терминларнинг лексикографик талқинига доир//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009, №1. – Б.192.

Suv bilan bog‘liq ekologik terminlar – bu terminlar tiliimizda minglab topiladi. “Layli va Majnun” dostonida esa quyidagi terminlar uchraydi:

Suv havzalari nomini anglatuvchi terminlar: *bulog'*, *chashma*, *daryo*, *ko'l*;

Davron toshi emdi oni ko‘mmish,

Ul **chashma** suvin ko‘zini yummish (“Layli va Majnun”, 2020:75);

Ko‘llar yeri suvni jazb etib pok,

Suv hasratidin tanida yuz chok (“Layli va Majnun”, 2020:171).

Ekologik xavf-xatar bilan bog‘liq terminlar: *jola*, *sel*;

Yerni tengiz etti ashkidin **sel**,

Bolig‘din o‘lub quburi bir xayl (“Layli va Majnun”, 2020:249);

Yosh g‘unchag‘a istamak bo‘lub ish,

Jola tushub og‘izg‘a bo‘lur tish (“Layli va Majnun”, 2020:74).

Suvning turib qolishi, aynishi bilan bog‘liq terminlar: *balchig’*;

Tog‘ **balchig’i** uzra jola urg‘on,

Qum tufrog‘i uzra mola urg‘on (“Layli va Majnun”, 2020:189).

Yer (tuproq) bilan bog‘liq ekologik terminlar – ushbu guruhgaga kiruvchi terminlar ekologik terminlarning sezilarli qismini tashkil etadi. Navoiy “Layli va Majnun” dostonida ushbu guruhgaga kiruvchi quyidagi terminlarni qo‘llagan:

Yerning tabiiy holati bilan bog‘liq bo‘lgan terminlar: *biyobon*, *bodiya*, *vodiy*, *daman*, *dasht*, *ko‘h*, *tog‘*;

Dasht uzra birisi qoldi yolg‘uz,

Qo‘ydi birisi qabilag‘a yuz (“Layli va Majnun”, 2020:237);

Devona dag‘i yonib shitobon,

Qat’ aylab **tog‘** ila **biyobon** (“Layli va Majnun”, 2020:140).

Yerga inson tomonidan ishlov berilishi natijasida paydo bo‘lgan terminlar: *guliston*, *gulshan*, *chaman*;

Anjum guli birla bu shabiston,

Olam yuzin ayladi **guliston** (“Layli va Majnun”, 2020:82);

Gulshan sifatin degonga bir-bir,

Gul vasfin etarga qayda tadbir (“Layli va Majnun”, 2020:43).

Yer qimirlashi bilan bog‘liq va ekologik fojiaga olib kelishi mumkin bo‘lgan terminlar: *zilzila*;

Chun **zilzila** bo‘ldi ersa xora,

Bulur nafas ichra pora-pora (“Layli va Majnun”, 2020:67).

Ob-havo bilan bog‘liq ekologik terminlar – bu guruhgaga kiruvchi terminlar ham dostonda uchraydi:

Tabiat hodisalarini anglatuvchi terminlar: *abr, barq, bulut, yomg‘ur, choqin, shafaq, shudrun, qor, sel*;

Ko‘p **abri** bahordek o‘kurdi,

Kaf **sel** kibi yuziga urdi (“Layli va Majnun”, 2020:249);

Gar ashk bu o‘tni aylamas kam,

Yomg‘ur suvidin **choqing‘a** ne g‘am? (“Layli va Majnun”, 2020:279).

Esish bilan bog‘liq terminlar: *girdbod, girdob, yel, nasim, sabo, samum, sarsar, quyun*;

Qahr etsa dami **samum** yanglig‘,

Xoro iligida mum yanglig‘ (“Layli va Majnun”, 2020:61);

Bu damki esib **nasimi** navro‘z,

Gul atrini qildi majlisafro‘z (“Layli va Majnun”, 2020:78).

Havoning tabiiy ifloslanishini anglatuvchi terminlar: *gard, zang*;

Yo‘q sonki to‘rt saf chekib **zang**,

Majmui libosi surmai rang (“Layli va Majnun”, 2020:63);

Ne **gard** qo‘pub, ne el ravona,

Suv sokinu chekmay o‘t zabona (“Layli va Majnun”, 2020:233).

Dunyo tomonlarini ko‘rsatuvchi ekologik terminlar – *sharq, mag‘rib*;

Gah Tur uza lam’a ko‘rguzub barq,

Andoq yorubonkn, mehrdin **sharq** (“Layli va Majnun”, 2020:47);

Mag‘rib sari mehr aylagach ro‘y,

Surdi cho‘pon hasham sari qo‘y (“Layli va Majnun”, 2020:213).

Yil fasllarini anglatuvchi ekologik terminlar – *qish, yoz, bahor*.

Qish mehrini chun itikrok etting,

Qorning sadafin arusak etting (“Layli va Majnun”, 2020:6);

Yoz yomg‘uri etgach aylading bot,

Yer chakmanini yashil saqarlot (“Layli va Majnun”, 2020:6).

7.8. Adabiyotshunoslikka oid 25 ta terminni uchratdik. Bular: *Abyot*

(1. Baytlar; 2.she’rlar. NAIL 1-jild, B.22), *badi’ so‘z, bayt, bob, g‘azal, doston, qissa, murabba’, nazm, nasr, noma, radif, rivoyat, roviy, rukn, so‘z, fard, fasl* (1.mavsum;2. bo‘lim, bob; NAIL 3-jild, B.333), *fasona, hikoyat, qofiya va boshqalar.*

Bas **nazmda so‘z** degan meningdek,

Men xud neki, yuz tuman meningdek (“Layli va Majnun”, 2020:11);

Er nat’ida o‘lturub **murabba’**,

So‘fi kibi egnida muraqqa’ (“Layli va Majnun”, 2020:134);

Layli g‘amidin qilib tafakkur.

Yuz **baytu g‘azal** deb o‘ylakim dur (“Layli va Majnun”, 2020:141).

7.9. Kimyoga oid 6 ta termin qo‘llanilgan: *Anbar* (anbar, xushbo‘y modda. NAIL 1-jild, B.89), *kofur* (oq xushbo‘y modda (kamfara); NAIL 2-jild, B.130), *mis, zirnix* (oltingugurt; NAIL 1-jild, B.640), *mushk* (qora tusli xushbo‘y modda; NAIL 2-jild, B.394).

Berdi anga bu natija gardun,

Kim **misga** etishsa qilg‘ay oltun (“Layli va Majnun”, 2020:276);

Safratda nechaki qilsa tavbih,

Oltun bila teng bo‘lurmu **zirnix** (“Layli va Majnun”, 2020:279).

7.10. Matematikaga doir terminlar: *bir, iki, uch, yeti, sekiz, yuz, ming, tuman.*

Mazkur sonlarning asarda bir nechta o‘rinlarda kelganligini kuzatamiz. Masalan, XVII bo‘limda Majnunning firoq chog‘idagi o‘rtanishlari tasvirida shunday bayt keltiriladi:

Bu **iki-uch** uy chidorg‘a ne had,

Bal **yeti-sekiz** rafi’ gunbad (“Layli va Majnun”, 2020:117).

Mazkur baytda sonlarni juft holatda qo‘llash orqali mazmun yana-da kuchaytirilgan. Ayriliq o‘tining tobiga ko‘ngil uyining vayron bo‘lishi bayonida

ikki-uch uy nima degani, bu o‘tga yetti-sakkiz yuksak ko‘k ham bardosh berolmaydi, deya tasvirlanadi (“Layli va Majnun” (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:76). Baytda qo‘llanilgan *iki, uch, yeti, sekiz* sonlarining hammasi bugungi kunda sanoq son sifatida qo‘llaniladi. Navbatdagi misollarda bugungi kunda iste’molda bo‘lmagan *tuman* sonining doston matnida qo‘llanishini ko‘rib chiqamiz:

Degilki, havoda yuz tuman hur,

Orazlaridin sochar edi nur (“Layli va Majnun”, 2020:20).

Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atida tuman so‘zi “1. O‘n ming; 2. O‘n ming kishidan iborat qo‘shin” deb izohlangan (NAIL 3-jild, B.254). Hozirgi o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham tuman so‘zining “esk. O‘n ming” ma’nosini berilgan (O‘TIL, B.118). *Tuman* soni bugungi kunda qo‘llanishda mavjud emas. Faqat maqollarda saqlanib qolgan: Birniki mingga, mingniki *tumanga*, kabi. Yuqoridagi baytda *tuman* soni *yuz* soni bilan birlgilikda qo‘llanilib, “minglab” ma’nosini beryotganini kuzatish mumkin. Baytning ma’nosini quyidagicha: Osmonda go‘yo ming-minglab hurlar yuzlaridan nur sochilardi (“Layli va Majnun” (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:13). Keyingi baytda tuman so‘zining yakka holatda qo‘llanishiga to‘xalamiz:

Za’f ichra tabiat o‘lsa mushfiq,

Behroqki, tuman tabibi hoziq (“Layli va Majnun”, 2020:67).

Bayt quyidagicha tabdil qilingan: Kasallikda tabiat mehribonligi yuzta tajribali tabibdan yaxshiroq... (“Layli va Majnun” (nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:33). Ko‘rinadiki, baytdagi tuman soni *yuz* soni bilan tabdil qilingan. Bizningcha, bu o‘rinda *tuman* so‘zi *o‘n ming* deb tabdil qilinsa, o‘rinli bo‘lar edi.

IX. Kasb-hunarga doir terminlar. Dostonda yuqoridagi kabi fan tarmoqlari bilan bir qatorda turli kasb-hunarga oid terminlar ham qo‘llanilgan bo‘lib, bular quyidagilar:

a. **Tikuvchilikka doir 23 ta** termin qo‘llanilgan: *atlas, debo* (harir kiyim; NAIL 1-jild, B.477), *jayb* (yoqa, kiyimning yoqasi; NAIL 1-jild, B.558), *igna, ipak, kisa, ko‘nglak, miqroz* (qaychi; NAIL 2-jild, B.311), *parniyon* (ipakdan

to‘qilgan guldor, yupqa mato; NAIL 2-jild, B.565), *tikmoq, tugma, etak, yaqo, harir, chakman, to ‘n*;

Miqroz ila lom-aliflari rust,

Ta’n ahli tilin tutub kesib chust (“Layli va Majnun”, 2020:16),

Bu **chok tikarga** mehribonlar,

Igna chikibon demay, sinonlar (“Layli va Majnun”, 2020:111).

b. **Baliqchilikka doir terminlar 3 ta:** *kema, kisht (kema), bolig*;

Umri **kemasi** vahalg‘a botdi,

Ko‘nglipi o‘lumga qo‘ydi, yotti (“Layli va Majnun”, 2020:259),

Daryo sanga tolibi navola,

Kishti kafida yig‘och piyola (“Layli va Majnun”, 2020:10).

c. Asarda **oshpazlikka doir terminlarning 9 tasini** uchratdik: *gugurd, kabob, qassob, otash, payola, sikanjabin* (sirka murabbo; NAIL B.377), *tabaq, sharbat, tanur* (tandir; NAIL 3-jild, B.182);

Aylab yuz o‘tin yoqorg‘a ta’jil,

Gugurd o‘ti yuzda har taraf nil (“Layli va Majnun”, 2020:68);

Ich qabz topar taranjabindin,

Safro ortar **sikanjabindin** (“Layli va Majnun”, 2020:244);

Bir lahza **tanur** ichinda itti,

O‘tlug‘ damidin ani qizitti (“Layli va Majnun”, 2020:172).

d. **Yilqichilik va chorvachilikka doir terminlar 7 ta:** *G‘anam* (qo‘ylar), *soyislig‘* (otboqarlik, sayislik; NAIL 3-jild, B.100), *cho‘pon, shubon* (cho‘pon; NAIL 3-jild, B.547), *shubonliq, qo ‘y terisi, qo ‘ychi*;

Soyislig‘ig‘a Zuhal urub fol,

Gazdasta bila qo‘lida g‘i(a)rbol (“Layli va Majnun”, 2020:23);

Cho‘pon dedi: «Ey xujasta sohib,

Oqshomg‘acha bo‘l mang‘a musohib (“Layli va Majnun”, 2020:213).

e. **Bog‘bonlikka doir bog‘, bog‘bon, chaman, gulshan terminlari** qo‘llanilgan:

Ey **gulshani** ishq **bog‘boni**,

Gulgun qadahe ketur zamoni (“Layli va Majnun”, 2020:72);

Kim, **bog‘** yuzin xazoni aylab,

Ko‘k bargini za’faroni aylab (“Layli va Majnun”, 2020:76).

f. **Zargarlikka doir terminlar:** *Durj* (sadaf, qimmatbaho toshlar saqlanadigan quticha; javohir qutisi; NAIL 1-jild, B.517), *sayrafiy* (sarrof, zarshunos, saralovchi; NAIL 3-jild, B.29). Shuningdek, *billur, gavhar//guhar, dur, yoqut, javohir, javhar, zumurrad, oltun* kabi asarda keltirilgan qimmatbaho tosh nomlarini bildiruvchi terminlar ham zargarlikda foydalaniladi:

Ikki **guhar** o‘rni bo‘ldi bir **durj**,

Ikki quyosh avji bo‘ldi bir burj (“Layli va Majnun”, 2020:231);

Har ganjida **sayrafiyi** idrok,

Hadsiz topibon **javohiri** pok (“Layli va Majnun”, 2020:30).

g. **Ovchilikka doir terminlar 7 ta:** *Dom* (tuzoq, to‘r; NAIL 1-jild, 499), *qafas, mo‘ndu* (tuzoq; NAIL 2-jild, B.413), *naxjir* (ov, shikor; NAIL 2-jild, B. 441), *ov, ovlamoq, sayd* (ov, shikor; ovlangan narsa, qo‘lga turushgan narsa; NAIL 3-jild, B.26).

Yo‘q kunduzu kecha xo‘rdu xobi,

Dom ichida qushdek iztirobi (“Layli va Majnun”, 2020:110) ;

Ul kun qilibon havoyi paxchir,

Ov amrig‘a qilmish erdi tadbir (“Layli va Majnun”, 2020:143).

h. **Savdogarlikka oid 11 ta termin** qo‘llanilgan: *diram, korvon, naqd, rahzan* (yo‘lto‘sar, qaroqchi; NAIL 2-jild, B.616), *savdo, siym, sud* (foyda), *tarozu, tojir, xaridor, maxmil*.

Kim, tuli hayotim etti nobud,

Savdosida hech toimadim **sud** (“Layli va Majnun”, 2020:19);

Chun jazm qilib bu ishni **tojir**,

Sud istayu mulkidin muhojir (“Layli va Majnun”, 2020:41).

i. **Musavvirlikka oid terminlar** rang nomlaridir: *oq, siyoh, sorig‘, qora, yashil*;

Tuynoq emas anglasam kamohi,

Yuqmish qalam uchig‘a **siyohi** (“Layli va Majnun”, 2020:241);

Yozg‘onda midodi ko‘z qarosi,

Yozg‘on **qora** qayg‘u mojarosi (“Layli va Majnun”, 2020:288).

j. **Konchilikka oid** birgina *kon* termini qo‘llanilgan:

Topqach duri bahru la’li **koni**,

Shahzoda nisori aylay oni (“Layli va Majnun”, 2020:282).

k. **Sport va milliy o‘yinlarga oid chavgon** (“ot to‘pi” o‘yini, chavgon o‘yini; NAIL 3-jild, B.447) termini qo‘llanilgan:

Chavgong‘a chu qilsa azmi maydon,

Maydon aro qilsa mayli **chavgon** (“Layli va Majnun”, 2020:44).

Tilshunos Y.Berdaq “Navoiy asarlarida iqtisodiy atamalar” nomli maqolasida Navoiyning nazmiy va nasriy asarlarida 250 dan ortiq iqtisodiy terminlar qo‘llanilganini va ularning ko‘pchiligi sinonimiya hosil qilganini qayd etadi¹⁰⁴. Jumladan, biz tadqiqot obyekti sifatida o‘rganayotgan “Layli va Majnun” dostonida qo‘llangan “tojir” terminiga Navoiy boshqa asarlarida savdogar, tujjor, savdopesha kabi terminlarni sinonim sifatida qo‘llaganligi aytildi:

Chun jazm qilib bu ishni *tojir*,

Sud istayu mulkidin muhojir (“Layli va Majnun”, 2020:42).

Yuqoridagi kuzatishlarimizdan shunday xulosa kelib chiqadiki, tadqiq qilingan “Layli va Majnun” dostoni matnida qo‘llangan terminlar miqdor jihatdan anchagina ko‘p. Ularning mavzu doirasi ham turli-tuman ekanligini kuzatdik.

2.2-§. “Layli va Majnun” dostoni terminlarining genezisi

Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan terminlarni diaxron aspektida o‘rganish, nafaqat til tarixi, balki qadimgi turkiy davlatlarning davlatchiligi, ijtimoiy-siyosiy tuzilishini ham ochishga xizmat qiladi. Shuningdek, terminlar tizimining qanday shakllanganligi, ularning kelib chiqishi, etimologiyasini aniqlash hozirgi turkiy tillar terminologiyasi tizimida sodir bo‘lgan jarayonlarni yanada to‘liqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Shu o‘rinda shuni ham ta’kidlash joizki, chet tillarga oid o‘zlashmalar turkiy tillar, xususan, o‘zbek

¹⁰⁴Бердақ Ю. Навоий асарларида иқтисодий атамалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017, №4. – Б.25.

adabiy tili lug‘at tarkibini, inchunin, terminologik tizimni rivojlantirishda muhim o‘ringa ega. O‘zlashmalarning aksariyati ma’muriy-davlat boshqaruvi, harbiy ish, ilmiy soha va maishiy turmushga doir ma’nolarni ifodalashda faollik ko‘rsatgan. Shu o‘rinda o‘zlashmalarning mavzuiy maydon nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlanishini ta’kidlash lozim. Chunonchi, eski o‘zbek tili harbiy terminologiyasi, asosan, mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar hisobiga kengayib borgan bo‘lsa, ma’muriy, siyosiy, tijoriy, ilmiy, diniy terminlar aksariyat arabcha va forscha-tojikcha o‘zlashmalardan tashkil topgan¹⁰⁵.

Tahlillarimiz va kuzatishlarimizga ko‘ra, Alisher Navoiy tomonidan “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan terminlarning 491 tasi (63 foizi) hozirgi o‘zbek tilining izohli lug‘atida mavjud bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarida asl holida yoki biroz fonetik o‘zgarishga uchragan holatda qo‘llanadi. Masalan, *ajal*, *aza tutmoq*, *amir*, *Asad*, *Aqrab*, *asir*, *bo‘g‘un*, *bug‘doy*, *bayt*, *barq*, *dabir*, *yoqut*, *jom*, *Zuhra*, *ko‘palak*, *madrasa*, *nargis*, *paykon*, *sorig‘* va b.q. Qolgan 287 ta (37 foizi) termin esa eskirgan, tarixiy so‘zlar bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida juda kam darajada qo‘llanadi, ayrimlari esa mutlaqo ishlatilmaydi. Bu terminlar hozirgi o‘zbek tilining izohli lug‘atiga kiritilmagan: *vard* (*atirgul*), *g‘abro* (*iyak*), *g‘anam* (*qo‘ylar*), *daman* (*sahro*), *do‘ltu* (*tulki*), *ishqpechon* (*gul nomi*), *kavokib* (*yulduzlar*), *mariz* (*kasal*), *miqroz* (*qaychi*), *oriza* (*kasallik*), *na’sh* (*tobut*), *noqa(urg‘ochi tuya)*, *soyislig‘* (*otboqarlik*), *so‘kso‘k* (*saksovul*), *shubon* (*cho‘pon*), *charanda* (*mol*, *chorva*) va b.q. Qiziqarli jihat, dostonda qo‘llanilgan va o‘zbek tilining izohli lug‘atiga kiritilgan 491 ta terminning faqat 37 tasi (7 foizi) termin maqomida berilgan: *Asad*, *Zuhal*, *Zuhra*, *Kayvon*, *Quyosh*, *Oy*, *Savr*, *Hamal*, *burj*, *Javzo Jadiy* – astronomik termin; *bosh kosasi*, *bog‘un*, *til*, *tish*, *jigar* – anatomik termin; *o‘lum* – biologik termin; *g‘azal*, *qissa*, *murabba‘*, *nazm*, *nasr*, *radif*, *rukn*, *fard*, *doston*, *bayt* – adabiyotga oid termin; *gul*, *lola*, *rayhon*, *sarv* – botanik termin; *kumush* – kimyoviy termin; *nikoh* – huquqiy termin; *payvand* – texnologik termin; *tashxis*, *xafaqon*, *yara* – tibbiyotga oid termin sifatida berilgan. Ammo yuqoridagi

¹⁰⁵ Дадабоев X. Огаҳий тарихий асарларидағи ўзлашма қатлам хусусида. Лингвист: илмий мақолалар тўплами / ЎзР Олий ва ўрта таълим вазирлиги, Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий ун-ти; масъул мухаррир X.Дадабоев. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б.4.

terminlar bilan bir ma’noviy guruvgi kiruvchi *afsona*, *qofiya* kabi so‘zlar adabiyotga oid termin; *bemor*, *harorat* kabi so‘zlar tibbiyotga oid termin; *bel*, *bosh*, *bo‘yin*, *burun*, *qulog* so‘zlari anatomik termin; *qon* so‘zi tibbiyotga doir termin; *mis*, *oltun kabi* so‘zlar kimyoviy termin sifatida berilmagan. *G‘ayb*, *gunoh*, *duo*, *Jannat*, *zokr*, *zohid*, *kofir*, *qibla*, *qiblagah*, *malak*, *munojot*, *ohirat*, *oyat*, *Rab*, *sajdagoh*, *salavot*, *sunnat*, *taqvo*, *taqdir*, *uzlat*, *Xizr*, *xonaqah*, *hadis* terminlari diniy so‘z, *ibora* deya izohlangan.

Tilshunos olim E.Begmatov fikriga ko‘ra, “...o‘zbek tili leksikasidagi so‘zlarni tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan ikki katta qatlamga bo‘lish mumkin:

1. O‘zbek tili leksikasidagi *o‘z qatlam*.
2. Ozbek tili leksikasidagi *o‘zlashma qatlam*¹⁰⁶.

Shu asosga ko‘ra, dostonda qo‘llanilgan terminlarni ham etimologik jihatdan *o‘z* va *o‘zlashgan qatlamga* oid terminlar deya guruhlashni lozim topdik. Demak, doston terminlari etimologik jihatdan shartli ravishda quyidagi qatlamlardan iborat: *o‘z qatlam* (umumturkiy, o‘zbekcha so‘zlar); *o‘zlashgan qatlam* (fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar; arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar). Mazkur guruhlarga mansub so‘zlarni bir-biridan ajratishda, tahlil qilishda bir qancha manbalarga tayandik¹⁰⁷.

Kuzatishlar va tahlillarning ko‘rsatishicha, Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni leksikasidagi *o‘z qatlam terminlari* 15 foiz (119 ta)ni tashkil etadi. Bu terminlarning 96 foizi (112 ta) hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarida asl holida yoki biroz fonetik o‘zgarishga uchragan holatda faol qo‘llanadi. Masalan: *ayoq*, *arpa*, *balchiq*, *bel*, *bolig‘*, *bosh*, *bug‘doy*, *bo‘g‘un*, *bo‘yun*, *bulog‘*, *bulut*, *burgut*, *burun*, *bo‘ri*, *yara*, *yoy*, *igna*, *yilon* va b.q. Qolgan 4 foizi (5 ta) esa eskirgan, tarixiy so‘zlar, bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida mutlaqo ishlatilmaydi: *do‘ltu* (tulki), *tamg‘ochi* (tamg‘a uruvchi), *teva* (tuya), *tuvog‘* (tuyoq), *o‘chku* (echki), Ko‘ringanidek, mazkur so‘zlar *arxaik so‘zlar* bo‘lib, davrlar o‘tishi bilan tushuncha o‘zgarmagan, ammo bu tushunchalarni ifodalovchi nom o‘zgargan.

¹⁰⁶Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.55-56.

¹⁰⁷Ўзбек тилининг изоҳли лугати. I–V жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020.; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. I–III жилд. – Тошкент: Университет, 2000.

Terminlar Navoiy tiliga, umuman eski o‘zbek tiliga tayyor til birliklari sifatida predmetlar va tushunchalar bilan birga kirib kelgan. Agar hozirgi davr terminologiyasi bilan solishtiradigan bo‘lsak, Navoiy asarlarida, jumladan, “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan terminlar, asosan, forscha, arabcha terminlardan iborat ekanligini kuzatamiz; hozir ular arabcha, forscha, asosan, ruscha yoki rus tili orqali tilimizga o‘zlashtirilgan inglizcha terminlardir. E’tiborli jihatni Navoiy davrida ham, hozirgi tilimizda ham, asosan, chetdan o‘zlashgan terminlar faol ishlatiladi. Navoiy davrida ham, hozirgi tilimizda ham sof o‘zbekcha terminlar kam va buni tilshunos Y.Berdaq o‘zining maqolasida Navoiy davrida yuksak uslubda yozish arabcha, forscha so‘zлarni mo‘l-mo‘l ishlatishni talab etganligi; Navoiy tili naddialect xarakterga ega, ya’ni dialektlarga nisbatan invariant holda bo‘lganligi va O‘rta Osiyo xalqlari islom dinini qabul qilgandan keyin nafaqat din, balki boshqa fanlar ham arab tilida olib borilgani, u fan tili hisoblangani bilan izohlashga harakat qiladi¹⁰⁸.

O‘zbek tili lug‘at sostavida tarixan qadimgi davrlardan beri mavjud bo‘lib kelgan ko‘pgina turkiy so‘zlar mavjud o‘z qatlama leksikasi faqatgina genetik jihatdan turkiy bo‘lgan so‘zlardangina iborat emas. O‘zbek tilining so‘z yasash sistemasi yangi so‘zlar hosil qilishda o‘zbek tiliga boshqa tillardan kirgan so‘z materialidan ham foydalanadi¹⁰⁹. Keltirilgan fikrga asoslanib, dostonda qo‘llanilgan o‘z qatlama terminlarini quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- a) umumturkiy terminlar – *ayoq, arpa, bel, bosh, yilon, ilik, it, kiyik, kuz, qish* kabilar;
 - b) umumturkiy so‘zlardan yasalgan o‘zbekcha terminlar – *choqin, o‘lum, o‘luk, urush, tirnog‘, tamg‘ochi, ovlamoq, qo‘ychi* kabilar;
 - v) chet tili elementi asosida o‘zbek tilida o‘zbekcha qo‘sishchalar qo‘sib yasalgan terminlar – *gadoliq, kadxudoliq* (uylanganlik), *mizbonliq*;
- Tadqiq etilayotgan dostonda turkiy *leksik qatlama* oid terminlarning quyidagi mavzuuiy guruhlari mavjud ekanligini ko‘rish mumkin:

¹⁰⁸ Бердақ Ю.Навоий асарларида иқтисодий атамалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017, №4. – Б.28.

¹⁰⁹ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.57.

- To‘y va bazmga doir terminlar – *kelin*, *kuyov*;
- Motam marosimiga doir terminlar – *ko ‘mmoq*, *o ‘luk*, *o ‘lum*, *o ‘lmoq*;
- Ijtimoiy-siyosiy va davlat boshqaruviga oid terminlar – *kengosh*, *qaroqchi*, *qul*, *tamg ‘o*, *tamg ‘ochi*;
- Harbiy terminlar – *yo//yoy*, *qilich*, *qin*, *qolqon*, *tig ‘*, *o ‘q*, *o ‘q chekmak*, *urush*;
- Tibbiyotga doir terminlar – *yara*, *qon*, *uchug ‘*;
- Anatomiyaga doir terminlar – *ayoq*, *bel*, *bosh*, *bo ‘g ‘un*, *bo ‘yun*, *burun*, *ilik*, *ko ‘z*, *qo ‘l*, *qulqoq*, *og ‘iz*, *til*, *tirnoq*, *tish*, *tobon*;
- Diniy va tasavvufiy terminlar – *Tengri*;
- Xalq, millat va elat nomini ifodalovchi terminlar – *turk*;
- Ma’dan va qimmatbaho tosh nomlari – *ko ‘mur*, *kumush*, *oltun*;
- Astronomiyaga oid terminlar – *Quyosh*, *Oy*;
- Zoologik terminlar – *burgut*, *bo ‘ri*, *do ‘ltu*, *yilon*, *it*, *kiyik*, *ko ‘palak*, *qanot*, *qoplon*, *ot*, *teva*, *tuvog ‘*, *o ‘rgamchi*, *o ‘rdak*, *o ‘chku*, *uchmoq*, *qush*;
- O’simliklarga doir terminlar – *arpa*, *bug ‘doy*, *qamish*, *tikan*, *shaboq*;
- Ekologik terminlar – *balchiq*, *bulog ‘*, *bulut*, *ko ‘l*, *kuz*, *qish*, *qor*, *qum*, *quyun*, *tufrog ‘*, *choqin*;
- Tikuvchilikka doir terminlar – *bo ‘rk*, *igna*, *ipak*, *ko ‘nglak*, *tikmoq*, *to ‘n*;
- Baliqchilikka doir terminlar – *baliq*, *kema*;
- Yilqichilik va chorvachilikka doir terminlar – *qo ‘y*, *qo ‘zi*, *qo ‘ychi*, *qo ‘chqor*;
- Ovchilikka doir terminlar – *ov*, *ovlamoq*;
- Musavvirlikka oid terminlar – *qora*, *oq*, *sorig ‘*:

Ko‘rinadiki, asarda inson va hayvonlarning tana a’zolari bilan bog‘liq turkiy terminlar miqdor jihatdan ko‘proq. Undan keyingi o‘rinlarda zoologik va ekologik terminlar turadi. Buning sababi, bizningcha ham, “Bu qatlamga kiruvchi so‘zlar zaruriy va hayotiy tushuncha va tasavvurlarni ifodalashi, seriste’mol leksemalar ekanligi bilan xarakterlanadi”¹¹⁰. Ta’limga, musiqaga, adabiyotshunoslikka oid turkiyicha terminlarni esa doston matnida uchratmadik.

¹¹⁰Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.67.

Dunyoda hech bir til faqat o‘z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanan olmasligi barchaga ma’lum. Shu qatori, o‘zbek tilining lug‘at tarkibida ham *tashqi manba* muhim rol o‘ynaydi. Hech bir til sof holda mavjud bo‘lmaganidek, o‘zbek tilining tarixiy rivojlanishida ham boshqa tillarning sezilarli ta’sirini kuzatish mumkin. O‘zbek tilining lug‘at tarkibi tarixan uzoq va murakkab rivojlanish bosqichlarini bosib o’tgan. Tarixiy davrlar mobaynida o‘zbek tili lug‘at tarkibiga fors-tojik tilidan, arab tilidan, shuningdek, boshqa tillardan bir qancha so‘zlar qabul qilingan. Bu masala tilshunoslikda amalga oshirilgan tadqiqotlarda izohlangan¹¹¹. Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan “Layli va Majnun” dostoni terminlari tarkibida ham o‘z qatlam terminlari bilan bir qatorda o‘zlashma qatlamga oid so‘zlardan tashkil topgan terminlar ham mavjudki, quyida ularni izohlashga harakat qilamiz.

Ma’lumki, hozirgi o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibida kelib chiqishi arabcha bo‘lgan so‘zlar talaygina. Bu o‘zlashmalarning tilimizda mavjud bo‘lishi tarixda O‘rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi va buning ijtimoiy oqibatlari bilan bog‘liq ekanligi ham hech kimga sir emas. Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan dostonda arabcha terminlar miqdor jihatidan birinchi o‘rinda ekanligi kuzatildi. Ya’ni, “Layli va Majnun” dostoni terminlarining qariyb 60 foizi (470 ta) *arabcha terminlar* bo‘lib, ularning 30 foizga yaqini (140 ta) bugungi kunda iste’molda mavjud emas. Masalan: *anjum* (yulduzlar), *amoma* (salla), *adu* (dushman), *adam* (yo‘qlik), *ashjor* (daraxtlar), *balbala* (may ko‘zasi), *barq* (yashin), *bahr* (daryo), *bodiya* (dasht), *voli* (boshliq), *g‘azol* (kiyik), *g‘azola* (urg‘ochi kiyik), *davot* (siyohdon), *daf* (doira), *jayb* (yoqa), *jallod* (o‘lim hukmining ijrochisi), *za’f* (quvvatsizlik, hastalik), *zindon* (qamoqxona), *zirnix* (oltingugurt), *zoyil bo‘lmoq* (yo‘qolmoq, yo‘q bo‘lmoq), *Zuhal* (Saturn sayyorasi), *kavkab* (yulduz), *mil* (masofa uzunligi), *mutrib* (cholg‘uchi), *Mushtari* (Yupiter), *Nujum ilmi* (Asronomiya fani), *ravza* (jannat), *tojir* (savdogar), *ud* (cholg‘u asbobi) va b.q. Mazkur eskirgan terminlarning ayrimlari *tarixiy so‘zga aylangan* (*balbala*, *voli*,

¹¹¹Бегматов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.; Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 313 б. va b.q.

jallod kabilar) bo‘lsa, boshqalari *arxaik so‘zlar*(*anjum, ilmi nujum, ravza, tojir, Mushtari* kabilar)dir. Qolgan arabcha terminlarning 70 foizi (330 ta) hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarida asl holatida yoki biroz fonetik o‘zgarishga uchragan holatda uchraydi: *ajal, azo, azoliq, atlas, badan, burj, vasiyat, vodiy, g‘azal, g‘ilof, dars, din, duo, dur, yoqut, Javzo, javohir, javhar, Jady, ziyofat, zilzila, ilohiy, kafan, koinot, kursi, qabr, qadah, qazo, qalam, qassob, qafas, qissa, lavh, mahbus, ohirat, oyat, harf, hasharot, harorat* va b.q.

Doston matnidagi *arabcha terminlarni* mavzuiy jihatdan quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- To‘y va bazmga doir arabcha terminlar – *balabala, vasl, visol, qadah, qadakhash, ma’shuq, nikoh, soqiy* va b.q.;
- Motam marosimiga doir arabcha terminlar – *ajal, azo tutmoq, azo, azoliq, dafn ishi, kafan, qabr, mayyit, motam, ta’ziyat, tobut* va b.q.;
- Ijtimoiy-siyosiy va davlat boshqaruviga oid arabcha terminlar – *amir, vatan, voli, yetim, jallod, qabila, qatl etmoq, muhr, siyosat, xalq* va b.q.;
- Harbiy sohaga doir arabcha terminlar – *adu//aduv, asir, a’do (dushmanlar), g‘ilof, zirih//zirh (sovut), mahbus, saf, silsila, tanob, xanjar, harba* va b.q.;
- Tibbiyotga doir arabcha terminlar – *davo, za’f, maraz (kasallik), muolajat, muolij, salomat, sihat, tabib, tashxis, xafaqon, hakim* va b.q.;
- Anatomiyaga doir arabcha terminlar – *badan, jild (teri)* va b.q.;
- Ta’limga oid arabcha terminlar – *davot (siyohdon), dars, ilm, kitob, qalam, lavh, madrasa, maktab, sabaq, ta’lim, hamdars, harf* va b.q.;
- Diniy va tasavvufiy arabcha terminlar – *adam, Allah, Barot, Qadr, g‘ayb, dayr (rohiblar turadigan joy, butxona), din, duo, jazb aylamoq(tariqat ahlining o‘zidan ketish holati), jannat, zakot, zikr, zoyir, ilohiy, islom, Ka’ba, kofir, qazo, qibla, qiyomat, majusi, malak, masjid, Mahshar kuni, mehrob, munojot, omin, ohirat, oyat, Rab, ravza, sajda, sajda qilmoq, salovot, Subhonalloh, sunnat, so‘fi, tazarru, taqvo, taqdir, tasbih, tafsir, toat qilmoq, uzlat, fano, farishta, foni, xatib, hadis, haj* va b.q.;

- Ma'dan va qimmatbaho tosh nomlarini bildiruvchi arabcha terminlar – *dur, yoqut, javohir, javhar, la'l, sadaf* va b.q.;
- Xalq, millat va elat nomlari – *arab*.
- Astronomiyaga oid arabcha terminlar – *Aqrab, anjum, burj, Javzo, Jady, Zuhal (Saturn), Zuhra, kavkab, Kayvon, koinot, qamar, munajjim, Munshiy (Merkuriy), Mushtari (Yupiter), nujum, Savr (o'n ikki burjning ikkinchisi), Hamal* va b.q.;
- Adabiyotshunoslikka oid arabcha terminlar – *avbob, abyot, badi' so'z, bayt, bob, g'azal, qissa, murabba', nazm, nasr, noqil, radif, rivoyat, roviy, rukn, fard, hikoyat* va b.q.;
- Musiqaga oid arabcha terminlar – *daf, mutrib, ud (cholg'u asbobi)*;
- Zoologiyaga oid arabcha terminlar – *ashhab (oqish bo'z ot), g'azol, g'azola, tovus, hasharot*;
- O'simliklarga doir arabcha terminlar – *ashjor (daraxtlar), obnus (qora tusli qattiq va xushbo'y daraxt), rayhon, sunbul*;
- Ekoliyaga doir arabcha terminlar – *aqtob, barq (yashin), bodiya (cho'l), vodiy, zilzila, mag'rib, nasim, sabo, samum, sahro, sel, tabiat*;
- Tikuvchilikka doir arabcha terminlar – *amoma, atlas, harir*;
- Savdo-sotiqliga oid arabcha terminlar – *tojir*;
- Ovchilikka oid arabcha terminlar – *qafas, sayd*.

Mazkur semantik guruhlardan ko'rindan, arab tilidan o'zlashgan terminlarning katta qismi diniy tushunchalar bilan bog'liq. Ijtimoiy-siyosiy omillarning tilga ta'siri shu holatda yaqqolroq namoyon bo'lgan. Shuningdek, islom dini qoidalariga muvofiq o'tadigan motam marosimiga oid terminlarning ham aksariyati arabcha ekanligi ko'rish mumkin. Ta'limga, astronomiya, adabiyotshunoslikka oid terminlarning ham, asosan, arabcha so'zlar ekanligi o'sha davrda arab tilining ta'lim va fan tili bo'lganligi bilan izohlanadi.

"Tarix sahifalaridagi juda ko'plab ma'lumotlarning tasdiqlashicha, o'zbeklarning azaliy ajdodlari eroniylarda so'zlovchi aholi bilan qadimdan birga yashab kelgan, ikki daryordan suv ichishgan, ular bilan aralashgan holda birga

mehnat qilishgan va yelkadosh bo‘lishgan. Turkiy va eroniy (so‘g‘d) qabilalarning qadimdan bir-biriga yaqin, bir-biriga o‘xshash kundalik hayot kechirganligini iqtisodiy-madaniy aloqada hamkorlikda bo‘lganligi va bosqinchilarga qarshi bиргаликда kurashganligi bilan izohlash mumkin. Turkiy xalqlar tillariga singib ketgan so‘g‘dlar, eroniylar va so‘g‘d tili, eron tili tamoman izsiz yo‘qolGANI yo‘q, albatta”¹¹². Shu va boshqa omillar ta’sirida, tilimiz lug‘at boyligida fors-tojikcha o‘zlashmalarni ko‘plab uchratamiz. “Layli va Majnun” dostonida ham Navoiy tomonidan qo‘llanilgan fors-tojikcha terminlar miqdor jihatdan arab tilidan keyingi o‘rinda bo‘lib, dostonda jami 188 ta (jami terminlarning 24 foizi) fors-tojik tilidan kirib kelgan termin uchraydi. Bu terminlarning 74 foizi (140 ta) hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarida asl holida yoki biroz fonetik o‘zgarishga uchragan holatda faol qo‘llanadi. Masalan: *afsona, bayt, banda, bahor, bemor, binafsha, bog‘, gavhar, giyoh, gul, daryo, dasht, doston, jigar, zumurrad, kabutar, korvon, meva, nihol, ohu, parranda* va b.q. Qolgan 25,5 foizi (48 ta) esa eskirgan, tarixiy so‘zlar, bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydi. Demak, eski o‘zbek tilida qo‘llangan bir qancha fors-tojikcha terminlar hozirgi o‘zbek tilida ishlatilmaydi. Masalan: *abr* (bulut), *aflok* (falaklar), *af‘i* (zaharli ilon), *babr* (yirtqich hayvon), *balbala* (may idishi), *bihisht* (jannat), *boda* (may), *vard* (atirgul), *vahsh* (yirtqich), *gazanda* (ari, chayon), *gardun* (osmon), *dabir* (kotib), *debo* (harir kiyim), *diram* (kumush tanga), *zindon*, *zog‘*, *kamand* (arqon), *kaniz* (cho‘ri xotin), *kishvar* (mamlakat), *ko‘h* (tog‘), *lang* (cho‘loq), *lojuvard* (to‘q ko‘k tusli tosh), *mag‘zi ustuxon* (ilik suyaklar), *marg* (o‘lim), *mardum* (ko‘z qorachig‘i), *moh* (oy), *parniyon* (ipakdan to‘qilgan guldor, yupqa mato), *razm* (urush), *poy* (oyoq), *savsan* (gulsapsar), *sipoh* (askar, qo‘shin), *sud* (foyda), *siym* (kumush tanga), *to‘tiyo* (ko‘z dori), *xora* (qattiq tosh), *xurshed* (Quyosh), *chavgon* (ot to‘pi o‘yini), *shashpar* (oltin qirrali gurzi), *axtar* (yulduz) va b.q. Ko‘ringanidek, mazkur terminlarning aksariyati *arxaik so‘zlar* bo‘lib, bugungi kunda bu terminlar anglatayotgan ma’no saqlanib, faqat nom o‘zgargan.

¹¹²Жуманазарова Г. “Ширин билан Шакар” достонининг луғавий ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2008. – Б.36.

“Layli va Majnun” dostonida qo‘llangan fors-tojikcha o‘zlashma terminlarning quyidagi leksik-semantik guruhlari mavjud:

- To‘y va bazmga doir fors-tojikcha terminlar – *bazm*, *bazmgoh*, *boda*, *yor*, *jom*, *may*, *mehman*;
- Motam marosimiga doir fors-tojikcha terminlar – *go‘r*, *go‘riston*, *marg*;
- Ijtimoiy-siyosiy va davlat boshqaruviga oid fors-tojikcha terminlar – *gado*, *dabir*, *kaniz*, *kishvar*, *payk*, *podshoh*, *saroy*, *taxt*, *farmon*, *shahzoda*, *shah*, *shahr*;
- Harbiy sohaga doir fors-tojikcha terminlar – *band*, *band etmoq*, *zanjur*, *zindon*, *kamand*, *paykon*, *razm*, *sipoh*, *sipohbad*, *sipohi*, *shashpar*;
- Tibbiyotga doir fors-tojikcha terminlar – *bemor*, *gung*, *lang*, *mag‘zi ustuxon*, *parhez*, *tob*, *to‘tiyo*;
- Ta’limga oid fors-tojikcha terminlar – *ustod*;
- Anatomiyaga doir fors-tojikcha terminlar – *bel*, *jigar*, *mardum*, *poy*, *tan*;
- Diniy va tasavvufiy fors-tojikcha terminlar – *bihisht*, *but*, *gunoh*, *do‘zax*, *pir*, *farishta*, *xonaqah*, *Xudo*;
- Ma’dan va qimmatbaho tosh nomlarini bildiruvchi fors-tojikcha terminlar – *billur*, *gavhar*, *guhar*, *zummurad*, *lojuvard*, *mis*, *po‘lod*;
- Astronomiyaga oid fors-tojikcha terminlar – *aflok*, *gardun*, *Kayvon*, *kaxkashoni*, *mehr*, *moh*, *osmon*, *xurshed*;
- Adabiyotshunoslikka oid fors-tojikcha terminlar – *afsona*, *doston*, *noma*, *fasona*;
- Musiqaga oid fors-tojikcha terminlar – *navo*, *ohang*, *tarona*;
- Zoologiyaga oid fors-tojikcha terminlar – *ajdar*, *ajdahoyi*, *af‘i*, *babr*, *bulbul*, *gazanda*, *jo‘ja*, *zog‘*, *kabutar*, *ohu*, *palang*, *par*, *parranda*, *parvona*, *pashsha*, *pil*, *to‘ti*;
- O‘simliklarga doir fors-tojikcha terminlar – *barg*, *lola*, *binafsha*, *bodom*, *vard*, *giyoh*, *gul*, *gulob*, *g‘uncha*, *yosimin*, *kadu*, *meva*, *nargis*, *nihol*, *nilufar*, *nor*, *payvand*, *savsan*, *sary*, *suman*, *chinor*;

- Ekologiyaga doir fors-tojikcha terminlar – *abr, bahor, biyobon, bog‘, gard, girdbod, girdob, gulshan, daryo, dasht, zang, ko‘h, navro‘z, xora, chashma, shabnam*;
- Tikuvchilikka doir fors-tojikcha terminlar – *debo, kisa, parniyon*;
- Oshpazlikka oid fors-tojikcha terminlar – *gugurd, kabob, payola*;
- Savdo-sotiqqa oid fors-tojikcha terminlar – *diram, korvon, savdo, sud, tarozu, xaridor*;
- Ovchilikka oid fors-tojikcha terminlar – *dom*.

Ma’lum bo‘ladiki, mazkur dostonda fors-tojikcha terminlarning *zoologiya, ekologiya, botanika va ijtimoiy-siyosiy* sohaga oidlari nisbatan ko‘proq qo‘llangan. Shuningdek, hozirda ham tilimizda faol qo‘llanuvchi *Xudo, farishta, gunoh, do‘zax* kabi diniy tushunchalar nomlari ham eski o‘zbek tilida iste’molda mavjud bo‘lganini ko‘rish mumkin. Navoiy davrida savdo-sotiqqa oid terminlarning ham aksariyati fors-tojikcha bo‘lganligini kuzatdik. Bu holat, bizningcha, fors-tojik xalqlarining savdo-sotiq, tijorat bilan uzoq davrlardan buyon faol shug‘ullanib kelayotgani bilan bog‘liqdir.

Dostonda *hindcha* (*bang* – nasha, qoradori), *sanskrit tilidan* (*baxshi* – kotib, mirzo), *yunon tilidan* (*diram* – tanga, kumush tanga), *mo‘g‘ulcha* (*ulus* – xalq, omma) o‘zlashma terminlar ham uchraydiki, ular kam sonni tashkil etadi.

2.3-§. “Layli va Majnun” dostoni terminlarining derivatsion xususiyatlari

Tilshunoslikda terminlar derivatsiyasi masalasi ancha munozarali masalalardan biri hisoblanadi, ya’ni bu borada bir-biriga zid qarashlar mavjud. Masalan,” “termin yasalishi” birikmasi terminologik derivatsiya va ushbu hodisaning mohiyatini to‘liq ifodalay olmaydi. Fikrimizcha, termin yasalmaydi, balki hosil qilinadi yoki hosil bo‘ladi¹¹³, – tarzidagi fikrlar ham mavjud bo‘lib, biz bunday qarashlarga qo‘shilmadik. S.Ganiyevning fikricha, terminlarning leksik birliklar sifatida strukturasi, ma’nosи va qo‘llanilishi jihatdan uch xil aspektda

¹¹³Сабирова Э. “Ўзбек тилининг изохли лугати”да хукукий терминларнинг берилishi: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2021. – Б.27.

o‘rganilishi mumkin. Shakl jihatidan terminlar birinchi navbatda termin-so‘zlar (yakka so‘zli terminlar) va birikma terminlar (terminologik so‘z birikmalar)dan iborat¹¹⁴. Atoqli terminolog H.Dadaboyev fikricha, “Eski o‘zbek tili terminologiyasi (XV-XIX asr oxiri) sistemasi qadimgi turkiy til va eski turkiy til terminologiyasidek o‘z ichki imkoniyatlari hamda o‘zlashmalar hisobiga shakllandi va rivojlandi”¹¹⁵. Tub terminlar o‘zbek terminologiya tarixining deyarli barcha davrlarida uchraydi. Xususan, tadqiq etilayotdan doston terminlari orasida ham tuzilishiga ko‘ra *tub terminlar* anchagina: *jayran, marmar, muolajat, to‘tagi, qo‘bqa, qo‘chqor, ayman, alvon, amir, arsa, arusak, asad, asir, atibbo, a’lam, bang, bistar, bod, bol, burgut, chibin, chinor, tamg‘a, qul, ko‘z, kuz, qafas, qamish, jamoza, yel, dom, gul, nazm, nasr, go‘r* va b.q. Shunga qaramay yasama (derivativ) terminlarning ham o‘zbek terminologiyasida o‘rni salmoqli. “Layli va Majnun” dostoni terminlarining yasalishida ishtirok etgan affikslarni leksik-grammatik xarakteriga ko‘ra guruhlashda H.Dadaboyev tasnifi¹¹⁶ga tayandik:

Ism-o‘zaklardan ot-terminlar yasovchi affikslar: *qo‘y-chi, gado-liq, kadxudo- liq, mizbon- liq, sulton- lig‘, bazm-goh, qadah-kash, sipah-bad, ham-dars, kavkab-iston, gul-iston, shubon-liq* va h.k;

Fe’l-o‘zaklardan ot-terminlar hosil qiluvchi affikslar: *qaroq-chi, tilan-chi, o‘l-uk, o‘l-um, isit-ma, titrat-ma, choq-in, tug-ma*, va h.k.;

Ot(ism)lardan fe’l-terminlar yasovchi affikslar: *ov-la, yig‘i-la* va h.k.;

Fe’l-o‘zaklardan fe’l-termin hosil qiluvchi qo‘srimchalar: *ur-uš*, va h.k.

Yasama terminlar ham yasama so‘zlardek, *morfologik, sintaktik* va *semantik* yo‘l bilan hosil qilinadi. O‘zbek tili terminlarining aksariyatini motivlangan, ya’ni *so‘z terminlar* (qo‘srimchalar bilan yasalgan), *termin-qo‘shma so‘z*, *termin birikmalar* hamda *semantik* (asosan metaforik) *ko‘chim* asosida hosil qilingan *terminlar* tashkil qiladi¹¹⁷.

¹¹⁴Ганиев С.Б . Введение в терминоведение. – Москва, 1993. – С.62.

¹¹⁵Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – Б.36.

¹¹⁶ О‘sha manba – В.36.

¹¹⁷Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – Б.57.

Ot-terminlarning yasalishi. Ma'lumki, so'z yasovchi affikslar qo'shilish o'rniga ko'ra prefiks hamda suffiks xarakterida bo'ladi. Yasama terminlar ham prefiksatsiya va suffiksatsiya usullari bilan hosil qilinadi va bular so'z yasalishining faol usullari hisoblanadi. "Layli va Majnun" dostoni terminlogiyasidagi aksariyat terminlar ot so'z turkumiga tegishli bo'lib, ot-terminlarni affiksatsiya usuli bilan yasalishida quyidagi affikslar qatnashishi kuzatiladi:

1. – *liq* affiksi. Mazkur affiks turdosh otlar yasovchi modellar qatorida mahsuldorligi va faolligi bilan ajralib turadi va doston matnida *jarrowliq*, *qaroliq*, *bulbullik*, *durfishonliq*, *judoliq*, *jahonnoramoliq*, *ganjfishonlik* kabi ko'plab o'zbekcha va o'zlashma asoslardan yasama terminlarni hosil qilgan. Doston matnida mazkur affiks yordamida yasalgan terminlarning aksariyatini satr so'ngida uchratamiz. Buni biz bevosita qofiya talabi bilan bog'ladik. Masalan:

Majnun g'amidin bori *azoliq*,

Layli o'lumi uchun *qaroliq* ("Layli va Majnun", 2020:288);

Kim, «Menkim ishnm erur *shubonliq*,

Qo'y birla qo'zng'a *mehribonliq* ("Layli va Majnun", 2020:212).

-liq/-lik/-lug/-lig affiksi dostonda quyidagi ot-terminlarni hosil qilgan:

- shaxsning kasb-hunari, mashg'ulot turi, xizmat joyi kabi ma'nolarni ifodalovchi ot-terminlarni yasagan: *shubon-liq*, *posbon-liq*, *soyis-lig*'
- belgi - xususiyat, sifat yoxud holatni ifodalovchi ot-terminlarni yasagan: *gado-liq*, *kadxudo-liq*, *qaro-liq*, *ot-liq*, *motamzada-liq*, *ma'shuq-lug*' kabi.

2. *-chi* affiksi. O'ta mahsuldor va hozirgi o'zbek terminologiyasida qo'llanishda bo'lgan ko'plab terminlarni hosil qilgan bu qo'shimcha eski o'zbek tilida, xususan, "Layli va Majnun" dostoni matnida ham termin yasovchi affiks sifatida mavjud bo'lgan va kasb-hunar, faoliyatning umumiy ma'nosini bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, ushbu kasb-hunar va faoliyatlarga taalluqli ot-terminlarni yasagan: qo'y-chi, tamg'o-chi, tilan-chi kabi.

3. *-ma* affiksi. Bu affiks yordamida fe'l asosli so'zlardan ot-terminlar hosil bo'lgan. Kasallik turlarini bilduruvchi terminlar: *isit-ma*, *titrat-ma*; *narsa-buyum nomini bildiruvchi terminlar*: *tug-ma* kabi.

4. *-goh* affiksi fors-tojikcha affiks bo'lib, asarda *bazm-goh*, *qibla-gah*, *sajda-goh* kabi o'rin-joy nomlarini yasashda ishtirok etgan.

5. *-iston* affiksi ham o'rin-joy ma'nosidagi terminlarni hosil qilgan: *go'r-iston*, *kavkab-iston* kabi.

6. *-a* affiksi fe'l asosli so'zdan ot-terminlarni hosil qilgan: *yar-a*.

7. *-in* affiksi fe'llardan ot-terminlarni hosil qilishda ishtirok etgan: *kel-in*, *choq-in* kabi;

8. *-kash* affiksi fors-tojikcha affiks bo'lib, bu affiks yordamida yasalgan terminlar ma'lum kasb-hunar, mashg'ulot bilan mashg'ullikni anglatadi. Doston matnida bu affiks yordamida yasalgan ot-terminlar: *qadah-kash*, *ob-kash*, *raqam-kash*;

9. *-soz* affiksli ot-terminlar: *nag'ma-soz*;

10. *-g'* affiksi *tirno-g'* kabi ot-termminlarni yasagan;

11. *-uk* affiksi fe'lidan ot-termin hosil qilgan: *o'l-uk*;

12. *-um* affiksi natija, voqeа-hodisa, jarayon yoki ish-harakat nomini anglatuvchi ot-termin yasagan: *o'l-um* kabi.

13. *-ush* affiksi ham fe'lidan ot-termin hosil qilgan: *ur-ush*;

14. *ham* prefiksi otdan ot-termin hosil qilgan: *ham-dars*;

Fe'l-terminlarning yasalishi. Hozirgi o'zbek terminologiyasida affiksatsiya usulida hosil qilingan fe'l-terminlar katta miqdorda qo'llaniladi. Biz tadqiq qilayotgan doston terminologiyasida esa quyidagi afikkslar yordamida yasalgan yasama fe'l-terminlar qo'llangan:

1. *-la* affiksi quyidagi ma'noli fe'l-terminlarni yasagan:

a) jarayon, ish-harakat, natijasini ifodalovchi fe'l-terminlarni yasagan: *yig'-la*, *o'y-la*, *ang-la*, *bog'-la* va h.k.;

b) asosdan anglashilgan narsa-predmet, buyum bilan birga qilinadigan harakatni bildiruvchi fe'l-terminlarni hosil qilgan: *tish-la* va h.k.;

2.- *lan* affiksi quyidagi ma'noli fe'l-terminlarni yasagan:

a) asosdan anglashilgan narsaga duchor bo'lish, uning ta'siri ostida qolish ma'nosini ifodalaydi: *havo-lan*.

b) jarayon nomini bildiradi: *uy-lan*, *ot-lan*, *yuz-lan*.

Ma'lumki, tilda sodda shakldagi terminlar bilan birga qo'shma so'z shaklidagi terminlar ham mavjud. Hozirga qadar u yoki bu soha terminlariga bag'ishlangan katta-kichik tadqiqotlarda terminlarning struktur jihatlariga e'tibor qaratiladi. "Layli va Majnun" dostonidagi qo'shma so'z qolipidagi terminlarning leksik-semantik jihatlariga, yasalish modellarini o'rganar ekanmiz, avvalo, qo'shma so'z va qo'shma terminlarning umumiyligi va farqli jihatlarini esga olishimiz joiz. Ma'lumki, yuqoridagi har ikki til birligi umumtil leksikasiga mansub, ularning yasalish modellari va tiplari deyarli bir xil. Ammo qo'shma so'zlar barcha mustaqil so'z turkumlarida mavjud bo'lsa, qo'shma terminlar asosan ot turkumida uchraydi hamda otdan boshqa turkumga mansub qo'shma terminlarning terminlik maqomi matnda belgilanadi. Shuningdek, aksar qo'shma so'zlarining komponentlari yangi yasalma tarkibida o'zlarining mustaqil ma'nolarini saqlab qolmaydi, qo'shma terminlar bo'lsa ko'p hollarda mustaqil lug'aviy ma'nolarini saqlab qoladi. Umuman olganda, terminologiya sohasida qo'shma terminlar eng dolzarb va munozarali masala bo'lib, qo'shma terminlar umumiste'mol tildagi qo'shma so'zlarga qiyoslangan holda paydo bo'ladi degan fikr ustuvor hisoblanadi. "Layli va Majnun" dostonidagi qo'shma terminlarning quyidagi derivatsion qoliplarini ajratishimiz mumkin:

Ot+ot modelli qo'shma terminlar: *gulbarg*, *gulob*, *ishqpechon*, *silohsho'r*, *yaraqon*, *tiyrboron*.

Ot+fe'l modelli qo'shma terminlar: *qadahno'sh*, : *saf chekmoq*, *o'q chekmak*.

Fe'l+ot modelli qo'shma terminlar: *no'shdoru*

Son+ot modelli qo'shma terminlar: *sebarga* (uch yaproqli ko'kat)

Sifat+ot modelli qo'shma terminlar: *xafaqon*

Shuningdek, mazkur derivatsion modellarda turli tillarga mansub so‘zlarining gibrild holati ko‘zga tashlanmasligini, qo‘shma so‘zlar qismlari bir tilga mansubligini ko‘rishimiz mumkin. Demak, **gibrild terminlar Navoiy davrida mavjud bo‘lmagan.** Bu hodisa o‘zbek ili taraqqiyotining keyingi bosqichlarida paydo bo‘lgan.

Asarda -*xona* qismli qo‘shma terminlar ham uchraydi: *gulobxona*, *xaylxona*.

Tishunoslikda ikki yoki undan ortiq so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan yangi, yaxlit terminlar ko‘pincha birikma terminlar, qo‘shma terminlar, birikmali terminlar, tarkibli terminlar, tarkibli nomlar (rus tilshunosligida *составные наименования*) kabi nomlar bian ifodalanadi. Bizningcha, qo‘shma terminlar va murakkab birikmali terminlarni farqlash lozim. Chunki qo‘shma terminlar ikki so‘zning qo‘shilishidan hosil bo‘lib, bitta ma’no anglatadi va tushunchaning mohiyatini aniq aks ettiradi. Birikmali terminlar nomi ostida esa ikki yoki undan ortiq terminlarning birikuvi natijasida hosil bo‘lgan birikmaviy ifodalar tushuniladi. O‘zbek terminshunosligida bunday birikmali terminlarning yasalishini, aynan, “sintaktik usul bilan termin yasash” deb yuritish an’anaga aylanib ulgurgan. Terminologiya uchun xos bo‘lgan eng tipik ko‘rinish bu atributiv, ya’ni (aniqlanmish+aniqlovchi) strukturaga ega “onomasiologik struktura” lar asosida bo‘lgan birikmali terminlardir. Eng tarqalgan guruhni aniqlovchi komponentni ot so‘z turkumi namoyon etadigan birikmali terminlar tashkil etadi. Biz tadqiq etayotgan doston matnida ham bunday terminlarning soni ancha miqdorni tashkil etadi. Biz birikmali terminlarning son jihatdan ko‘pligini har qanday ot so‘z turkumlari o‘rtasidagi ma’noviy munosabatni bera olish imkoniyatiga ega ekanligi bilan bog‘ladik. Aynan shu holatda ot va sifat so‘z turkumlari o‘rtasidagi ma’no farqlari unchalik sezilmaydi. Umuman olganda, semantik usul bilan termin yasalishi psixolingvistik omillar – xotira va xayol tasavvuri ishtirokida voqe bo‘lib, unda obyektiv borliq, predmet va hodisalardagi umumiy va ayrim jihatlarning dialektik birlikda va qarama-qarshilikda mavjudligi, shu bilan birga insonning obyektiv voqelikni bilish, amaliy jihatdan o‘rganish

hamda o‘zlashtirish yo‘lidagi tajribasi aks etadi¹¹⁸. Dostonda murakkab birikma holida kelgan terminlar ham mavjud. Bular: *javome’i ul-kalim*, *gavzi jayran*, *nuzul oyat*, *qursi xurshid*, *aqd-u kobil(qalin)*, *barot-u qadr*, *valoyat ahli* kabilar. “Layli va Majnun” dostonida uchraydigan birikma, ya’ni sintaktik usul bilan yasalgan birikmali terminlar ikki komponentli terminlar ko‘p uchraydi; uch, besh va undan ko‘p komponentli birikmalar esa deyarli uchramaydi. Takroriy so‘z shaklidagi terminlar oz miqdorni tashkil etadi: *band-band*.

Ma’lumki, umummilliy so‘zlarning mavhumligi va ma’no kengligi ularni terminlardan leksik-semantik jihatdan farqlab turadi. Birikmali terminlarda esa konkret ma’no, tayanch semantik xususiyat mavjud bo‘lib, umummilliy so‘zlarda mavjud bo‘lgan ko‘p ma’nolilik xususiyatini namoyon qilmaydi. Asarda bir asosdan yasalgan bir nechta terminlarni uchratish mumkin.

Bir asosdan yasalgan terminlar

2-jadval.

Guhar termini yordamida yasalgan terminlar	Gul termini yordamida yasalgan terminlar	Dur termini yordamida yasalgan so‘zlar	May termini yordamida yasalgan terminlar	Dil termin yordamida yasalgan terminlar
Guharchin	Gulrux	Durposh	Maygun	Dilafro‘z
Guharrez	Gulchehr	Durfishon	Mayparast	Dilxoh
Guharfishon	Gulbong			Dilgir
Guharnisor	Gulobxona			Diltang
	Gulxad			Dilorom
	Gulgún			Dilbar
	Gulistón			Dilpisand
	Gulfom			Diloro
	Gulbun			Xushdil

¹¹⁸Omonova M. Meliorativ terminlarning leksik-semantik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida). – Samarqand, 2023. – B.18

	Gulafshon Gulob Gulbez Gulapdom Gulrez Gulbarg Gulrang		Dilpazire Dilafgor Dilshod Tangdil Dilsiton Dilkash Dilband Dilnavoz
--	--	--	---

Xulosa qilib aytganda, Navoiy ijodini o‘rganar ekanmiz, uning so‘z san’ati qanchalar buyuk bo‘lganiga yana bir bor amin bo‘lamiz. “Layli va Majnun” dostonida terminlarning tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, takror hamda birikma holidagi terminlar qo‘llanilgan.

Bob bo‘yicha xuosalari

“Layli va Majnun” dostoni terminlarining mavzuiy guruhlari, etimologiyasi va derivatsion xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. “Layli va Majnun” dostonida turli soha, fan va kasb-hunarga oid jami 778 ta termin qo‘llanilgan bo‘lib, ularni mavzuiy jihatdan katta-kichik 9 ta guruhga ajratish mumkin. Ular orasida miqdar jihatdan marosim terminlari, diniy va tasavvufiy terminlar, harbiy terminlar, zoologiya va ekologiyaga doir terminlar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

2. Dostondagi terminlarni etimologik nuqtayi nazaridan quyidagicha tasniflash mumkin: a) o‘z qatlam 119 ta; b) o‘zlashma qatlam 659 ta (arabcha o‘zlashmalar 470 ta, fors-tojikcha o‘zlashmalar 188 ta). Doston matnidagi terminlarning tarixiy-etimologik tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularning qariyb 15 % turkcha, qolgan 85 % o‘zga tillardan kirib kelgan. Tahlilga tortilgan 778 ta istilohning 491 tasi hozirgi o‘zbek tilining izohli lug‘atiga kiritilgan. Qolgan terminlarning ayrimlari garchi hozirgi o‘zbek adabiy tilida aks etmagan bo‘lsa-da, boshqa turkiy tillar, shuningdek, qardosh bo‘lmagan tillarda saqlangan. O‘zbek

tilining asoschisi Alisher Navoiy asarlari terminologiyasini o‘rganish – o‘zbek tilshunoslari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, Navoiy asarlarida qo‘llanilgan terminlarni o‘rganish, lug‘atlarga kiritish boshqa tillardan ko‘plab terminlarni o‘zlashtirishning oldini oladi va ona tilimizni begona til unsurlaridan asrashga xizmat qiladi.

3. Doston terminlarining aksariyatini tuzilish jihatdan sodda terminlar tashkil etadi: *jayran*, *marmar*, *muolajat*, *to‘tagi*, *qo‘bqa*, *qo‘chqor*, *ayman*, *alvon*, *amir*, *arsa*, *arusak* kabilar. Sodda yasama terminlarni hosil qilishda quyidagi qo‘s Shimchalar ishtirok etganligi kuzatildi: *-liq*, *-chi*, *-ma*, *-goh*, *-iston*, *-a*, *-in*, *-kash*, *-soz*, *-g‘*, *-uk*, *-um*, *-ush*, *ham-* qo‘s Shimchalari ot-terminlarni hosil qilishda; *-la*, affiksi fe’l-terminlarni hosil qilishda ishtirok etgan.

4. Dostonda murakkab birikma holida kelgan terminlar ham mavjud. Bular: *javome‘i ul-kalim*, *gavzi jayran*, *nuzul oyat*, *qursi xurshid*, *aqd-u kobil(qalin)*, *barot-u qadr*, *valoyat ahli* kabilar. “Layli va Majnun” dostonida uchraydigan birikma ya’ni sintaktik usul bilan yasalgan birikmali terminlar ikki komponentli terminlar ko‘p uchraydi; uch, besh va undan ko‘p komponentli birikmalar esa deyarli uchramaydi. Takroriy so‘z shaklidagi terminlar oz miqdorni tashkil etadi: *band-band*.

III BOB. «LAYLI VA MAJNUN» DOSTONI TERMINLARINING MORFOLOGIK, SINTAKTIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

3.1-§. Doston terminlarining morfologik xususiyatlari

Dunyo tilshunoslida XXI asrdan boshlab til muammolari tadqiqiga tizimli yondashila boshlandi. Buning natijasida tarixiy va zamonaviy poetik matnlarni sintaktik-semantik, semantik-pragmatik, funksional-uslubiy, kommunikativ va

boshqa aspektlarda tadqiq qilishga qiziqish kuchaydi. Bu kabi tadqiqotlarda asosiy e’tibor badiiy nutqni shakllantiruvchi sintaktik birliklar semantikasi va she’riyatda ifoda etilgan badiiy axborotning kommunikativ vositalariga xos xususiyatlarni aniqlash orqali poetik nutq qonuniyatlarini ochib berishga qaratildi. Badiiy matnning morfologik xususiyatlari tahlil qilinar ekan, morfologik birliklarning matnda qo’llanishi bilan bog‘liq holatlar nazarda tutiladi. “Morfologik birliklarning estetik vazifasi deganda – maxsus so‘z formalari vositasida, shuningdek, ma’lum bir grammatik ma’no va funksiyaga ega bo‘lgan so‘z formasini maxsus qo’llash orqali ekspressivlik-emotsionallik ifodalanishi tushuniladi”¹¹⁹. Tilshunos olimlar M.Yo‘ldoshev, S.Muhammedova va boshqalar badiiy matn lisoniy tahlil qilinganda, dastavval ekspressivlik ifodalangan ijobiy va salbiy ma’no qirrasiga ega bo‘lgan birliklarni ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimning nutqida, nima maqsad bilan qo’llanilganligi, kimga nisbatan, qanday vaziyatda ishlatilganligiga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi¹²⁰.

Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni bo‘yicha kuzatishlar olib borgan M.Rahmatovning e’tirof etishicha, muallif badiiy tafakkuri mahsuli bo‘lgan asarlarining lingvistik tadqiqi o‘zbek tilining fonetik, leksik, morfologik va sintaktik qurilishi tarixi bilan bog‘lab olib borilgan. Ammo ularning soni va salmog‘i juda oz. Jumladan, hanuzgacha shoirning lirik asarlari poetik xususiyatlari o‘rganilmagan¹²¹. Dostonda zoologik termin – *bo‘taning ko‘chma ma’noda Majnunning otasi nutqida qo’llanganini kuzatamiz*:

“Bo‘tam” debon aylar ul sifat pech –

Kim, qolmas ruhidin asar hech (“Layli va Majnun”, 2020:203).

Farzandga nisbatan ijobiy ma’noda “*bo‘ta*”, “*bo‘taloq*” so‘zlarini qo’llash hozirgi o‘zbek tilida ham saqlanib qolgan. Ot so‘z turkumidagi bu ot-terminga O‘zbek tilining izohli lug‘atida “*tuyaning bir yoshgacha bo‘lgan bolasi, bo‘taloq*” deb izoh berilgan va ko‘chma ma’noda “*bolalarni, yoshlarni bo‘taloqqa qiyos*

¹¹⁹Yo‘ldoshev M., Muhammedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – B.116.

¹²⁰ Bu haqida qarang: Yo‘ldoshev M., Muhammedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – B.117.

¹²¹Рахматов М. Поэтик нутк: структура ва семантика. Монография. –Тошкент, 2023. – Б.99.

qilib, erkalatib aytildigan so‘z” sifatida ishlatilishi keltirilgan (O‘TIL 1-jild, B.420). Demak, eski o‘zbek tilida ham bu so‘zning ko‘chma ma’nodagi qo‘llanishi mavjud bo‘lgan va Navoiy Qaysning otasi tilidan o‘g‘liga onasining holini bayon etar ekan, joni mahzun onaning holatini ishonchliroq tasvirlash uchun ham bu so‘zdan foydalanadi. Bundan avvalgi baytga e’tibor bersak:

“O‘g‘lum” der-u ul sifat chekar voy –

Kim, charx o‘qining qadin qilur yoy (“Layli va Majnun”, 2020:203).

Avvaliga “*o‘g‘lum*” so‘zi qo‘llanilgan bo‘lsa, keyingi baytda shu ma’noda “*bo‘tam*” so‘zining tanlanishi hissiyotlarda kuchayishni ifodalab, ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan.

Badiiy matn morfologik tahlil qilinar ekan, affikslarning badiiy matnda o‘ziga xos tarzda qo‘llanishiga ham to‘xtalish lozim. Masalan, badiiy matnda eng ko‘p qo‘llanadigan badiiy tasvir vositalaridan biri bu – **morfologik parallelizm**. Ma’lumki, morfologik parallelizm grammatik vositalarning gapda yoki nutq parchasida takror qo‘llanishidir. Quyidagi baytda ot so‘z turkumidagi motam marosimi termini (kafan) va anatomik termin (badan)ga jo‘nalish kelishigi (-g‘a)ning baytda takror qo‘llanishi orqali ta’kid, kuchaytirish oshgan:

Kirdi iki jism bir kafang‘a,

Yo ‘q, yo ‘q, iki ruh bir badang‘a (“Layli va Majnun”, 2020:273).

Navbatdagi misolda Navoiy ekologik terminlarga -dek qo‘shimchasini takror qo‘llash orqali go‘zal o‘xshatish hosil qilgan:

Ham ashki nishot anga yog‘indek,

Ham po‘yada sekridi choqindek (“Layli va Majnun”, 2020:271).

Asarda -cha affiksi turli o‘rinlarda turlicha terminlarga qo‘shilib, so‘z yasovchi shakllar o‘rtasida **affiksal omonimiyanı** hosil qilgan:

-cha affiksining sohaviy so‘zlarga qo‘shilib, affiksal omonimiyanı hosil qilishi

3-jadval

Affiks	Dostonda qo‘llanilgan bayt	Affiks ma’nosi
--------	----------------------------	----------------

-cha	<i>Men turkcha boshlabon rivoyat, Qildim bu fasonani hikoyat (293).</i>	Sifat yasovchi
	<i>Tirnog 'larin chu yuzga qo 'ydi, Tirnog ', tirnog 'cha yerlar o 'ydi (267)</i>	Ravish yasovchi
	<i>Bo 'lmog 'iting erur murodim, Yo 'q itcha o 'zumga e 'timodim (205)</i>	Ravish yasovchi
	<i>Ham xayli Bani Asadg 'a voli, Yuz xayli Bani Asadcha moli (121).</i>	Ravish yasovchi
	<i>Men dahrda bir zaif xasmen, Kim, jismda xascha ham emasmen (115)</i>	Ravish yasovchi

Doston terminlarini so‘z turkumlari jihatdan tahlil qilsak, asarda kelgan terminlarning aksariyati **ot so‘z turkumiga** oid so‘zlar ekanligini guvohi bo‘lamiz:

Bahrom ko‘rub biyik janobin,

Tashlab *qilichin*, o‘pub *rikobin* (“Layli va Majnun”, 2020:23).

Tog ‘ichra uni tushub sabodek,

Qum uzra tani quruq giyodek (“Layli va Majnun”, 2020:142).

Dostonda *-lar ko‘plik qo ‘shimchasining* turli soha terminlariga qo‘shilib, ko‘plik ma’nosidan tashqari qo‘shimcha ma’no ifodalashda ham foydalanganligini kuzatish mumkin. Masalan:

Oshiqqa jafo qilur uchun fosh,

Qo ‘yni-yu etaklari to ‘la tosh (“Layli va Majnun”, 2020:238).

Bu baytda oshiqqa jabr qilish uchun Najd tog‘ining butun bag‘ri va etaklari tosh bilan to‘lganligi aytildi. *Etak* terminiga *-lar* qo‘shimchasini qo‘shish orqali ma’no yanada kuchaytirilgan.

Vahimali tush ko‘rgan Majnun tush ta’birini o‘z qismatiga o‘xshatadi. Ota-onasining vafot etganligini anglab, tog‘dan shiddat bilan yugurib tushib, qabila qabristoniga yig‘lab, ming oh-u zorlar bilan kirib boradi. Qabrlar oralab yurib, ikki qabrga ko‘zi tushadi:

Tufrog'lar aro yangi yasalg'on,

G'am balchig'idin yuzi suvalg'on ("Layli va Majnun", 2020:246).

Bu baytda ham *tuproq* ekologik terminiga *-lar* qo'shimchasini qo'shish orqali ta'kid, kuchaytirish ma'nolari yuklangan. Navbatdagi misolda *-lar* qo'shimchasining ma'no kuchaytiruvchi vazifasi yaqqolroq namoyon bo'lgan:

O'z joniga aylamoq jafolar,

Tutmoq o'z-o'ziga azolar ("Layli va Majnun", 2020:253).

Navoiy Majnunning ota-onasi vafotidan keyingi holatini tasvirlashda "aza tutmoq" fe'lini "azolar tutmoq" shaklida qo'llaydi. Bu orqali Majnunning holati aza tutgandan-da ziyodaroq ekanligiga urg'u beradi.

Asarda fe'l so'z turkumiga oid **fe'l-terminlar** ham oz sonli bo'lsa-da uchraydi:

Kim, g'ofil ulus kibi *chekib o'q*,

Vahsh etidan o'zni istamak to'q ("Layli va Majnun", 2020:145).

Bo'lg'onda fusun qilurga hamdam,

Uylanmak ishin dedi ekin ham ("Layli va Majnun", 2020:194).

Kim bo'rilik etsa qovla oni,

Ul yer iti birla *ovla* oni ("Layli va Majnun", 2020:285).

"Layli va Majnun"da son so'z turkumiga oid **son-terminlar** ham uchraydiki, quyida aniq miqdorni ifodalashi kerak bo'lган sonning noaniq miqdorni ifodalab kelgan holatlari xususida to'xtalamiz. Ma'lumki, hisob ilmiga oid termin hisoblanmish **miqdor sonlar** aniq miqdorni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

Bir na'shqa soldilar ikovni,

Jonsiz kelin-u o'luk kuyovni ("Layli va Majnun", 2020:273).

Biroq, dostonda *bir* termini aniq miqdordan boshqa ma'nolarda ham qo'llangan. Masalan, quyidagi baytda Layli ta'rifi asnosida sifatdan oldin kelgan *bir* son-termini sifat orqali ifodalangan xususiyatni kuchaytirishga xizmat qilgan:

Bir toza niholi sarvqomat,

Kim, jilvasidin solib qiyomat ("Layli va Majnun", 2020:64).

Navbatdagi baytda *bir* terminini *takror* holatda qo'llash orqali "*birma-bir, navbati bilan*" degan ma'no ifodalanmoqda:

Ul ish neki voqi o 'ldi bexost,

Bir-bir dedi ul ikisiga rost (“Layli va Majnun”, 2020:80).

Keyingi misolda ham *bir* termini takror holda qo‘llangan. Ammo bu baytda “*bir-biriga*” degan ma’noni ifodalab kelgan:

Ochquncha yumub ko ‘z ul sipah tez,

Bir-birga tegib qilurg ‘a xunrez (“Layli va Majnun”, 2020:63).

Bir so‘zi kishi, nima so‘zlari oldidan kelib, noaniqlik ma’nosini ifodalagan:

Juz bir kishikim, sipehri bulbod,

Bilmas yana bir aning kibi yod (“Layli va Majnun”, 2020:51).

Xud qayda qadam urar majoli,

Ul bir nimakim yo ‘q ehtimoli (“Layli va Majnun”, 2020:50)

Navbatdagi misolda Navoiy bir so‘zini *birortasidan* ma’nosida qo‘llaydi:

Yuz shubha qilib bori muvajjah,

Kim, noqil emas biridin ogah (“Layli va Majnun”, 2020:39).

Xulosa qilib aytganda, “Layli va Majnun” dostoni terminlari ot, fe’l va son so‘z turkumiga oid so‘zlardan tashkil topganini kuzatdik. Morfologik birliklar dostonda turli badiiy maqsadlarni ifodalashda qo‘llanilgan.

3.2-§. Terminlar lisoniy-badiiy fenomen sifatida

Hazrat Alisher Navoiy dostonlarining tili va lingvopoetik xususiyatlari qaysi jihatdan o‘rganilishidan qat’iy nazar, Navoiy asarlari tili va poetikasi, o‘ziga xosligi va badiiy qimmati jihatdan hamma vaqt ilmiy izlanishlar uchun asos bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, terminlar turli jihatdan tahlil qilinar ekan, badiiy matn, xususan, mumtoz nazmiy matnda terminlarning uslubiy-funksional jihatlariga alohida to‘xtalish lozim. Terminlar ijodkorning badiiy tafakkuri bilan bog‘liq holda metaforik ko‘chim vazifasida yoki o‘xshatishli qurilmalar tarkibida kelib, lingvopoetik maqsadni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, hech qanday termin alohida olinganda lingvopoetik qimmatga ega emas. Terminlar bu xususiyatini faqat matn qurshovida, boshqa so‘zlar bilan munosabatida namoyon qila oladi.

D.Jamoliddinova fikricha: “Terminlarning funksional xususiyatlarini belgilashda ularning badiiy matnda epitet sifatida qo‘llanib, poetik jihatdan aktuallashuvi masalasini yoritish muhim ahamiyatga ega”¹²². Shu o‘rinda epitet termini xususida qisqacha to‘xtalib o‘tsak: **Epitet** - sifatlash tasviriy vositalarning xarakterli ko‘rinishi bo‘lib, u voqelik, tuyg‘u va predmetning o‘ziga xos tomonlarini, sifatlarini aniqlab, ta’kidlab, ajratib beradi, o‘rni kelganda nihoyatda bo‘rttirib ko‘rsatadi. Bu xususiyati bilan sifatlash badiiy aniqlovchi ham sanaladi¹²³. Ilmiy manbalarda epitetlar *tasviriy, lirik, liro-epik, doimiy, metoforik, baholovchi, bezak, kuchaytiruv* kabi turlarga ajratiladi¹²⁴. Tilshunoslik ilmida badiiy asarlarda qo‘llangan epitetlar haqida izlanishlar mavjud¹²⁵. Biroq bu tadqiqotlarning hech biri biz tadqiq qilayotgan doston xususida emas. Ta’kidlash kerakki, Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni tahlilida asarda juda ko‘p epitet qo‘llanganligi kuzatildi. Shu epitetlarning ichida termin-epitetlar mavjudligi terminning badiiy matndagi o‘ziga xos vazifasini ochishga xizmat qiladi. O‘zbek tili lug‘at tarkibining muayyan qismini tashkil etuvchi terminlar badiiy adabiyotda epitet sifatida qo‘llanar ekan, ma’lum narsa-hodisalarga xos xarakterli belgini emotSIONAL tarzda bo‘rttirishga xizmat qiladi¹²⁶. “Layli va Majnun”da qo‘llanilgan epitetlar tarkibi va tuzilishiga ko‘ra *sodda* va *tarkibli* ekanini ko‘rishimiz mumkin:

1. **Sodda epitetlar** tub yoki yasama bo‘ladi. Masalan:

Ushshoq taniki bo‘ldi tufroq,

Haryon ko‘runub so‘ngaklari oq (“Layli va Majnun”, 2020:49).

Turli ishqiy-sarguzasht dostonlarida uchraganidek, mazkur baytda ham epitetlar oshiqlik holatini ta’riflashga xizmat qilgan.

¹²²Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоетик ва лингвокултурологик хусусиятлари: Филол. фанлари док... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б.23.

¹²³Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм достонлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2000. – Б.19.

¹²⁴Кўнгиров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б.152.

¹²⁵Болтаева И.Т. Ўзбек халқ достонларида эпитет табиати: Филол. фанлари ном... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 20 б.; Муродов М. Ўзбек Гўрўғли достонларидағи доимий эпитетлар ҳакида // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – Тошкент: Фан, 1961. 3-китоб. – Б.344-353.; Раҳмонов Б. Анъанавий халқ эпосининг бадиий тили // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2005. – № 3. – Б. 21-24.; Жуманазарова Г. “Ширин билан Шакар” достонининг лугавий ва лингвопоетик хусусиятлари: Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2008. – 230 б.

¹²⁶Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоетик ва лингвокултурологик хусусиятлари: Филол. фанлари док... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б.25.

2. Tarkibli epitetlar. Bunday epitetylarning aksari ikki, uch va undan ortiq komponentli bo‘lib, asosan -li affiksi orqali yasalgan sifat boshqaruvidagi birliklardan, sifatdosh oborotlaridan, qaratqich-qaralmish shaklidagi perifrastik ifodalardan va ba’zan forscha izofali birliklardan tuziladi. Ular ham sodda epitetylarda kuzatilganidek, dostondagи epik qahramonlarning turli belgilar-xususiyatlarning muayyan vaziyatdagi qiyofalari, ko‘rinishlarini xarakterlashga xizmat qiladi¹²⁷. Biz mazkur dostonda -li qo‘sishchasi bilan yasalgan sifat boshqaruvidagi epitetylarni uchratmadik. Sifatdosh oboroti bilan shakllangan epitetyl esa doston tiliga badiiy bezak bergenini ko‘rish mumkin:

Go ‘riston ichra zoru mahjur,

O’lgон kishidek hayotdin dur (“Layli va Majnun”, 2020:258).

Shuningdek, Doston matnida qo‘llanilgan epitet-terminlarning ayrimlari **perifrastik epitetylар** bo‘lib, ularning qismlari *qaratqich-qaralmish* tipidagi birliklar bilan shakllanganligini ko‘rish mumkin:

Tun o ‘ylaki, mehri osmoni,

Olam elidin bo ‘lub nihoiy (“Layli va Majnun”, 2020:21);

Xilqat aro nurdin sirishti,

Ne nur, farishtai bihishti (“Layli va Majnun”, 2020:22);

Ey kishvari husn podshohi,

Husn ahli bu kishvaring sipohi (“Layli va Majnun”, 2020:90).

Doston matnida eng ko‘p qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalaridan yana biri – **o‘xshatishdir**. O‘xshatish adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug‘atida quyidagicha izohlangan: “...ikki narsa yoki hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali, ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, aniqroq bo‘rttiribroq ko‘rsatib beradi”¹²⁸. Ko‘proq ilmiy uslubga xos deb qaraluvchi *terminlar* bazan badiiy matnda o‘xshatish vositalarini qabul qilib, badiiy matnning ta’sirchanligini oshirishga, o‘quvchi badiiy tasavvurini boyitishga

¹²⁷Жуманазарова Г. “Ширин билан Шакар” достонининг лугавий ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2008. – Б.106.

¹²⁸Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изохли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.294.

xizmat qiladi. Ma'lumki, o'xshatishlar tarkibiy jihatdan o'xshatish obyekti «**asos**», o'xshatish timsoli - «**timsol**» o'xshatish belgisi - «**belgi**» va o'xshatish vositasi - «**vosita**» dan iborat bo'ladi. “Layli va Majnun”ning XXXIII bobida Majnunning qabristonga yeldek borib, ota-onasining qabrlari boshida yetimlik darsi bilan nolayu fig'on chekkani tasvirida, quyidagicha bayt keltiriladi: *Ko 'p abri bahordek o 'kurdi, Kaf sel kibi yuziga urdi* (“Layli va Majnun”, 2020:249). Ya'ni, bahor bulutidek o'kirib, sel kabi yuziga shapaloqlar urdi. Ushbu baytda *bulut* va *sel* ekologik terminlari o'xshatish timsoli bo'lib kelib, Majnunning motamzada, g'am-anduhli holatini o'xshatish orqali ifodalamoqda. Motamzada Majnunning holatidan betob Layliga xabar bergenlar Majnunning qabristonda xor-u zor yotgancha, ota-onasi firoqida yonayotgani-yu Laylining yo'liga intizor ekanligi holatini quyidagicha bayon etadi:

Goh o 'zida, goh yo 'q o 'zida,

Mayyit kibi nur yo 'q ko 'zida (“Layli va Majnun”, 2020:259).

Bu baytda motam marosimi terminidan o'xshatish timsoli sifatida mohirona foydalanilgan. “Layli va Majnun” dostonidagi termin ishtirokidagi o'xshatishlarda ikki xil birliklar qo'llanilgan: **morfologik va morfologik-leksik vositalar** orqali.

a) **morfologik vositalarga**: *-dek*, affixi hamda *kibi*, *yanglig* ‘yordamchi so‘zлari kiradi. Navoiy “Layli va Majnun” dostonining ustozи Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan VI bobida Jomiy ijodiyotini shunday ulug‘laydi:

Ham nazming nasrdek kelib xub,

Ham nasring nazmdek diloshub (B.35).

Ushbu epik parchada o'xshatishning to'rtala uzvi to'liq ishtirok etganini ko'ramiz. Birinchi misrada timsol – nasr, vosita – dek, belgi – xub, asos – nazming. Ikkinci misrada timsol – nazm, vosita – dek, belgi – diloshub, asos – nasring. Bu baytda *adabiyotshunoslikka doir nazm* va *nasr* terminlari o'xshatish asosi va timsoli vazifasini bajarib, Jomiy ijodiy merosi xususiyatlarini to'laroq ochishga xizmat qilgan. Yana bir baytda Navoiy Majnunning firoq chog‘idagi

iztirobini *ovchilikka oid* hamda *zoologik terminlar* vositasida yaqqol ko‘rsatib berishga erisha olgan:

Yo ‘q kunduz-u kecha xo ‘rd-u xobi,

Dom ichida qushdek iztirobi (“Layli va Majnun”, 2020:110).

Yana bir necha o‘rinlarda turli terminlar *-dek* vositasi yordamida o‘xshatish asosi yoki timsoli vazifasini bajarganini kuzatish mumkin:

Ul toza bahori nozparvard,

G‘unchadek ichini qon qilib dard (“Layli va Majnun”, 2020:82); (botanik termin).

Ashobg‘a mayli lolavu bog‘,

Ul ikki ichinda loladek dog‘ (“Layli va Majnun”, 2020:75);

(botanik termin).

Yog ‘in demakim bulut aduvdek,

Paykon to ‘kub elga qatra suvdek (“Layli va Majnun”, 2020:49); (harbiy termin, ekologik termin).

Yog ‘durdi ko ‘zi yoshin yog‘indek,

Oh urdiyu sekridi choqindek (“Layli va Majnun”, 2020:B.135), (ekologik termin).

Shuningdek, dostonda *kibi* yordamchi vositasi yordamida terminlarning o‘xshatish timsoliga aylangan holatlarni ham ko‘plab uchratamiz. Laylining bog‘da ishq ichra sarmast yurgani holatini ifodalashda *botanik termin(gulbarg)*dan foydalanilgan:

Chun ishq bu otashin gul ochti,

Gulbarg kibi sharora sochti (B.123).

Quyidagi baytlarda ham *kibi* yordamchi so‘zi orqali turli soha va fanga oid terminlarning doston matnida *o‘xshatish timsoli* vazifasida kelganini kuzatamiz:

Gulga beribon zumurradiy taxt,

G‘uncha kibi aylading javonbaxt (“Layli va Majnun”, 2020:7);

(botanik termin).

Oraz xayidin sochib nihoni,

Shudrun kibi obi zindagoni (“Layli va Majnun”, 2020:20); (ekologik termin).

Jannat kibi anda bazmgohe,

Taxt ustida bir xujasta shohe (“Layli va Majnun”, 2020:37); (diniy termin).

Lola kibi zohir aylabon ko ‘rk,

Egri qo ‘yubon qizil teri bo ‘rk (“Layli va Majnun”, 2020:42); (botanik termin).

So‘kso‘k kibikim chu bo ‘ldi puda,

Yotqan yozi uzra to ‘da-to ‘da (“Layli va Majnun”, 2020:49); (botanik termin).

Chirmab yapa kishu os birla,

G‘uncha kibi yuz libos birla (“Layli va Majnun”, 2020:58) (botanik termin).

Tab’ida quyosh kibi harorat,

Ayshig‘a solib edi marorat (“Layli va Majnun”, 2020:66); (astronomik termin).

Yanglig‘ yordamchi so‘zi ham o‘rganilayotgan dostonda bir necha o‘rinlarda terminlarni badiiy o‘xshatishga aylantirgan. Quyidagi baytda *ijtimoiy-siyosiy termin (qul) yanglig‘* vositasi yordamida o‘xshatishni hosil qilib, matn ta’sirchanligini oshirgan:

Qul yanglig‘ o‘g‘ullug‘ungni qilsam,

Ug‘ul kibi qullung‘ungni qilsam (“Layli va Majnun”, 2020:251).

Doston matnidan yana ko‘plab misollar keltirish mumkin:

Buyrug‘laring elga qarz yanglig‘,

Sunnatlaring ulga farz yanglig‘ (“Layli va Majnun”, 2020:16). (ijtimoiy-siyosiy, diniy terminlar).

Qahr etsa dami samum yanglig‘,

Xoro iligidida mum yanglig‘ (“Layli va Majnun”, 2020:61), (samum – hamma narsani quritadigan issiq shamol; garm sel. 3.36 – ekologik termin, mum – kimyoviy termin).

Dol o‘ldi sinoni shed yanglig‘,

Hayat bila bargi bed yanglig‘ (“Layli va Majnun”, 2020:154).

(Shed-Xurshidning qisqargan shakli, quyosh; NAIL 3-jild, B.518, astronomik termin; bed-tol daraxti; NAIL 1-jild, B.254, botanik termin).

b) morfologik-leksik vositalar: -dek bo‘lib, bor onchaki kabilar shular jumlasidandir. Bu vositalar yordamida terminlarning o‘xshatishlarni hosil qilishi asarda oz miqdorda uchraydi:

Zuhra yo 'lida tuzub navozir,

Mutriblardek bo'lub miyongir (“Layli va Majnun”, 2020:22), (musiqaga oid termin).

E'joz ila sihr aro tafovut,

Bor onchaki Ka'ba ollida but (“Layli va Majnun”, 2020:31), (diniy termin).

Doston leksikasida qo'llangan termin-o'xshatishlar xususiyatlariga ko'ra bir-biriga yaqin, ular, asosan, voqeа yoki holatni obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Hozirgi adabiy tilda qo'llanadigan o'xshatishlarda o'xshatish obrazi bilan o'xshatilayotgan obraz muayyan belgini bir-biriga bog'lovchi vosita - dek, -day qo'shimchalari hisoblansa, “Layli va Majnun” dostonida bu vazifani *-dek, kibi, yanglig'*, *-dek bo'lib, bor onchaki* kabi shakldagi vositalar bajaradi. Tahlillardan va kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, o'xshatish turli obyektlar o'rtasida yuzaga keladi. “Layli va Majnun” dostonida termin-o'xshatishlar, asosan, jonli va jonsiz narsalar o'rtasida, tabiat hodisalari bilan inson ruhiyati o'rtasidagi o'xhashliklar asosida yuzaga kelgan. Holatni ifodalashda botanik terminlardan keng foydalanilgan.

Terminlarning badiiy-uslubiy xususiyatlari haqida fikr yuritilar ekan, metafora hodisasiga ham to'xtalishni lozim topdik. “...**metafora** insonning hissiy boyligi va aqliy-ruhiy iqtidori bilan hosil bo'ladi. Demak, his-tuyg'u, aql (ratsio) va ruhiy aloqadorligi metaforaning yaratilishiga olib keldi. Metafora amalda qiyoslab bo'lmaydigan narsalarni qiyoslashga, mezonsiz narsalarni mezonlashga, tasavvur qilib bo'lmaydigan narsalarni idrok etishga imkon beradi. Binobarin, metafora tilning muqarrar hodisasi emas, balki inson tafakkurining mahsuli bo'lib, til vositasida ifodalananadi”¹²⁹.

Ijodkor tafakkur faoliyatining kognitiv darajasida obrazli kontseptlar namoyon bo'ladi, biror voqelik mazmuni yangicha tus olayotganda, in'ikos standartlashtirilgan fikrlarga bo'ysunmasdan, betakror ifodalar kashf qiladi, masalan, ushbu omillar milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangan metaforik

¹²⁹ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоков Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.36.

tejamlilik tipida voqelanib, ijodkorning badiiy niyati bilan uyg‘unlashadi. Metaforaning semantik-struktur planida “keng mazmun + ixcham shakl” modeli ustunlik qilsa, ushbu qisqartirilgan qiyos kognitiv planda tafakkur va madaniyat hamkorligi, lingvopoetik planda badiiy-estetik umumlashma sanaladi¹³⁰. Darhaqiqat, metaforalar matn badiyligini, emotsionalligini ta’minlovchi muhim vositalardan biridir. Ma’lumki, metafora ma’no ko‘chishining keng tarqalgan turi bo‘lib, shu kungacha ko‘plab lingvistik tadqiqotlarning asosi bo‘lib kelgan. So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda esa metaforani bilish faoliyatining mahsuli sifatida baholash ko‘zga tashlanmoqda. Xalq dostonlari tilini lingvopoetik tadqiq qilgan G.Jumanazarova metaforaning she’riy matnlardagi roli xususida quyidagilarni bildiradi: “Metaforadagi assotsiatsiyaga ko‘ra nomlash, obrazli tasvirlash, ekspressivlik, ifodalash xususiyatlari asarda his-tuyg‘u va kayfiyatni aniq, yorqin, ixcham, ta’sirchan tarzda yetkazib berish imkonini beradi. Metafora ixchamligi, semantik serqirraligi bilan she’riy matnning tor doirasiga juda mos keladi. Shuning uchun ham o‘zbek xalq dostonlari metaforalarga juda boy”,¹³¹ O.Karimov ham metaforaning poetik nutqdagi o‘rni va ahamiyati haqida to‘xtaladi: “Metafora til hodisasi bo‘lsa ham, o‘zining bu xususiyatini poetik nutqdagina to‘la namoyon etadi. Boshqacha aytsak, metafora poetik nutqdagina badiiyat hodisasi, ya’ni badiiy obraz sifatida qabul qilinadi. Zero, metafora narsa-hodisani shunchaki atabgina qo‘ymaydi, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi, ongimizda atalayotgan narsa haqida jonli tasavvur – obraz yaratadi. Ta’kidlash kerakki, bu obraz poetik nutqdagina asl holicha, ya’ni obraz sifatida qabul qilinadi, nutqning boshqa ko‘rinishlari doirasida esa uning pirovard maqsadi nominatsiya bo‘lib qolaveradi va tushuncha sifatida qabul qilinadi”¹³². Shu o‘rinda yozma adabiyotdagi dostonlarda ham metaforaning go‘zal namunalari uchrashini ta’kidlash joiz. Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni matnida ham ko‘plab metaforalar mohirona aks etgan bo‘lib, ular orasida terminlarning metaforik

¹³⁰Юсубова Р.Н. Тежамлилик ва ортиқчаликнинг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари ном... дисс автореф. – Самарқанд, 2021. – Б.20.

¹³¹Жуманазарова Г. “Ширин билан Шакар” достонининг лугавий ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2008. – Б.130.

¹³²Karimov O. Jahon adabiyoti, 2014, №8. – B.23.

qo‘llanishi, bizningcha, alohida diqqatga sazovor. Metaforalar doston tarkibida odatiy so‘zlarning ma’no doirasini kengaytirib uning yangi-yangi semalar hosil qilshi uchun yo‘l ochadi va asosan ot, sifat, fe’l va turli birikmalar bilan ifodalanadi¹³³. “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan termin metaforalar, asosan, ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib, hayvonlar, o‘simpliklar, osmon jismlari, tabiat unsurlari, epik qahramonlarni obyekt o‘rnida keltiradi. Quyidagi misolda *libos* (tikuvchilikka oid) termini Quyoshning nurlariga nisbatan ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, Navoiyning poetik niyatini yuzaga chiqarish uchun xizmat qilgan:

Isog ‘a etib chu kimiyozi,

Zarbaft bo‘lub quyosh libosi (“Layli va Majnun”, 2020:23).

Libos terminining *hayo libosi, kamtarlik libosi* kabi ko‘chma ma’nolari bugungi o‘zbek tilida ham qo‘llaniladi. Biroq, *quyosh libosi* shaklida qo‘llanilishini kuzatmadik.

Navbatdagi baytda ekologik termin bo‘lgan *chashma* so‘zi metaforani hosil qilganini ko‘ramiz:

O‘yg ‘onlar ichindakim, sizib qon,

Ko‘z chashmalaridek oqizib qon (“Layli va Majnun”, 2020:268).

Ko‘z chashmalaridek birikmasi o‘xshatishli qurilmani hosil qilib, matnning ta’sir kuchini oshishiga xizmat qilgan. *Ko‘z chashmasi* shaklidagi metaforik birikma hozirgi o‘zbek adabiy tilida, zamonaviy adabiyotdagi ko‘plab namunalarda ham uchraydi.

Keyingi baytda Navoiy anatomik termin(yuz)dan metafora sifatida foydalanganini ko‘rish mumkin: *Yaproq yuzi bo‘ldi barcha sorig’, Oyin magar o‘ldi sorig‘ og‘rig‘* (259). *Yuz* termini ko‘chma ma’noda hozirgi o‘zbek tilida ham qo‘llanadi: *kitobning yuzi, kabi.*

Qaysning otasi Allohga ko‘p yolvorib, niyatiga yetdi, ya’ni Alloh unga farzand berdi. Dostonda shu o‘rinda “dur” termini farzand ma’nosida qo‘llaniladi.

Alqissa atosi topqach ul dur,

¹³³Жуманазарова Г. “Ширин билан Шакар” достонининг лугавий ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2008. – Б.132.

Ko ‘p sochti guhar, qilib tafoxur (“Layli va Majnun”, 2020:58).

Dostonda qo‘llangan termin-metaforalar bo‘yicha olib borilgan kuzatishlardan chiqarilgan xulosa shuki, Navoiy “Layli va Majnun”da termin-metaforalarni yuksak mahorat bilan qo‘llagan. Bu dostonning yana-da ta’sirchan, jonli va jozibador bo‘lishiga hissa qo‘shgan.

Alisher Navoiy mazkur dostonda zoonimlardan turli badiiy maqsadlarni ochib berishda foydalanganligini ko‘rish mumkin.

Zoonimlarning turli badiiy maqsadlarda qo‘llanishi

4-jadval

Zoologik termin	Terminning NAIL dagi izohi	Baytda qo‘llanishi
Bo‘ri	Bo‘ri; (1-jild, B.346)	<i>Tun boshingga vahsh o‘lur ekin jam’,</i> <i>Olingda bo‘ri ko‘zi ekin sham</i> (B.185).
G‘azola	Urg‘ochi kiyik, moda kiyik; (4-jild, B.97)	<i>Sahroyi latofat ichra lola,</i> <i>Ne lolaki, mushkbo ‘g‘azola</i> (B.156).
It	It, kuchuk; (2-jild, B.59)	<i>Ham itligingizni tashlangiz chust,</i> <i>Ham itlaringizni bog‘langiz rust!</i> (B.144).
Xuffosh	Ko‘rshapalak; (3-jild, B.438)	<i>Kun vasfini qilmoq oshkor,</i> <i>Xuffosh tiliga qayda yoro?</i> (B.190).
Nasnos	Maymun; (2-jild, B.436)	<i>Dad har sori ketsa ketmak o‘lmas,</i> <i>Nasnosni odam etmak o‘lmas</i> (B.05).
Pashsha Pil	Chivin, pashsha; (2-jild, B.569)	<i>Pashsha kim-u pillik xayoli,</i> <i>Yo mo‘rg‘a sherlik majoli</i> (B.193).

Mo‘r	Fil; (2-jild, B.572)	
Sher	Chumoli, qumursqa; (2-jild, B.413) Sher, arslon; (3-jild, B.519)	
Turno	Turna; (3-jild, B.259)	<i>Har balbalani qilur makoni,</i>
Tazarv	Tustovuq, qirg‘ovul; (3-jild, B.163)	<i>Turno ko ‘zi-yu tazarv qoni (B.74).</i>
Cho‘g‘z	Boyo‘g‘li; (3-jild, B.483)	<i>Gah cho‘g‘z bila navoda Hamdard,</i>
Bum	Boyqush; (1-jild, B.334)	<i>Gah bum yuzidin oritib gard (B.198).</i>
Bulbul	Bulbul; (1-jild, B.331)	<i>Bulbul topmay o ‘zin azosiz, Bo ‘lg‘ay pari bo ‘ynig‘a qaro qiz (B.261).</i>

Navoiy “Layli va Majnun” dostonida aksariyat o‘rinlarda terminlar yordamida o‘ziga xos badiiyat yaratgan, fikrlarini asoslagan. Masalan, quyidagi o‘rinda “samg” termini yordamida tamsilning yuksak namunasini yuzaga keltirgan:

Bejazb sarig‘ erur riyoliq,

Samg‘ aylay olurmi kahraboliq (“Layli va Majnun”, 2020:297).

Ya’ni, sariq belgiga ega bo‘lgani bilan samg‘, daraxt yelimi kahrabo bo‘la olmaydi-ku.

Doston matnida Muso payg‘ambarga ko‘ringan nurli bir daraxtni bildirgan ifodalagan “ayman” aynan shu dostonda Arabistonagi joyning nomi, ya’ni *Vodiyi Ayman* tarzida ham qo‘llanilishi muallifning o‘z bilimlarini matnga naqadar ustamonlik bilan krita olish mahoratidan dalolat. Xuddi shunday holat “asad” so‘zi bilan bog‘liq o‘rinlarda ham uchraydi, ya’ni doston matnida “asad” *sher, arslon* ma’nosida, ham arab qabilasining nomi ma’nosida, astronomik termin bo‘lib, o‘n ikki burjning biri sifatida ham istifoda etilgan. Shuningdek, doston matnida bir martagina ishlatilgan terminlar ham mavjudki, muallif *anboncha*,

arusak, bang kabi terminlardan faqat bir o‘rinda foydalanish orqali o‘zining badiiy maqsadiga erishgan. Bunda ijodkor ko‘pincha qofiya talabi tufayli ham terminga murojaat qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, quyidagi o‘rinda *bang* so‘zi birinchi misradagi *dang* so‘ziga qofiyadosh bo‘lgani uchun o‘xshatish orqali qo‘llanilgan:

Qo ‘pti dog ‘i uyda tebradi dang,

May ichra kishi yegan kibi bang (“Layli va Majnun”, 2020:86).

“Layli va Majnun” dostonida ishlatilgan terminlarni tahlilga tortganimizda omonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan terminlarning ham borligiga guvoh bo‘ldik. Masalan, asarda ayrim terminlarning so‘zlar bilan omonimlik hosil qilganini kuzatish mumkin. Masalan, *ayn* termini ba’zi o‘rinlarda *ko ‘z*, *diyda* ma’nosida, ba’zi o‘rinlarda *xuddi* yordamchi so‘zi ma’nosida qo‘llanilgan:

Adli yorutub jahonni jovid,

Ul adl boshida ayni xurshed (“Layli va Majnun”, 2020:44).

Chek aynima ishq to ’tiyosin,

Ur qalbima ishq kimi yosin! (“Layli va Majnun”, 2020:137).

Terminologiya sohasida sinonimianing murakkab va to‘liq yechimga ega bo‘limgan muammo ekanligi ma’lum. Bu lisoniy hodisaga nisbatan turli va bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan fikrlar mavjud. Terminlarda sinonimiya mavjudligini inkor etuvchi, bunday holatni dubletlik hisoblovchi olimlar bor. Xusan, I.Ermatov: “Terminlarda ko‘pincha ideografik xarakterdagи sinonimiya kuzatiladi. Biz buni terminlarda dubletlik deb atashni lozim topdik: *qo ‘shimcha va affiks, old qo ‘shimcha va prefiks, gapning grammaik asosi va gapning predikativ markazi, ikki sostavli gap va ikki bosh bo ‘lakli gap, bir sostavli gap va bir bosh bo ‘lakli gap* terminlari munosabatida sinonimianing ana shu turi mavjud”¹³⁴, – degan fikrlarni bildiradi. Bunday qarashni esa terminning yagona bir ma’noli so‘zga va ma’noga ega bo‘lgan predmet hamda hodisani anglatishi bilan asoslashadi. Bizning fikrimizcha ham, terminlar anglatadigan barcha ma’nolar ham sinonimik

¹³⁴ Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. – Тошкент: Tamaddun, 2022. – Б.16.

munosabatlarga kirishavermaydi. O‘rganilayotgan doston matnida, dublet terminlar: *maktab* – *dabiston*; *asad* – *babr*; *dad* – *sher*; *sahro* – *doman* va boshqalar. Doston matnida qo‘llanilgan paronim terminlar sifaqtida *alam*(bayroq) – *a’lam* (donishmand) so‘zlarini keltirishimiz mukin.

3.3-§. Doston terminlarining sintaktik va semantik xususiyatlari.

Ijodkorlarning poetik mahorati sintaktik birliklarni qo‘llashida alohida bosqichda namoyon bo‘ladi. Bu borada terminlarning sintaktik, semantik va kommunikativ xususiyatlarini yoritish ham muhim masala sanaladi. Sintaktik usuldan badiiy nutqning ta’sirchanligini oshirishda keng foydalaniladi. “Layli va Majnum” dostoni sintaktik qurilishida terminlar alohida funksiyalar bajargan. Dostonda qo‘llanilgan terminlar gap bo‘laklarining grammatik shakllanishida muhim element sifatida ishtirok etgan. Olimlar ilmiy adabiyotlarda sintaktik figuralarning quyidagi turlari mavjudligini keltiradilar: 1. Sintaktik parallelizm. 2. Emotsional gap. 3. Ritorik so‘roq gap. 4. Inversiya. 5. Ellipsis. 6. Gradatsiya. 7. Antiteza. 8. Farqlash. 9. O‘xshatish¹³⁵. Quyida “Layli va Majnum” dostoni terminologiyasida uchraydigan shu kabi sintaktik modellarning ayrimlariga to‘xtalamiz.

Sintaktik parallelizm. Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplarga nisbatan parallelizm termini qo‘llanadi. Adabiyotshunoslikda parallelizm badiiy matnning o‘zaro bog‘liq qismlaridan nutq unsurlarining o‘xhash yoki aynan bir xilda joylashuvini taqozo etuvchi poetik nutq usullaridan va tasvir vositalaridan biri¹³⁶. Doston matnida bir necha baytning sintaktik parallelizm asosida qurilgan holati mavjud. Xususan, Majnunning Layliga bitgan maktubida shunday satrlar bor:

Kim, muncha kelib balo boshimg ‘a,

Yuz dard-u balo qaro boshimg ‘a (“Layli va Majnum”, 2020:192).

¹³⁵Yo‘ldoshev M., Muhammedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – B.119.

¹³⁶<https://izoh.uz/uz/word/parallelizm>

R.Shukurov sintaktik parallelizmning badiiy matndagi uslubiy vazifalari xususida: “Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va eng muhimi, unga tinglovchini to‘la ishontira olishdan iborat”¹³⁷, – degan fikrlarni aytadi. Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan misolda Majnunning ruhiy holati hol vazifasida kelgan *boshimg‘a* (anatomik termin) so‘zini takrorlash orqali ta’kidlanmoqda. Majnunning ota-onasi qabrida qilgan armonli nolasida ham sintaktik parallelizmning yorqin namunasi yaratilgan:

Qul yanglig‘ o‘g‘ullug‘ungni qilsam,

O‘gul kibi quillug‘ungni qilsam (“Layli va Majnun”, 2020:251).

Bu baytda birinchi misra *hol* – *to ldiruvchi* – *kesim*, tarzida shakllangan bo‘lsa, ikkinchi misra ham xuddi shunday sintaktik bo‘laklardan iborat. *Qul* va *o‘g‘ul* terminlarining birinchi va ikkinchi misralarda joy almashib kelishi esa, baytdagi ohangdorlik, ifodalilik va badiiylikni oshirgan.

Ham yuzni sening yuzingga surtay,

Ham ko‘zni sening ko‘zingga surtay (“Layli va Majnun”, 2020:242).

Mazkur baytda Majnunning Najd tog‘ini makon qilgan paytdagi nolalari aks etgan. *Yuz*, *ko‘z* anatomik terminlari va surtmoq fe’li takrori yordamida fikr ravon, san’atkorona ifodalangan.

Emotsional gaplar. Adabiyotlarda emotsiyal gaplarga quyidagicha ta’rif beriladi: “So‘zlovchining o‘ta xursandlik yoki o‘ta xafalik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini, voqeа-hodisaga emotsiyal munosabatini ifodalovchi gaplar emotsiyal gaplar hisoblanadi”¹³⁸. Bunday gaplarda maxsus ijobiy yoki salbiy bo‘yoq dor so‘zlar, his-hayajon ifodalovchi undovlar, undalmalar qatnashadi va ular nutqni yana-da ta’sirli qiladi. “Layli va Majnun” dostonida *diniy termin* undov so‘z bilan birga *undalma* vazifasida kelib, matnda aynan shunday funksiya bajargan:

Ko‘nglum g‘am ila to‘q ayla, yo Rab!

Ishq ichra meni yo‘q ayla, yo Rab! (“Layli va Majnun”, 2020:137).

¹³⁷Shukurov R. Sintaktik parallelizmning uslubiy vazifalari//O‘TA, 2004, №2. – B.73.

¹³⁸Yo‘ldoshev M., Muhammedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – B.120.

Ota-onasi Majnunni ishq dardidan xalos etish umidida Ka’ba ziyoratiga olib borgan paytdagi Majnunning Allohga iltijosi tasvirlangan ushbu baytda undalma vazifasida kelgan undov so‘z va termin vositasida ekspressivlik oshganini ko‘rish mumkin. Xuddi shu holatni quyidagi baytda ham kuzatish mumkin:

Yig‘lab dedi: “Ey rafiqi majruh!

Netgay sanga aylasam fido ruh?” (“Layli va Majnun”, 2020:166).

Ritorik so‘roq gaplar ham badiiy matnning emotisionalligini ta’milovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi. Quyida doston matnida *zoologik terminlar* ritorik so‘roq gap tarkibida kelib, ta’sirchanlikni, ekspressivlikni oshirishga xizmat qilganini ko‘rish mumkin:

Parvonani ishq etmasa mast,

Urgaymu o‘zini o‘tqa payvast? (“Layli va Majnun”, 2020:280)

Yana bir baytda:

Kun vasfini qilmoq oshkoro,

Xuffosh tiliga qayda yoro? (“Layli va Majnun”, 2020:190).

Quyidagi baytda esa *ekologik terminlar* ishtirokida ritorik so‘roq gap shakllanganini kuzatamiz:

Gar ashk bu o‘tni aylamas kam,

Yomg‘ur suvidin choqing ‘a ne g‘am? (“Layli va Majnun”, 2020:279)

Inversiya. Ma’lumki, inversiya gap bo‘laklarining o‘rin almashuvi, gap bo‘laklari joylashish tartibining ma’lum maqsad bilan o‘zgarishi hodisasini anglatadi. She’riyatda inversiya hodisasiga juda ko‘p duch kelamiz. Sababi, she’riyatda inversiya ohangdorlikni, ifodalilikni, ta’sirchanlikni ta’milovchi asosiy uslubiy vositalardandir. Doston matnidagi sintaktik shakllar inversiyasini ikki turga ajratish mumkin: *bosh bo‘laklar inversiyasi* va *ikkinchi darajali bo‘laklar (so‘z birikmali) inversiyasi*. Terminlarning inversiya holida qo‘llanilishi dostonda uslubiy bo‘yoqdorlikni ta’minlab, ekspressivlikni oshirish vazifasini bajargan. Asarda terminlar ko‘p hollarda inversiyaga uchragan shaklda qo‘llanilgan. Ulardan ayrimlarini keltiramiz:

Kam qilmamish erdi bu navoni-

Kim, haydin keldi it fig’oni (“Layli va Majnun”, 2020:94).

Jismimni talashsa erdi itlar,

Qonimni yalashsa erdi itlar (“Layli va Majnun”, 2020:113).

Yod esa tazarydek xiromim,

Bo ‘lurmu ekin asiri domim? (“Layli va Majnun”, 2020:131)

Chun jazm qilib bu ishni tojir

Sud ista-yu mulkidin muhojir (“Layli va Majnun”, 2020:41).

Nargis olur o ‘lsa bodadin kom,

Noranj terisidin yasar jom (“Layli va Majnun”, 2020:74).

Ellipsis (yun.tushish, tushirilish) – nutqda gap bo‘laklaridan birining muayyan maqsad bilan tushirilishi bo‘lib, bu hodisa lingvistik tejamkorlik asosida hosil bo‘ladi. Professor N.Mahmudov ilk marotaba mavzuga kengroq yondashib, semantik, situativ hamda kontekstual ellipsis turlarini ajratadi va ularning vujudga kelishi bilan bog‘liq masalalarini tahlil qilgan. Olim anaforik ellipsisiga xos xususiyatlarni xalq maqollari misolida tahlil qilgan¹³⁹.

Tilshunos J.Eltazarovning o‘zbek tilida qisqaruv, tildagi tejamkorlik tamoyili va qisqaruv hodisalariga bag‘ishlangan tadqiqotlari tilshunoslikda bu boradagi yondashuvlar yangicha qarashlar bilan boyitilgani bilan ahamiyatlidir¹⁴⁰.

“Ellipsis – kontekst yoki situatsiya bilan bog‘liq holda matnda qayta tiklash mumkin bo‘lgan ifoda birliklarini tushirish, reduktsiya – sintaktik ifodada (semantik) argument sifatida situatsiyani yopiq ifodalovchi til birligi”¹⁴¹.

Yana bir tilshunos F.Ibragimova ellipsis va antiellipsis hodisalarini tadqiq etishga lingvopoetik nuqtai nazardan yondashadi hamda mohiyatan tejamlilik va ortiqchalikka mansub ikki hodisani qiyosiy o‘rganish asnosida ularning o‘ziga xos

¹³⁹Махмудов Н. Эллипсис в современном узбекском языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1977. – С. 110.

¹⁴⁰Элтазаров Ж.Д. Усечение в узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Самарканд, 1992. – С. 21; Элтазаров Ж. Тилдаги тежамлилик тамойили ва қисқарув. – Самарканд: САМДУ, 2004. – 111 б.

¹⁴¹Грудева Е.В. Избыточность текста, редукция и эллипсис (на материале русского языка): Автореф. дисс. ... д-ра. филол.наук. – Санкт-Петербург, 2008. – С. 8.

xususiyatlarini ochib bergan¹⁴². Doston matnida ham ayrim hollarda ba’zi terminlarning ellipsisga uchragani kuzatiladi:

Yo ‘qluq manga gar urubturur yo ‘l,

Sen bor bo ‘l-u bu yo ‘qqa yor o ‘l (“Layli va Majnun”, 2020:195).

Mazkur misolda ikkinchi misrada “odam, kishi” termini ellipsisga uchragan. Bu so‘z *vositali to ‘ldiruvchi* vazifasida “yo‘q *kishiga*” ma’nosini ifodalamoqda. Odatda, ellipsis hodisasi jonli nutqda ko‘p qo‘llaniladi. She’riy matnda esa so‘zlarning tushirilishi ba’zan vazn talabi bilan amalga oshirilsa, ba’zan ijodkorning ijodiy mahorati bilan yuzaga chiqadi. Buning natijasida badiiy matnda ifodalilik oshadi. Yana bir misolda *bola/chaqaloq* so‘zлari ellipsisga uchragan. Majnun ota-onasining qabriga borib, nola-yu fig‘on chekkanda, onasining go‘ri boshida shunday nadomat qiladi:

Tuqqonda ne bo ‘lg ‘ay o ‘lsam erdi,

Tug‘mog ‘on ila teng o ‘lsam erdi (“Layli va Majnun”, 2020:250).

Baytning ma’nosi: Tug‘ilgan chog‘imdayoq o‘lsam bo‘lmasmidi, koshki tug‘ilmagan bolalar qatorida bo‘lsam. Ko‘rinadiki, ko‘pincha sintaktik jihatdan *sifatlanmish* gapda tushib qoldiriladi, uning ma’nosi *sifatlovchiga* yuklatiladi.

Antiteza. Antitezaga adabiyotlarda quyidagicha sharh beriladi: “Mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo‘yish, zidlash hodisasiga aytildi. Voqeа-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun, asosan, badiiy nutqda zid ma’noli qo‘shimchalar, zidlovchi bog‘lovchilar, so‘z va iboralardan foydalaniladi”¹⁴³. Demak, antitezada ikki tushuncha qiyoslash orqali zidlanadi. Badiiy matnda ijodkor mahorati antitezada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. “Layli va Majnun”da terminlarning antitezaning ifoda materiali sifatida kelganligini ham uchratamiz:

Pashsha kim-u pillik xayoli,

Yo mo‘rg ‘a sherlik majoli? (“Layli va Majnun”, 2020:193).

¹⁴²Ибрагимова Ф. Бадиий матнда эллипсис ва антиэллипсис: Филол. фанлари ном... дисс.автореф. – Тошкент, 2011. – Б.26.

¹⁴³ Yo‘ldoshev M., Muhammedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – B.123.

Majnunning Layliga yuborgan maktubidan o‘rin olgan ushbu baytda Navoiy zoonimlarni qiyoslash orqali go‘zal badiiy ifodaga erishgan. Bu misolda antitezaning ifoda materiali sifatida *pashsha – pil, mo ‘r – sher* zoologik terminlari keltirilgan. Majnun Navfalning Layli qabilasiga xujumida o‘zining aloqasi yo‘qligini ta’kidlash asnosida, pashshaning o‘zi nimaki, u fillik xayoliga tushsa, yoki sherlik kuchini ko‘rsatish chumoliga qolibdimi, tarzidagi ifodadan foydalanadi. Bunda pashsha va fil, chumoli va sher kuchi va hajmi jihatidan qiyoslanib, pashsha va chumolining bu jihatdan ojizligini ta’kidlash orqali Majnunning holatiga ishora beriladi. Yana bir baytda Navoiy *ibtido – intiho* antonim terminlarni qo‘llab, antiteza yaratadi:

Bir uchi unutib ibtidoni,

Bir uchi sog ‘inmay intihoni (“Layli va Majnun”, 2020:112).

Shuningdek, dostonda o‘xshatish ma’nosini ifodalagan terminlar ham borki, quyida ularga ayrim misollar berish bilan cheklanamiz. Terminning o‘xshatish vazifasini bajargandagi uslubiy xususiyatlariga esa keyingi faslda to‘xtalamiz:

Hukmin surubon amirlardek,

Laylini chekib asirlardek (“Layli va Majnun”, 2020:42)

Terminlar asar matnida deyarli barcha gap bo‘laklari o‘rnida kela olgan. Gap **kesimi** axborot markazi, gapning asosiy konstruktiv bo‘lagi ekanligi ma’lum. “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan terminlar ko‘p o‘rinlarda ana shu konstruktiv vazifani bajargan:

Bu damki guharnisor xomang,

Tahrir etibon yetishti nomang (“Layli va Majnun”, 2020:205).

Ega vazifasida kelgan terminlar:

Daryo sanga tolibi navola,

Kishti kafida yig‘och payola (“Layli va Majnun”, 2020:10).

Har go‘shanishinu benavoyi,

Qilg‘aylar aning uchun duoyi. (“Layli va Majnun”, 2020:141)

To‘ldiruvchi vazifasida kelgan terminlar. Terminlar vositali va vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelgan. Vostali to‘ldiruvchiga misollar:

Kunduz sanga bir gadoyi rusi,
Xursheddin egnida kadusi (“Layli va Majnun”, 2020:9).

Tosh urmoq ila tani najandin,
Go‘yoki ayirdi ban-bandin. (“Layli va Majnun”, 2020:263).

Javzo ko‘zi to‘rt o‘lub *Baqardin*,
Topib Saraton ham ul nazardin. (“Layli va Majnun”, 2020:24)

Termin vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelgan baytlarga misollar:

Chun g‘unchani pora-pora qildi,
Ishq ichra anga bu gul ochildi (“Layli va Majnun”, 2020:122).

Tun tiyraligi demakdin ortuq,
Ko ‘zni yumub, istagan yorug‘luq (“Layli va Majnun”, 2020:47).

Aniqlovchi vazifasida kelgan terminlar. Sifatlovchi aniqlovchi:

Bir na ’shqa soldilar ikovni,
Jonsiz kelin-u, o‘luk kuyovni (“Layli va Majnun”, 2020:273).

Qaratqich aniqlovchi vazifasida kelgan terminlar:

Qo ‘bqa suyi obi zindagoniy,
Ul suv bila toza Hut joni. (“Layli va Majnun”, 2020:26)

Chun soldi xazonsovurdi har yon,
Gul barglarin uchirdi har yon (“Layli va Majnun”, 2020:262).

Hol vazifasida kelgan terminlar:

Jonsiz bo‘lubon tani nizori,
Tufrog‘ uzra yotsa jismi zori. (“Layli va Majnun”, 2020:265)

Tayyor qilib sipohi jarrow
Jarrowliq ichra barcha tayyor (“Layli va Majnun”, 2020:162).

Uyushiq bo‘lak vazifasini bajargan terminlar:

Ul elgaki dasht soridur mayl,
Turk-u arab-u buluj-u har xayl (“Layli va Majnun”, 2020:43).

Undalma vazifasida kelgan terminlar:

Ey choranamo, ilik yig‘ishtirur
Kim, dardima chora sa’b ishtur. (“Layli va Majnun”, 2020:140)

Gapning boshqa bo‘laklari bilan sintaktik bog‘lanmaydigan undalmalar o‘zining tabiiy nutqiy xarakteriga muvofiq real suhbatdoshni talab qiluvchi kategoriyalardan biri sanaladi. Biroq ko‘pincha poetik undalmalarga real shaxs yoki narsa emas, balki poetik nomlar sifatida qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Undalmalar poetik nutq sharoiti va vaqtiga qarab yangi kommunikativ vaziyatga moslashadi, ya’ni ular she’riy nutqda o‘zining dastlabki ma’nosini hamda vazifasini bir oz o‘zgartiradi. Shoir tomonidan she’riy asarga kiritilgan undalmalar: shaxs, tabiat va jamiyatdagi hodisalar, obyektlar va boshqalar, aslida makon va zamonda qancha uzoq bo‘lmasin, suhbatdoshida nisbatan shuncha yaqin masofada joylashganday, tasvirlanayotgan voqeа (obyekt)da bevosita ishtirok etayotganday tasavvur uyg‘otadi. Bunday undalmalar ritorik murojaatlardir¹⁴⁴. “Layli va Majnun” dostonida ham terminlar xuddi shunday vazifani bajarganini ko‘rishimiz mumkin:

Ey choranamo, ilik yig‘ishtirur

Kim, dardima chora sa’b ishtur. (“Layli va Majnun”, 2020:140)

Dostonda *ey charx, ey hur, ey dahr, ey navhagar* kabi terminlarning undalma vazifasida kelishida ham xuddi shu poetik xususiyatni, ya’ni adresatlarning jonlantirilganini ko‘rishimiz mumkin. Doston matnida terminlar ko‘proq yoyiq undalmani hosil qilish uchun ishlatilgan.

Ey jilvagahing sipehri axzar,

Raxshing izi rashki mehri anvar. (“Layli va Majnun”, 2020:9)

Shuningdek, doston matnida uchraydigan *Ey rutbada xayling ofarinish,...* *Ey ilm sanga ladunni anjom,...* *Ey zumrai anbiyo shafii,...* *Ey borchha suluk ichinda murtoz,...* *Ey piri muallimu muaddab,...* *Ey gulshani ishq bog‘boni,...* *Ey mahmili ishq sorboni,...* *ey guli sumanbar,...* *Ey, zoyiri ka’bai saodat, Ey kosh sipehri tiyra anjum, Ey nozu karashma bog‘ida vard,...* *Ey vodiyi Ayman ichra qo‘ychi,...* *ey tabibi hoziq,...* *ey kajrav sipehri xudroy, Ey soqiysi davr,..* *Ey bodi sabo* kabi termin undalmalar ham yuqoridagi jihatni namoyon etadi. Dostonda qo‘llanilgan murojaatlarning katta qismi an’anaviy obrazlar – shaxs va narsa ma’nolarini ifodalab kelgan. Umuman olganda, dostondagi undalma-murojaat

¹⁴⁴Куронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 254.

vazifasini bajargan terminlar sintaktik birlik sifatida bayt/misralarning muhim komponenti, tarkibiy qismi sifatida ham sintaktik, ham semantik, ham kommunikativ vazifaga ega. Inchunin, ular shoirning poetik imkoniyatlarini ochishga va g‘azalning badiiy quvvatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday birliklar subyektiv munosabat bildirish, nutq obyektini nomlash, shuningdek, shoirning hissiy munosabatlarini ifodalash vazifasini bajaradi¹⁴⁵.

Ta’kidlash kerakki, o‘zbek terminologiyasining katta qismi uchun xos bo‘lgan monosemantik tabiat “Layli va Majnun” dostoni terminlarining aksariyati uchun ham amal qiladi: *abr (bulut), ajal, azoliq, anjum, arpa, bo‘ri, g‘azal, yosimin, durj, do‘zax, kofir, kabutar, ko‘mur, livo (bayroq)* kabilar. Shu bilan birga bir sohaga oid terminning bir necha ma’noni ifodalash uchun xizmat qilganini ham kuzatamiz. Masalan, anatomiyaga doir *ayog‘* termini dostonda quyidagi ma’nolarda qo‘llanilgan.

Ayog‘ so‘zining dostonda ifodalagan ma’nolari

5-jadval

Termin	Baytda qo‘llanishi	Termin ma’nosi
Ayog‘	<i>O‘t ichra birovnikim solurlar, Bandini ayog‘idin olurlar</i> (B.117).	oyoq
	<i>Har yon chiqibon ayog‘-u otliq, Qaytib bori topmayin uyotliq</i> (B.132).	piyoda
	<i>Gar ursa tikan ayog‘ingga nesh, Ko‘nglung ayog‘ing uchun bo‘lur resh</i> (B.145).	Tovon, oyoq ostи
	<i>Changingga palang ko‘z solur chog‘, Boshtin-ayog‘i bu g‘ussadin dog‘</i> (B.176).	Oxir, so‘ng, intiho

Shakliy jihatdan o‘xhash terminlarning turli sohalarda qo‘llanib, turlicha ma’nolarni ifodalash orqali *omonimlik* hosil qilishi ham terminologiyada uchraydigan hodisa bo‘lib, tadqiq etilayotgan doston terminlari orasida bir soha

¹⁴⁵Rahmatov M. Alisher Navoiy lirkasining sintaktik-semantik va kommunikativ xususiyatlari: Filol. fanlari dokt. dis... avtoref. – Toshkent 2023. – B.32.

doirasida omonimlik hodisasi kuzatilmadi. Biroq, turli terminologik tizimlar o‘rtasida shakldoshlik mavjudligi kuzatildi.

Ayog‘ so‘zining sohalararo omonimlik hosil qilishi

6-jadval

Termin	Baytda qo‘llanishi	Termin ma’nosi
Ayog‘	<i>Roqibg‘a dog‘i darang bo ‘ldi,</i> <i>Markabning ayog‘i lang bo ‘ldi (B.47).</i>	Oyoq (NAIL 1-jild, B.47)
	<i>Har sharbati ayog‘i jomi Jamshed,</i> <i>Har sadqa fatiri kursi Xurshed (B.40).</i> <i>Kin andaki, bo ‘lsa razm chog‘i</i> <i>Lutf andaki, ichra bazm ayog‘i (B.282)</i>	Qadah, jom; may (NAIL 1-jild, B.47)

Sohalararo omonimlik kuzatilgan so‘zlar:

7-jadval

Termin	Baytda qo‘llanishi	Termin ma’nosi
Asad	<i>Ham qoplonidin Asadg‘a emgak,</i> <i>Ham takkasi Jady birla hamtaq (B.238)</i>	Shamsiya yilining beshinchi oy, quyosh burjlaridan beshinchi burj (NAIL 1-jild, B.120)
	<i>Itlar tili yerga tegurub bosh,</i> <i>G‘urra asad ichra aylabon fosh (B.171).</i>	Sher, arslon (NAIL 1- jild, B.120)
	<i>Ham xayli Bani Asadg‘a voli</i> <i>Yuz xayli Bani Asadcha moli (B.121)</i>	Qabila nomi
Burj	<i>Bo ‘lmay chu burjlarda sobit,</i> <i>Durlar yo ‘lig‘a sochib savobit (B.23).</i>	Burj (NAIL 1-jild, B.336)
	<i>Devonag‘a qoldi g‘am tuni dard,</i> <i>O‘z burjig‘a chiqdi moh-u shabgard</i>	O‘rin, joy, manzil (NAIL 1-jild, B.336)

Doston terminlari o‘rtasida *paradigmatik munosabatlar* ham mavjud bo‘lib, *giper-giponimik*, *partonimik*, *graduonimik munosabatlar* ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilshunosligida I.Ermatovning “Terminologiya tizimida gipero-giponimik va ekvonimik munosabatlar” mavzusidagi monografik tadqiqoti terminologiya tizimidagi semantik munosabatlar masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, muallif tadqiqotida terminlardagi gipero-giponimik va ekvonimik munosabatlarga batafsil to‘xalgan¹⁴⁶. Ma’lumki, leksemalar o‘rtasidagi *giper-giponimik munosabat* (*giponimiya*) tur-jins munosabati bo‘lib, leksemalar so‘zning semantik maydonidagi o‘rniga ko‘ra *giperonim* va *giponim* kabi turlarga ajraladi. Dostonda “umurtqalilarning tanasi par va patlar qoplangan, uchishga layoqatli bir sinfi; parranda” semamali *qush* giperonimining *bulbul*, *bum* (*boyqush*), *burgut*, *jo‘ja*, *zog‘* (*qarg‘a*), *kabutar*, *tazarv*, *tovus*, *to‘ti*, *o‘rdak*, *cho‘g‘z* (*boyo‘g‘li*), *turno*, *soqizg‘on*; “harakat qilish va sezish qobiliyaiga ega bo‘lgan tirik mavjudot, *jonivorhayvon* giperonimining *babr* (*cho‘l arsloni*), *bo‘ri*, *jayran*, *jamoza*, *teva* (*tuya*), *it*, *kiyik*, *kish*, *qoplon*, *qo‘bqa*, *ot*, *qo‘y*, *qo‘zi*, *qulon*, *qo‘chqor*, *nahjir* (*kiyik*), *g‘izol*, *noqa* (*urg‘ochi tuya*), *os*, *ohu*, *palang*, *pil*, *raxsh*, *savr*, *sher*, *xuffosh* (*ko‘rshapalak*), *ashhab* kabi giponimlari zoologiyada faol qo‘llanadi.

Yaroq giperonimining *yoy*, *zanjir*, *qilich*, *band*, *yo* (*yoy*, *kamon*, NAIL 1-jild, B.529), *katora* (o‘tkir qilich, *xanjar*, NAIL 2-jild, B.101), *novak*, *paykon*, *tig‘*, *tiyr* (o‘q, *kamon* o‘qi, NAIL 3-jild, B.225), *toziyona* (*qamchi*, NAIL 3-jild, B.240), o‘q, *xanjar*, *harba* (*nayza*, NAIL 4-jild, B.161), *qolqon*, *shashpar* (*oltin qirrali gurzi*, NAIL 3-jild, B.511) singari giponimik qatorlari Navoiy davri harbiy terminologiyadan keng o‘rin olgan.

Partonimiya tilda butun-bo‘lak munosabatini reallashtiruvchi hodisa hisoblanib, u Navoiyning “Layli va Majnun” asari terminologik sistemasida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, anatomiyaga oid *gavda* butun nomi *ayoq*, *bosh*, *burun*, *ko‘z*, *og‘iz*, *til*, *tirnog‘*, *qulog‘*, *qo‘l*, *ern* (lab ; 3-jild, B.567), *tish*; botanikaga xos *gul* butun nomi *barg*, *gulbarg*, *gulbun*, *yafrog‘*, *g‘uncha*;

¹⁴⁶ Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. – Тошкент: Tamaddun, 2022. – 251 б.

botanikaga doir *shajar* butun nom *nahl*, *nihol*, *meva* kabi meronimlarni o‘zida birlashtiradi.

Hozirgi o‘zbek terminologiyasida ifodasini topgan graduonimik munosabatlar doston terminlari o‘rtasida ham voqelanadi. Ma’lumki, graduonimiya ma’nodoshlik doirasida vujudga keladi. Ammo sinonimiya va graduonimiya hodisalari o‘rtasida farq mavjud. Tilshunos olim I.Ermatov sinonimik va graduonimik munosabatlar o‘rtasidagi farqlar sifatida quyidagilarni keltiradi: “Birinchidan, sinonimiya ular qatorini tashkil etgan lug‘aviy birliklar atash (nomlash) semalariga nisbatan bir xil bo‘ladi: ular ma’nosidagi bir turdagি narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holat anglashiladi. Darajalanish (graduonimiya) qatorini tashkil etuvchi lug‘aviy birliklar orqali ular ma’nosining ma’lum bir semalari turli darajadagi farqni bildiradi”¹⁴⁷. Graduonimiya tadqiq etilayotgan doston terminlari o‘rtasida ham mavjud. Xusan, bu munosabat yer sathining gorizontal ko‘rinishini bildiruvchi *dasht-bodiya-biyobon-sahro* terminlari orasidagi darajalanishda namoyon bo‘lgan.

Eski o‘zbek tili terminologiyasida hozirgi o‘zbek tili terminologiyasidagi kabi yuqorida kuzatilgan paradigmalar qatorida *sinonimik* va *antonimik munosabatlar* ham uchraydi. Ma’lumki, sinonimlar boshqa tillarda bo‘lgani kabi o‘zbek termiologiyasida ham faol qo‘llanuvchi leksik birliklardir. Terminshunos H.Dadaboyev termsinsinonimiya hodisasini o‘zbek terminologiyasining barcha shakllanish va rivojlanish bosqichlarida mavjud bo‘lganini ta’kidlaydi¹⁴⁸. Biroq yana bir terminshunos olim I.Ermatov terminlardagi sinonimlikni inkor etadi: “...terminologik tizimda terminlarning ma’nodoshligi ham alohida xususiyat kasb etadi. Sinonim so‘zlarda ekspressiv-bo‘yoqdorlik mavjud bo‘ladi. Terminlar esa bundan holi”¹⁴⁹. Muallif “Terminologiyada leksik-semantik hodisalar” nomli monografiyasida yuqoridagi fikrlarini davom ettiradi: “Terminlarda ko‘pincha ideografik xarakterdagi sinonimiya kuzatiladi. Biz buni terminlarda *dubletlik* deb

¹⁴⁷ Ermatov I. Terminologiyada leksik-semantik hodisalar. – Toshkent: “BOOK TRADE 2022”, 2023. – B.55.

¹⁴⁸ Bu haqda qarang: Дадабоев Х.Ўзбек терминологияси. – Ташкент: Актив Принт, 2020. – Б.93.

¹⁴⁹ Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. – Ташкент: Tamaddun, 2022. – Б.64.

atashni lozim topdik: *qo'shimcha va affiks, old qo'shimcha va prefiks, gapning grammatik asosi va gapning predikativ markazi, ikki sostavli gap va ikki bosh bo'lakli gap, bir sostavli gap va bir bosh bo'lakli gap* terminlari munosabatida sinonimiyaning ana shu turi mavjud”¹⁵⁰. Sinonim so‘zlarda ekspressiv-bo‘yoq dorlik mavjud bo‘lishi va bu xusussiyatning terminlar uchun xos emasligini inobatga olgan holda, “Layli va Majnun”da uchraydigan sinonimlarni-da *dubletlar* deyishni ma’qul ko‘rdik. Xususan, doston matnida quyidagi dubletlar uchraydi: *jashn-sur* “to‘y”, *aqd-nikoh* (nikoh), *mattyit-o'luk* (o‘lik, murda), *na'sh-tobut* (tobut), *ulus-xalq* (xalq, omma), *razm-urush* (urush, jang), *tiyr-o'q* (kamon o‘qi), *tabib-hakim* (shifokor), *ayoq-poy* (oyoq), *jannat-bihisht* (jannah), Munshiy-Tiyr (Merkuriy), *chashma-bulog'* (buloq) va boshqalar.

Ma’lumki, ikki o‘zaro qarama-qarshi ifodaga ega bo‘lgan ikki so‘z *antonimiya* hodisasini hosil qiladi. I.Ermatov terminologik tizimda qarama-qarshi ma’noli lug‘aviy birliklarni antonimlar emas, ekvonim termini bilan nomlashni ma’qul ko‘radi¹⁵¹. Bu til hodisasi terminlar uchun ham xos bo‘lib, biz tadqiq qilayotgan doston leksikasida *g'olib/mag'lub, do'st/aduv* “dushman”, *to'y/azo, tirik/o'luk, bazm/motam, sihhat/maraz* singari antonim juftliklar qo‘llangan. Ko‘rinadiki, mazkur antonim juftliklar bir semantik maydonda hosil bo‘lgan va bugungi kun o‘zbek terminologiyasida ham voqelanadi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi o‘zbek terminologiyasida sodir bo‘luvchi leksik-semantik jarayonlar eski o‘zbek terminologiyasi, xususan, Navoiy asarlari terminologiyasida ham voqelangani kuzatildi. Har qanday tildagi terminlar tizimi o‘sha tilda so‘zlovchi shaxslar uchun olamning lisoniy tasvirini yaratishda ishtirok etadi. Shu jihatdan Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni terminologiyasi xalqimizning konseptual dunyosini aks ettiradigan lisoniy tasvirni namoyon qiladi. Muayyan bir xalq nutqiy faoliyat tizimiga xizmat qiluvchi terminlar o‘sha xalq madaniyati, g‘oyaviy, mafkuraviy bazasi qanday ekanligi va xalq tafakkurining xususiyatlari haqida ma’lumot beradi. Umuman olganda, “Layli va Majnun”

¹⁵⁰Ermatov I. Terminologiyada leksik-semantik hodisalar. – Toshkent: “BOOK TRADE 2022”, 2023. – B.16.

¹⁵¹Ermatov I. Terminologiyada leksik-semantik hodisalar. – Toshkent: “BOOK TRADE 2022”, 2023. – B.54.

dostoni matnida o‘ziga xos vazifa bajarib, asar badiiyatining mukammalligiga xizmat qilgan terminlarni terminologik nuqtayi nazardan tadqiq qilish qator muammolarni yechish imkonini tug‘diradi:

1. “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan va o‘ndan ortiq sohalarga oid bo‘lgan terminlarni tarixiy asosda tadqiq qilish: bu muammo hozirgi terminologiyamiz tarixini yanada oydinlashtirishga, terminlar rivojini aniqlashga imkon tug‘diradi.

2. Dostonda ishlatilgan terminlarning leksik-semantik, yasalish usul va vositalarini chuqur tahlil qilish: bu masala eski va hozirgi o‘zbek tillari terminlarining o‘zaro aloqadorligi va bir-biriga bog‘liqlik holatini belgilashga xizmat qiladi.

3. “Layli va Majnun” dostonidagi terminlarni hozirda qo‘llanib kelinayotgan terminlar bilan qiyoslab o‘rganish: mazkur muammo Navoiy tilida ishlatilgan terminlarning qaysi birlarini hozirgi kunda ishlatish mumkin ekanligini yaqqol tasdiqlab bera oladi.

4. “Layli va Majnun” dostonida o‘z ifodasini topgan terminlarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilish o‘zbek adabiy tili terminologiyasi tarixini keng ko‘lamda yoritib berish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bob bo‘yicha xulosalar

1. Doston terminlari morfologik tahlil qilinganda, ularning aksariyati **ot** so‘z turkumiga oid so‘zlar ekanligi aniqlandi. Shuningdek, **fe’l**, **son** turkumlariga oid terminlar ham qo‘llanilgan. Otlardagi ko‘plik shakli *-lar* affiksi dostonda ayrim hollarda soha terminlariga qo‘silib, *ma’no kuchaytirish* vazifasini bajargan. **Sonlar** aniq miqdor ma’nosidan tashqari *noaniqlik*, *ma’no kuchaytirish*, “*bir-biriga*”, “*birortasidan*” kabi ma’nolarni ifodalab kelgan. Dostonda terminlarga qo‘silgan affikslar orasida *morfologik parallelizm*, *affiksal omonimiya* hodisalari ham uchraydiki, ular doston badiiyatini oshirishga xizmat qilgan.

2. Doston terminlari sintaktik jihatdan tahlil qilinganda, ular vositasida *sintaktik parallelizm*, *emotsional gaplar*, *ritorik so‘roq gaplar*, *inversiya*, *ellipsis*,

antiteza kabi hodisalar yuzaga kelganligini kuzatdik. Asarda terminlar barcha gap bo‘laklari vazifasida kela olgan.

3. “Layli va Majnun” dostoni terminlarining aksariyati *monosemantik tabiatda*: *abr (bulut)*, *ajal*, *azoliq*, *anjum*, *arpa*, *bo ‘ri*, *g ‘azal*, *yosimin*, *durj*, *do ‘zax*, *kofir*, *kabutar*, *ko ‘mur*, *livo (bayroq)* kabilar. Shuningdek, bir sohaga oid termin bir necha ma’noni ifodalash uchun xizmat qilgan holatlar ham bor. Doston terminlari orasida *omonimiya*, *giper-giponimik munosabat* (*giponimiya*), *graduonimik munosabat*, *partonimik munosabat*, *dubletlilik* va *antonimiya* hodisalari uchraydi. Hozirgi o‘zbek terminologiyasida sodir bo‘luvchi leksik-semantik jarayonlar eski o‘zbek terminologiyasi, xususan, Navoiy asarlari terminologiyasida ham voqelangani kuzatildi.

4. Dostonda terminlar *epitet*, *metafora*, *o ‘xshatish* kabi badiiy tasvir vositalarini hosil qilgan. Bu orqali matnning ekspressivligi, emotSIONALLIGI oshishiga erishilgan.

XULOSA

Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostoni terminlarining lingvo-kognitiv tahlilidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida terminologiya sohasida salmoqli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, hali yechimini topmagan masalalar ham talaygina. Xususan, o‘zbek tilshunosligida termin va atama, nomenklatura, istiloh so‘zlarining aralash qo‘llanilishi holati, terminning yondosh tushunchalarga munosabati yetarli darajada olib berilmaganligi ko‘zga tashlanadi. Shu bois so‘z va terminni chegaralash, terminning kelib chiqishi, terminologiyani tavsiflash kabi masalalar terminshunoslikning dolzarb muammolaridan ekanligi isbotlandi.

2. *Termin* tushunchasi terminologik tadqiqotlarning asosiy o‘rganish obyektidir. Turli sohalarga oid terminlarni tadqiq etish, ularning etimologiyasi va tilda yashab qolish yoxud iste’moldan chiqib ketish qonuniyatlarini o‘rganish terminologiyaning rivojiga hissa qo‘sadi. Xususan, badiiy asar terminologiyasini o‘rganish ko‘proq ilmiy uslubga xoslangan terminning badiiy uslubdagi imkoniyatlarini ochish, belgilash, shuningdek, ijodkorning qomusiy bilimlarini aks ettirish imkonini beradi. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni terminologiyasi tadqiqida bu isbotlangan.

3. Alisher Navoiy ijodkor bo‘libgina qolmay, jamoat ishlarida faol davlat arbobi edi. Tadqiq qilingan ishq dostoni badiiyatiga mahorat bilan singdirilgan terminlar Navoiy tafakkur olamining ko‘lamini tasavvur qilishga yordam beradi: *ijtimoiy-siyosiy, harbiy terminlar* Navoiyning davlat boshqaruvi va harbiy sohasidan qanchalik xabardor bo‘lganligini ko‘rsatsa, astronomik, musiqiy, tibbiyotga, adabiyotshunoslikka oid terminlar Navoiyning qomusiy bilim sohibi bo‘lganligidan dalolat beradi. Asardagi *marosim terminlari, diniy va tasavvufiy terminlar* esa o‘sha davr kishilarining turmush-tarzi, an’analarini ifodalashda, qadriyatları va e’tiqodlarini ko‘rsatishda muhim omil bo‘lib xizmat qilganligi dalillangan.

4. Tahlillar natijasida “Layli va Majnun”da qo‘llanilgan 778 ta termin aniqlandi va ular mavzuiy jihatdan 9 ta katta-kichik guruhlarga ajratildi. Navoiy mazkur dostonida *astronomiya, zoologiya, botanika, ekologiya, adabiyotshunoslik, musiqa, pedagogika, tibbiyot, anatomiya* kabi fan tarmoqlariga; *tikuvchilik, baliqchilik, yilqichilik va chorvachilik, oshpazlik, bog‘bonlik, zargarlik,*

savdogarlik, ovchilik, musavvirlik kabi kasb-hunarga oid terminlardan unumli foydalangani aniqlangan.

5. Dostondagi terminlarni etimologik nuqtayi nazaridan quyidagicha tasniflash mumkin: a) *o'z qatlam* 119 ta; b) *o'zlashma qatlam* 659 ta (*arabcha o'zlashmalar* 470 ta, *fors-tojikcha o'zlashmalar* 188 ta). Doston matnidagi terminlarning tarixiy-etimologik tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning qariyb 15 % turkcha, qolgan 85 % o'zga tillardan kirib kelgan. Tahlilga tortilgan 778 ta istilohning 491 tasi hozirgi o'zbek tilining izohli lug'atiga kiritilgan va adabiy til va shevalarda saqlangani aniqlangan.

6. Tahlillarga ko'ra, Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni leksikasidagi *o'z qatlam terminlari* 15 foiz (119 ta) terminlarning 96 foizi (112 ta) hozirgi o'zbek adabiy tili va shevalarida asl holida yoki biroz fonetik o'zgarishga uchragan holatda faol qo'llanishi aniqlandi. Qolgan 4 foiz termin (5 ta) esa eskirgan, tarixiy so'zlar bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida mutlaqo ishlatilmaydi. Bu so'zlar *arxaik so'zlar* bo'lib, davrlar o'tishi bilan tushuncha o'zgarmagan, ammo bu tushunchalarni ifodalovchi nom o'zgargan. Dostonda qo'llanilgan va o'zbek tilining izohli lug'atiga kiritilgan 491 ta terminning faqat 37 tasi (7 foizi) termin maqomida berilgani aniqlandi. Ko'rindiki, o'zbek tilining izohli lug'atida so'zlarni izohlashda turlichalikka yo'l qo'yilgan. Bu esa keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkinligi ishlab chiqilgan.

7. Dostonda tuzilishi jihatdan tub terminlar ko'p miqdorni tashkil etadi. Shunga qaramay, yasama (derivativ) terminlarning ham doston terminologiyasida o'rni salmoqli ekanligi, ot-termin, fe'l-terminlarni yasashda faol bo'lgan qo'shimchalar asardan olingan misollar bilan asoslangan. Dostondagi qo'shma terminlarning ot+ot, ot+fe'l, fe'l+ot, son+ot, sifat+ot shaklidagi derivatsion qolipga ega modellaridan foydalanilganligi kuzatilgan.. Dostonda murakkab birikma holida kelgan terminlar ham mavjud bo'lib, sintaktik usul bilan yasalgan birikmali terminlarning ikki komponentli turi ko'p uchrashi, uch, besh va undan ko'p komponentli birikmalar esa deyarli uchramasligi misollar asosida dalillangan.

8. Doston terminlari morfologik tahlil qilinganda, ularning aksariyati ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ekanligi aniqlandi. Shuningdek, fe’l, son turkumlariga oid terminlar ham qo‘llanilgan. Otlardagi ko‘plik shakli *-lar* affaksi dostonda ayrim hollarda soha terminlariga qo‘silib, *ma’no kuchaytirish* vazifasini bajargan. Sonlar aniq miqdor ma’nosidan tashqari muallifning badiiy maqsadiga ko‘ra, *noaniqlik*, *ma’no kuchaytirish*, “*bir-biriga*”, “*birortasidan*” kabi ma’nolarni ifodalab kelgan. Dostonda terminlarga qo‘silgan affikslar orasida *morfologik parallelizm*, *affiksal omonimiya* hodisalari ham uchraydiki, ular doston badiiyatini oshirishga xizmat qilganligi isbotlangan.

9. Doston terminlari sintaktik jihatdan tahlil qilinganda, ular vositasida *sintaktik parallelizm*, *emotsional gaplar*, *ritorik so‘roq gaplar*, *inversiya*, *ellipsis*, *antiteza* kabi hodisalar yuzaga kelganligi kuzatilgan. Terminlar gap bo‘laklari sifatida tahlil qilinganda, terminlarning badiiy matnda barcha gap bo‘laklari vazifasida kela olishi misollar orqali ishlab chiqilgan. Dostonda terminlar *epitet*, *metafora*, *o‘xshatish* kabi badiiy tasvir vositalarini hosil qilib, ijodkorning olam haqidagi qarashlarini, bilimlarini ifodalashga xizmat qilganligi aniqlangan. Bu orqali matnning ekspressivligi, emotsionalligi oshishiga erishilganligi dalillangan.

10. “Layli va Majnun” dostoni terminlarining aksariyati *monosemantik tabiatda*: *abr (bulut)*, *ajal*, *azoliq*, *anjum*, *arpa*, *bo‘ri*, *g‘azal*, *yosimin*, *durj*, *do‘zax*, *kofir*, *kabutar*, *ko‘mur*, *livo (bayroq)* bo‘lsa, bir sohaga oid termin bir necha ma’noni ifodalash uchun xizmat qilgan holatlar ham mavjudligi aniqlangan. Doston terminlari orasida leksik birliklarga xos *omonimiya*, *giper-giponimik munosabat (giponimiya)*, *graduonimik munosabat*, *partonimik munosabat*, *dubletlilik va antonimiya* hodisalari ham uchrashi, hozirgi o‘zbek terminologiyasida sodir bo‘luvchi leksik-semantik jarayonlar eski o‘zbek terminologiyasi, xususan, Navoiy asarlari terminologiyasida ham voqelangani aniqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 40сон, 29.01.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 4479-сон, 04.10.2019.
3. Oliy ta’lim muassasalarida ta;lim sifatini oshirish va ularning malakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-3775-сон, 05.06.2018.
4. Ўзбек тилининг давлат тили сифатида нуфузи ва мавқенини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони . 2019 йил 21 октябрь ПФ-5850-сон // Халқ сўзи. – 2019 йил, 22 октябрь.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar:

6. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 157 б.
7. Базарова Д. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Ташкент, 1978. – 224 с.
8. Бегматов Э.А. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 313 б.
9. Бегматов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.
10. Дадабаев Х. “Замонавий ўзбек лексикографияси ва терминологияси” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент, 2018. – 98.

11. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.
12. Дадабоев X. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 138 б.
13. Dadayev S., Mavlonov O. Zoologiya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008. – 181 б.
14. Элтазаров Ж. Тилдаги тежамлилик тамойили ва қисқарув. – Самарқанд: САМДУ, 2004. – 111 б.
15. Ermatov I. Terminologiyada leksik-semantik hodisalar. – Toshkent: “BOOK TRADE 2022”, 2023. – 119 б.
16. Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар. – Тошкент: Tamaddun, 2022. – 251 б.
17. Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. Ахборот. 11 – 12 чиқарув. – Тошкент: Фан, 1996. – 45 б.
18. Иброҳимов С. Фаргона шеваларининг касб-хунар лексикаси. II-III. – Тошкент: Фан, 1959. – 456 б.
19. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 304 б.
20. Кадирбекова Д.Х. Инглиз ва ўзбек тилларида ахборот технологиялари терминологиясининг лингвистик хусусиятлари. Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2016. – 128 б.
21. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 178 б.
22. Mustafayeva S.Xitoycha-o‘zbekcha tilshunoslik terminlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2014. – 111 б.
23. Мухитдинова Х., Худойберганова Д., Умиров И., Жиянова Н., Юсупова Т. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: «ILM ZIYO», 2004. – 208 б.
24. Нурмонов А. Систем тилшунослик асослари. – Маъruzalар матни. Андижон, 2007. – 186 б.

25. Omonova M. Meliorativ terminlarning leksik-semantik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida). – Samarqand, 2023. – 153 b.
26. Pardayev A. Urinbayeva D. Islamova D. O‘zbek terminologiyasi. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 260 b.
27. Кўнгурорв Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 152 б.
28. Расулов Р., Хусанов Н., Муйдинов К. Нутқ маданияти ва нотикълик санъати. Ўқув қўлланма. – Тошкент: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. – 158 б.
29. Раҳматов М. Поэтик нутқ: структура ва семантика. Монография. – Тошкент, 2023. – 114 б.
30. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. — Жиззах: Сангзор, 2006. – 178 б.
31. Усмонов С. Гиппологическая терминология современного узбекского языка. – Ташкент: Адолат, 1993. – 141 б.Yo‘ldoshev M., Muhammedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 188 б.
32. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи, — Тошкент: Фан, 2013. – 135 б.
33. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент, 2016. – 306 б.
34. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 313 б.
35. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. www.ziyouz.com кутубхонаси. – 323 б.

2) Xorijiy nashrlar:

36. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – 608 с.
37. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – Москва: Наука, 1977. – 246 с.
38. Ганиев С Б. Введение в терминоведение. – Москва, 1993. – 309 с.

39. Голованова Е.И. Когнитивное терминоведение: учебное пособие. Челяб. гос. ун-т. Челябинск: Энциклопедия, 2008. – 224 с.
40. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. – Москва, 1987. – 264 б.
41. Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение. Москва: Издательский центр «Академия», 2008. – 304 б.
42. Ивина Л.В. Лингво-когнитивные основы анализа отраслевых терминосистем (на примере англоязычной терминологии венчурного финансирования). – Москва: Академический проект, 2003. – 304 б.
43. Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов. – Москва, 1977. – 167 с.
44. Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. 3-е изд. – Москва: Издательство ЛКИ, 2007. – 52 с.
45. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. – Москва, 1961. – 160 с.
46. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. 3-е изд. – Москва, 1998. – 273 с.
47. Виноградов В.В. Избранные труды: Исследования по русской грамматике. – Москва: Наука, 1975. – 559 с.
48. Виноградов В.В. Избранные труды: Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – 312 с.
49. Циткина Ф.А. Терминология и перевод: к основам сопоставительного терминоведения. – Львов, 1988. – 156 с.

III. Lug‘atlar

50. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик, I том – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б.
51. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик, II том – Тошкент: Фан, 1983. – 644 б.
52. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик, III том – Тошкент: Фан, 1983. – 624 б.

53. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик, IV том – Тошкент: Фан, 1983. – 636 б.
54. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – 166 б.
55. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 361 б.
56. Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 408 б.
57. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003. – 600 б.
58. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар) – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
59. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2009. – 283 б.
60. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – 261 б.
61. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдлик: 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 680 б.
62. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдлик: 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 672 б.
63. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдлик: 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 688 б.
64. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдлик: 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 608 б.
65. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдлик: 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 680 б.
66. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 1-жилд. – 680 б.
67. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. 4-жилд. – 608 б.

IV. Badiiy adabiyotlar:

68. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 343 b.
69. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун (насрий табдил). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 190 б.
70. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Лайли ва Мажнун. – Тошкент: Фан, 1992. – 306 б.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

71. Абдирашева А.С. Замонавий турк тилидаги иқтисодий терминларнинг лингвокогнитив таҳлили: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 54 б.
72. Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 53 б.
73. Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солик-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фанлари док... дисс. – Тошкент, 2016. – 255 б.
74. Болтаева И.Т. Ўзбек халқ достонларида эпитет табиати: Филол. фанлари ном... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 20 б.
75. Джамалханов Х. Из истории формирования и развития узбекской ботанической терминологии. Автор. дисс...канд.филол.наук. – Ташкент, 1966.
76. Джурабаева З.А. Ўзбек тилида экологик терминлар: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018. – 153 б.
77. Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқики (структур-грамматик, функционал-семантик аспектларда): Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2007. – 169 б.
78. Эрматов И.Р. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти (умумий ўрта таълим мактабларининг дарслклари асосида):

- Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 52 б.
79. Ernazarova I. Muallif so‘z ijodkorligining lisoniy-kognitiv tahlili (Eshqobil Shukur ijodi misolida): Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) ...diss. – Samarqand, 2022. – 129 b.
80. Элтазаров Ж.Д. Усечение в узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Самарканд, 1992. – 21 с.
81. Грудева Е.В. Избыточность текста, редукция и эллипсис (на материале русского языка): Автореф. дисс. ... д-ра. филол.наук. – Санкт-Петербург, 2008. – 54 с.
82. Хотамов Н.Т. Развитие узбекской литературоведческой терминологии в советский период: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – Москва, 1971. – 28 с.
83. Ибрагимова Ф. Бадий матнда эллипсис ва антиэллипсис: Филол. фанлари ном... дисс.автореф. – Тошкент, 2011. – 26 б.
84. Исақова З. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фанлари ном... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 24 б.
85. Исломов И. Ўзбек тилининг географик терминологияси: тизими, генезиси, семантик структураси ва лексикографик талқини: Филол. фанлари док... дисс. – Қарши, 2021. – 210 б.
86. Жалилова Н.Р. Бадий матндаги қон-қариндошлиқ терминларининг типологик ва структурал-грамматик тавсифи: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 44 б.
87. Жамолиддинова Д. Бадий матнда терминларнинг лингвопоетик ва лингвокултурологик хусусиятлари: Филол. фанлари док... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 54 б.
88. Жуманазарова Г. “Ширин билан Шакар” достонининг лугавий ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2008. – 222 б.

89. Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 44 б.
90. Кобрин Р.Ю. Лингвистическое описание как база концептуального моделирования в информационных системах: Дисс. ... док. филол. наук. – Горький, 1989. – 103 с.
91. Махмудов Н. Эллипсис в современном узбекском языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – Тошкент, 1977. – 110 с.
92. Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси. Филол. фанлари ном... дисс. автореф. – Тошкент, 1986. – 27 б.
93. Мирзахмедова Ҳ.В. Форс тили транспорт терминларининг структур қатламлари ва ясалиш усувлари: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 45 б.
94. Мустафаева С.Т. Хитой тилшунослик терминологияси: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 42 б.
95. Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2009. – 135 б.
96. Нуритдинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили. Филол. фанлари ном... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 23 б.
97. Нурматова С.Х. Истоки формирования и функционирование астроавиакосмической терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2000. – 24 с.
98. Палуанова Ҳ.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида): Филол. фанлари док... дисс. – Тошкент, 2016. – 232 б.

99. Rahmatov M. Alisher Navoiy lirikasining sintaktik-semantik va kommunikativ xususiyatlari: Filol. fanlari dokt. dis... avtoref. – Toshkent 2023. – 70 b.
100. Сабирова Э. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2021. – 179 б.
101. Садыкова И.Х. Принципы составления англо-русско-узбекского учебного словаря юридических терминов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998. – 174 с.
102. Усмонов Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси. Филол. фанлари ном... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 24 б.
103. Володина, М. Н. Когнитивно-информационная природа термина и терминологическая номинация: автореф. дис. ...д-ра филол. наук. – Москва, 1998. [Сайт]. URL: <http://www.disscat.com/content/kognitivno-informatsionnaya-priroda-termina-iterminologicheskaya-nominatsiya>.
104. Xasanov A. Sadriddin Ayniy “Sudxo‘rning o‘limi” povesti terminlarining tarkibiy-mazmuniy tahlili: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 52 b.
105. Ходжаева Д.И. Тилшунослик терминларининг лексикографик таҳлили (инглиз, рус ва ўзбек тиллари изоҳли луғатлари мисолида): Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 53 б.
106. Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм достонлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2000. – 160 б.
107. Ёдгоров Ҳ. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи. Филол. фанлари ном... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 26 б.
108. Юлдашев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш. Филол. фанлари док... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 46 б.

109. Юсубова Р.Н. Тежамлилик ва ортиқчаликнинг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари ном... дисс автореф. – Самарқанд, 2021. – 54 б.
110. Зарипов Б. Зоонимларнинг бадиий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки (Алишер Навоий асарлари мисолида): Филол. фанлари ном... дисс. – Тошкент, 2002. – 128 б.
111. Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. –18 б.
112. Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси: Фалсафа доктори ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 60 б.

VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

113. Алексеева Л.М. О тенденциях развития современного терминоведения / Л.М. Алексеева, С.Л. Мишланова // Актуальные проблемы лингвистики и терминоведения: междунар. сб. науч. тр., посвящ. юбилею проф. З.И. Комаровой. – Екатеринбург, 2007. – С.10.
114. Бердақ Ю.Навоий асарларида иқтисодий атамалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017, №4. – Б.25.
115. Дадабоев Ҳ. Оғаҳий тарихий асарларидаги ўзлашма қатлам хусусида. Лингвист: илмий мақолалар тўплами / ЎзР Олий ва ўрта таълим вазирлиги, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий ун-ти; масъул муҳаррир Ҳ.Дадабоев. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б.4.
116. Экономика и социум. №11 (90) 2021. www.iupr.ru – С.198.
117. Голованова Е.И. Предмет и задачи когнитивно-исторического терминоведения / Е.И.Голованова // Научно-техническая терминология. – 2007. - Вып. 1. – С. 12-13.
118. Гринев С.В. Терминоведение на пороге третьего тысячелетия // Научно-техническая терминология. – 2000. – Вып. 1. – С.31-34.
119. Исанова Ф.Т. Ўзбек тилида халқаро ҳуқуқ соҳасига оид терминлар ва уларнинг ясалиши. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2022. – № 2(5). ISSN: 2181-1342(Online)<https://scienceproblems.uz>

120. Karimov O. Jahon adabiyoti, 2014, №8. – B.23.
121. Khodjaeva D. Lexicographic analysis of linguistic terms (on the basis of materials of explanatory dictionaries of the English, Russian and Uzbek languages)//International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020/1/15, Issue 6.
122. Колесникова Е.А. Русская лингвистическая терминология второй половины XVIII - первой трети XX вв // Мир науки, культуры, образования. № 2 (21). – Красноярск, 2010. – С. 222-226.
123. Лейчик В.М. Языки для специальных целей – функциональные разновидности современных развитых национальных языков // Общие и частные проблемы функциональных стилей. – Москва, 1986. – С. 50-55.
124. ЛЭС / под ред. В.Н. Ярцевой. – Москва, 1990. – С. 464.
125. Мадвалиев А. Изоҳли лугатда терминларнинг лексикографик талқинига доир//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. №1 – Б.192.
126. Маджаева С. Медицинские терминосистемы: становление, развитие, функционирование (на материале предметных областей медицины сахарный диабет и СПИД). Астрахань: АГМА, 2012. – С.13.
127. Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада?//Тилшуносликнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишилаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-219.
128. Манерко Л.А. Истоки и основания когнитивно-коммуникативного терминоведения / Л.А. Манерко // Лексикология. Терминоведение. Стилистика: сб. науч. тр., посвящ. юбилею В.М. Лейчика. Москва: Рязань, 2003. – С.120-126.
129. Муродов М. Ўзбек Гўрўғли достонларидаги доимий эпитетлар хақида // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – Тошкент: Фан, 1961. 3 китоб. – Б. 344-353.
130. Новодранова В.Ф. Проблемы терминообразования в когнитивно-коммуникативном аспекте / В.Ф. Новодранова // Лексикология.

- Терминоведение. Стилистика: сб. науч. тр., посвящ. юбилею В.М. Лейчика. – Москва: Рязань, 2003. – С. 150-155.
131. Раҳмонов Б. Анъанавий халқ эпосининг бадиий тили // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2005. – № 3. – Б. 21-24.
132. Sayidiraximova N. “Kognitiv tilshunoslikda “tushuncha” va “konsept”, ularni tahlil qilish usullari”; Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 2 (43), 98-107 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online), – B.101.
133. Виноградов В.В. Вступительное слово. – «Вопросы терминологии (Материалы терминологического совещания)». – Издательство АН, 1961. – С. 6-7.
134. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языковедению. – Москва, 1939. – С. 3-54.
135. Холмонова З., Рахимова З. Бадиий матнда терминларнинг ўхшатиш сифатида қўлланиши. (Т.Маликнинг “Саодат саройининг калити” асари мисолида). Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3 (1 Part 1). – Б. 147-150.
136. Хошимов Г. М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишлиланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2010. – Б.68.
137. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурэма атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 49-56.
138. Shukurov R. Sintaktik parallelizmning uslubiy vazifalari // O‘TA, 2004, №2. – B.73.

VII. Internet saytlari

139. <http://rus-yaz.niv.ru/doc/linguistic-terms/fc/slovar-210.htm#zag-1682>

140. <https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/download/639/575/1203>
141. <https://izoh.uz/uz/word/parallelizm>
142. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'iati
143. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/marosim-uz/>
144. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tilshunoslik-uz/>
145. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/til-uz-2/>
146. <https://uz.wiktionary.org/wiki/nomenklatura>.
147. <https://www.google.com/search?q=Talqin+va+tadqiqotlar+respublika+ilmiy+uslubiy+jurnali>
148. Тадқиқот ва инновациялар журнали. ISSN: 2181-4058
www.imfaktor.uz.№712. – Б.2.

SHARTLI QISQARTMALAR

- 1.** NAIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. Тўрт томлик, I, II, III, IV томлар.
- 2.** O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. I, II, II, IV,V жилдлар.